



ORIENTAL
UNIVERSITETI

SHAXLOXON KARIMOVA



**XX ASR BOSHLARI
SHINJONG O‘ZBEK
SHE’RIYATI**



Monografiya

“Pages print” nashriyoti
Toshkent – 2025

UO'K: 821.512.133.09-1(09)

KBK: 83.8(50')

K 25

Karimova Sh.G'.

XX asr boshlari Shinjong o'zbek she'riyati [Matn]: monografiya /
Sh.G.Karimova. – Toshkent: "Pages Print" nashriyoti, 2025. – 148 b.

Muallif:

Sh.G'.Karimova – *Oriental universiteti "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi"*
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul muharrir:

Boqijon Tuxliyev – *filologiya fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar:

N.Jabborov – *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili*
va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

N.Mirsaidova – *Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika*
universiteti "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi"
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

F.Egamberdiyeva – *Oriental universiteti "Uzluksiz ta'lim*
pedagogikasi kafedrasi professori

Mazkur monografiya Oriental Universiteti "Uzluksiz ta'lim pedago-
gikasi" kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqildi va Universitet Kengashi
muhokamasiga tavsiya etildi. Bayonnoma №2. 10.09.2025 y.

Oriental Universiteti Kengashining 2-yig'ilishida muhokama etildi va
nashrga tavsiya etildi. Bayonnoma №2. 2025-yil oktyabr.

ISBN 978-9910-8365-1-0

© Sh.G.Karimova, 2025.

© "Pages Print" nashriyoti, 2025.



SO'ZBOSHI

Sharqiy Turkiston – o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, ko'p asrlik adabiy an'analari va xalqona ruh bilan sug'orilgan she'riyati bilan Markaziy Osiyo adabiy manzarasida alohida o'rin egallagan o'lkalardan biridir. Ayniqsa, XX asr boshlarida bu hududda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar adabiy hayotga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda uyg'ur va o'zbek xalqlari o'rtasidagi tarixan shakllangan madaniy-adabiy aloqalar yanada mustahkamlanib, ikki xalqning og'zaki va yozma ijodi o'zaro boyib bordi. Mushtarak tarix, umumiy ruhiy-ma'naviy olam, diniy va axloqiy qarashlarning o'xshashligi, til yaqinligi bu aloqalarning tabiiy va barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda shakllangan adabiy muhit — bu faqatgina she'riy ijod namunalari to'plami emas, balki xalq ruhiyatining, erkinlikka intilishining, adolatga chanqoqlikning, ma'naviy uyg'onishning ifodasi sifatida maydonga chiqqan ijtimoiy-badiiy hodisadir. Ushbu davr adabiy jarayonlarida uyg'ur va o'zbek ijodkorlari faol qatnashgan bo'lib, ular nafaqat o'z xalqining, balki bir-birining adabiy-estetik tafakkuriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, shoirlar Dilafkor, Zarif Qori Toshkandiy, Bilol Aziziy, Nasrulloh Qori Farhatiy kabi ijodkorlar o'z asarlarida zamon ruhi, xalq taqdiri, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini dadil ilgari surdilar.

Mazkur monografiyada XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda kechgan adabiy jarayonlar, o'zbek va uyg'ur adabiy aloqalari, ikki xalq orasidagi ma'naviy mushtaraklik, shoir va yozuvchilarning ijodiy hamkorligi hamda bu aloqalarning badiiy-ma'naviy jihatdan qanday natijalar bergani chuqur tahlil etiladi. Shuningdek,





Sharqiy Turkiston adabiy muhitining o'ziga xosligi, undagi tanqidiy-realistik tendensiyalar, xalqparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalari asosida yaratilgan asarlarning mohiyati, ularning hozirgi adabiyotshunoslikdagi o'rni ham ilmiy asosda ochib beriladi.

Mazkur tadqiqot ikki xalq adabiy merosini qiyosiy o'rganish orqali ularning o'zaro ruhiy-ma'naviy mushtarakligini yoritishga, tarixiy voqealar fonida shakllangan adabiy tafakkur darajasini aniqlashga, o'zbek-uyg'ur adabiy munosabatlarini yangi ilmiy mezonlar asosida qayta talqin etishga qaratilgan. Monografiyada faqat adabiy faktlar emas, quruq axborotlar emas, balki ularning ijtimoiy, falsafiy va madaniy ildizlari ham chuqur tahlil etiladi.

Adabiyotshunos Shahlo Karimova bir necha yillardan buyon uyg'ur-o'zbek adabiy aloqalari, ikki adabiy muhitning o'ziga xos mushtarak jihatlari va Sharqiy Turkistonga turli sabablar bilan ketib o'sha yerda yashab qolgan ijodkorlar faoliyati va adabiy merosini o'rganish borasida izlanishlar olib borayotgan olimalardan hisoblanadi. Bu monografiya muallifning ana shu izlanishlari samarasi o'laroq yuzaga kelgan tadqiqot bo'lib, kitob yuzasidan bildiriladigan har qanday mulohaza va fikrlarni mamnunlik bilan qabul qilishiga aminman.

Ushbu kitob nafaqat adabiyotshunoslar, balki tarixchilar, madaniyatshunoslar, tilshunoslar hamda ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va madaniy hamkorlik tarixiga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga uchun ham foydali bo'lishiga ishonch bildiramiz.

Sharqiy Turkiston adabiy muhitini tahlil qilish orqali biz milliy uyg'onish ruhini, xalq tafakkuridagi badiiy ifodani, milliy ruhning so'z san'ati orqali qanday yuksalgani va bu jarayonda o'zbek-uyg'ur shoirlarining tutgan o'rnini chuqurroq anglaymiz. Zero, adabiyot — bu xalqning ruhiy tarixidir, uni o'rganish esa milliy o'zlikni anglashning muhim kalitidir.

Boqijon Tuxliyev,

adabiyotshunos, professor.





XX ASR BOSHLARIDA SHARQIY TURKISTONDAGI ADABIY MUHIT VA O'ZBEK-UYG'UR ADABIY ALOQALARI

XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston (bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasiga qarashli Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni) o'ziga xos siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida shakllangan adabiy muhitga ega bo'lgan. Bu davr mintaqa tarixida milliy uyg'onish, ma'rifiy harakatlar va yangi adabiy shakllarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, 1920–1930-yillar oralig'ida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar uyg'ur xalqining milliy ongini tiklash, o'z madaniy merosini anglash va uni rivojlantirishga bo'lgan intilishini kuchaytirdi.

Tarixiy jihatdan Sharqiy Turkiston turkiy xalqlar, xususan, uyg'ur va o'zbek xalqlarining qadimiy vatani bo'lib, bu hududda bosib o'tilgan ijtimoiy bosqichlar, ozodlik uchun kurashlar va adabiy-ma'rifiy harakatlar o'zbek va uyg'ur adabiyoti taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. XX asr boshlarida uyg'ur adabiyotida yangi uslub va janrlar shakllanib, diniy-ma'rifiy g'oyalar, mustaqillik, erkinlik, xalq manfaatlarini ifodalovchi ruhdagi asarlar yaratila boshlandi.

Bu jarayonda o'zbek adabiyoti bilan uyg'ur adabiyoti o'rtasidagi aloqalar yanada faollashdi. O'zbek adabiyotining taraqqiy etgan shakllari, adabiy-uslubiy tajribalari uyg'ur adiblari ijodiga ilhom manbai bo'ldi. Ikkala adabiyot vakillarining o'zaro muloqoti, tarjimalar, adabiy davralar va hamkorlikda yaratilgan asarlar orqali ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalar mustahkamlandi.

Mazkur davrda yaratilgan adabiy-tarixiy asarlar, ayniqsa, uyg'ur xalqining ozodlik uchun kurashini, ijtimoiy tenglik,





adolat va ma'rifat g'oyalari yoritgan bo'lib, ular o'zbek adabiy jamoatchiligida ham katta e'tirofga sazovor bo'lgan. Bu adabiy hamkorlik ikki xalqning tafakkur maydonini boyitdi, madaniy merosni saqlash va rivojlantirish yo'lida muhim zamin yaratdi.

XX asr boshlarida Sharqiy Turkistondagi tarixiy-siyosiy sharoit juda murakkab, keskin va ijtimoiy-siyosiy kurashlarga boy bo'lgan.

Beijing markaziy hukumati tomonidan nazorat ostida bo'lsa-da, amalda mintaqada ko'pincha mahalliy xonlar, harbiy rahbarlar va gubernatorlar hokimiyatni ushlab turgan. Mahalliy xalq, ayniqsa uyg'urlar, xitoylik amaldorlardan, soliq bosimi, til va din erkinliklarining cheklanishidan norozi edi.

Bu sharoitda mustaqillik va siyosiy o'zlikni tiklash g'oyalari kuchaya boshladi.

1900–1930-yillar oralig'ida butun Turkiston hududida, xususan O'zbekistonda vujudga kelgan **jadidchilik harakati** Sharqiy Turkistonga ham kirib keldi.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, shonli o'tmishimizning turli davrlarida yurt har tomonlama rivojlanishga yuz tutdi, bir davrda taraqqiyot pallasiga ko'tarildi, bir davrida inqirozga duch kelib parokanda bo'ldi, sochildi. Buning jabri faqat oddiy xalqqa bo'ldi, aziyat ko'rgan sho'r peshona mana shu xalq bo'ldi. Ammo tarixning bunday og'ir davrida elning dard yukini yelkasida tutuvchi, mazlumlar dodini tushunuvchi, qalb ko'zi va ongi uyg'oq xalq farzandlari tarix sahnasiga chiqdi, atorfiga shunday hurfikrli, dunyoqarashi keng, ezilgan xalq dardiga darmon bo'luvchi hamfikrlarni to'pladi, hammaslak bo'ldi.

XIX asr oxiri XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan va uning hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat bo'lgan jadidchilar tom ma'noda yurt taraqqiysi, og'riqli dardida yongan vatanparvar, ma'rifatparvar shaxslarni tarix sahnasida bir maqsad yo'lida kengashga chorladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy





Ashurali Zohiriy, Obidjon Mahmudov¹ kabi keng bilimlar egasi va bu bilimlarini vatan rivoji yo'lida sarflashga intilgan, o'rni kelsa ushbu jarayonlarni moddiy jihatdan qo'llab quvvatlashda o'z hissasini mablag'ini ayamagan siymolar jadidchilik harakatining yorqin namoyandalari bo'ldilar.² Jadidchilik "Millat va Vatan ning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo'yilgani haqida bong urdi...ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi." Albatta, bu g'oyalarning asosida milliy uyg'onish, o'zlikni ahnglash, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Xalq erki va ozodligi yo'lida jon berish evaziga bo'lsa-da erishishga qattiq bel bog'ladilar, elni ortlaridan ergashtirishga urindilar.

"Jadidchilikning fenomeni shundaki, - deb yozadi professor D.Alimova. – keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib, milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustqail Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uyqidagi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, ziyolilarni o'z ortidan ergashtira oldi."³

Natijada ma'rifatparvar ziyolilar jaholatga qarshi turib, dunyoviy bilimlar, zamonaviy ta'lim, ayollar huquqlari, milliy til va adabiyot targ'ibini boshladilar. Yangi usul maktablari ochildi, gazeta va jurnallar nashr etildi. Ushbu harakatlar siyosiy mustaqillik g'oyalarini ham ilgari surdi.

Bu davrda Sharqiy Turkiston xalqi Xitoy hukmronligiga qarshi bir necha bor qo'zg'olon ko'tardi: Turli mahalliy guruhlar, jumladan

¹ Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari. Toshkent: Akademiya, 1999. 23-bet.

² Qosimov B va mual.jamoasi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "O'zbekiston", 23-bet.

³ Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T., "Universitet", 1999. 42-bet.





uyg'ur, qozoq va boshqa turkiy xalqlar Xitoyning kuchaygan bosimiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar.

Qashg'arda qisqa muddatli mustaqil respublika e'lon qilindi, ammo u Xitoy va Sovet Ittifoqining siyosiy bosimi bilan tez orada tugatildi.

XX asr boshlarida Xitoy hukumati uyg'urlarni xitoylashtirish siyosatini boshlab yubordi. Uyg'ur tili, madaniyati va islom diniga bosim kuchaydi. Adabiyot, san'at, matbuot ustidan nazorat kuchaytirildi, ayrim ziyolilar ta'qib qilindi.

Sharqiy Turkistondagi XX asr boshlaridagi siyosiy sharoit mustamlakachilik, ijtimoiy norozilik, milliy uyg'onish, ozodlik uchun kurash va tashqi siyosiy bosimlar bilan murakkab bo'lgan. Aynan shu siyosiy holat uyg'ur va o'zbek adabiyotiga ma'rifiy, vatanparvarlik, ozodlik, xalq taqdiri kabi mavzularni olib kirdi. Shu sababli, bu davrdagi adabiy muhit siyosiy kurashlarning badiiy ifodasiga aylandi.

Tarixiy-siyosiy sharoit Bu davr Sharqiy Turkiston (hozirgi Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni) tarixida tahlikali, lekin uyg'onish boshlangan davr bo'lib, siyosiy mustaqillik harakatlari, milliy ongning kuchayishi va ma'rifiy yuksalish bilan birga og'ir ijtimoiy-siyosiy bosimlar va repressiyalar bilan ham ajralib turadi.

XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston Xitoy imperiyasi tarkibida bo'lsa-da, mustaqillik va milliy ozodlik g'oyalari kuchaygan.

1933-yilda Qashqarda birinchi Sharqiy Turkiston Islom Respublikasi e'lon qilinadi. Bu harakatlar mintaqadagi adabiy va madaniy uyg'onishga ham turtki bo'lgan.

Adabiy harakatlar va yo'nalishlar. XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston hududi nafaqat siyosiy va ijtimoiy, balki madaniy-adabiy hayotda ham muhim o'zgarishlar yuz bergan maskanlardan biri bo'ldi. Bu davrda xalqning ruhiy uyg'onishi, milliy o'zligini anglash, zamonaviy ta'lim va madaniyatga intilish kabi omillar adabiyotda o'zining yorqin ifodasini topdi. Ayniqsa, uyg'ur va o'zbek xalqlari





o'rtasidagi tarixiy, madaniy va adabiy yaqinlik bu jarayonni yanada kuchaytirdi.

Milliy uyg'onish va adabiy tafakkur. Bu davrda yozilgan ko'plab asarlar xalqni uyg'otishga, unda milliy g'urur, erkinlikka intilish va o'zligini anglash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qildi. Adabiyot vositasida savodsizlikka qarshi kurashildi, ayollar ta'limi, diniy-ma'rifiy islohotlar, milliy qadriyatlarni tiklash kabi mavzular ilgari surildi. Asarlar orasida erkin fikr, ijtimoiy adolat, milliy birdamlik, ma'rifat va taraqqiyot g'oyalari asosiy o'rinni egalladi.

Jadidchilik va ma'rifatparvarlik ta'siri

Bu jarayonda o'zbek adabiyotidagi jadidchilik harakati muhim rol o'ynadi. Toshkent, Andijon va Farg'ona shaharlari uyg'ur ziyolilari uchun ilhom manbaiga, bilim va tajriba maktabiga aylandi. Ular bu shaharlarda yangi uslubdagi maktablarda tahsil olib, zamonaviy fikr va ma'rifat ruhida tarbiya topdilar. Keyinchalik o'z yurti — Sharqiy Turkistonga qaytgan ziyolilar adabiy va ijtimoiy hayotga faol aralasha boshladilar. Yangi darsliklar, uyg'ur tilidagi kitoblar, gazeta va jurnallar nashr etildi. Bu vositalar orqali ilm, ma'rifat, erkin fikr, ayollar ta'limi, ijtimoiy tenglik kabi g'oyalar targ'ib qilindi.

Uyg'ur va o'zbek xalqlari o'rtasidagi adabiy aloqalar chuqur ildizlarga ega. Ularning tili, dini, madaniyati va urf-odatlarini ko'p jihatdan o'xshash bo'lib, bu yaqinlik XX asr boshlarida ayniqsa kuchaydi. Uyg'ur yozuvchilari o'z asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishdi yoki bevosita o'zbek matbuotida chop etdirdilar. Shu bilan birga, o'zbek yozuvchilari ham uyg'ur adabiyoti bilan yaqindan tanishib, umumturkiy birlik g'oyalarni ilgari surishdi. Adabiy kechalar, madaniy anjumanlar, yozuvchilar qurultoylarida ikki xalq adiblari bir sahnada ishtirok etib, mushtarak dardlar va orzularni ifodaladilar. Ular mustamlakachilikka qarshi kurash, ma'rifat, xalqparvarlik kabi umumiy mavzular atrofida fikr almashdilar.





Bu adabiy muloqot ikki xalq adabiyotining o'zaro boyishiga xizmat qildi.

Bu davrda Qashqar, Urumchi, Yarkand kabi shaharlarda uyg'ur tilidagi gazetalar va jurnallar faoliyat ko'rsata boshladi. Ular orqali siyosiy, diniy, ijtimoiy va madaniy masalalar yoritilib, keng qatlamlarni fikrlashga chorlovchi maqolalar chop etildi. Ijtimoiy muammolarni ochib beruvchi qisqa hikoyalar, tanqidiy maqolalar, maqola va nasriy asarlar matbuot orqali keng ommaga tarqatildi. Ayniqsa, ayollar mavzusi – ularning savodxonligi, jamiyatdagi o'rnini, ta'limga bo'lgan huquqi — adabiy jarayonda alohida o'rin egalladi.

Bu davr uyg'ur adabiyotida milliy ongning yangi bosqichda shakllanishiga sabab bo'ldi. Ilg'or ziyolilar asarlari orqali xalqni uyg'otishga, ijtimoiy hayotni tahlil qilishga, jaholat va zulmga qarshi kurashishga intildilar. Badiiy asarlar real hayotni aks ettirishga, xalq og'zaki ijodi bilan zamonaviy adabiyotni uyg'unlashtirishga harakat qildi. Shuningdek, bu jarayon uyg'ur adabiy tilining rivojlanishiga, Chig'atoy tilidan yangi, jonli tilga yaqin adabiy tilga o'tishga turtki berdi.

Sharqiy Turkistonda yuzaga kelgan adabiy harakatlar nafaqat uyg'ur adabiyotining taraqqiy etishiga, balki umumturkiy madaniy uyg'onish harakatining tarkibiy qismiga aylandi. O'zbek va uyg'ur yozuvchilari o'rtasidagi ijodiy hamkorlik bu jarayonning asosi bo'lib xizmat qildi. Ularning asarlarida ifodalangan g'oyalar – milliy birlik, adolat, ma'rifat, taraqqiyot – bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bu tarixiy davr adabiyot orqali milliy o'zlikni anglash, ruhiy uyg'onish va xalq tafakkurining yuksalishini ta'minlagan bosqich bo'lib, zamonaviy uyg'ur va o'zbek adabiyotining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Uyg'ur hozirgi zamon adabiyoti va adabiy tilining shakllanishida yanggi ma'rifatchilik oqimining turtkisi bilan milodiy XX asrning 10-yillaridan boshlab vujudga kelgan uyg'ur





matbaa nashriyotchilik ishlarining roli katta bo'ldi. Uyg'ur nashriyotchilik tarixida eng dastlab maydongga kelgan gazetalar Iliida Abdulqayyum afandi tarafidan chiqarilgan "Ili viloyat gazetasi" (1910-yil), " Yanggi Ili gazetasi" 1911-yil, Husaynbek Fozil Yunus tarafidan chiqarilgan "Hur so'z " gazetasi (1917-yil), Qashqar shaharda Qutlug' Hoji Shavqiy tarafidan chiqarilgan "Ong gazetasi" (1968-yil), Cho'chak sahrida Niyoz Ishoqiy tomonidan chiqarilgan "Bizning tovush" gazetasi (1928-yil) bo'lib mazkur gazetalar o'z sahifalarida adabiy asarlarga munosib o'rin berib turgan. Jumladan, bu gazeta matbaalari va mas'ul shaxslar Qurg'on boshqa matbaa o'rinlarida bir qism adabiy asarlar, ayrim birlashma to'plam qilib nashr qilinadi.

Bu kitobcha va to'plamlardan milodiy 1921-yil G'uljadagi Husayn Yunus matbaasida ayrim kitobcha qilib bosilgan Nazarxo'ja Abdusamadovning "Uloq bilan Umroq" hikoyasini milodiy 1923-1924- yillar Qashqarda nashr qilingan "Uyg'on va inqilob ash'orlari", " Asorat va zalolatga o't yoq" kabi she'r to'plamlarini tilga olish mumkin. "Uyg'on va inqilob ash'orlari" nomli to'plamga Navro'z Yusupovning 7, Muso Xo'tanning 5, Qutlug' Shavqiyning 5 va boshqalarning jami 23 she'ri, "Asorat va zalolatga o't yoq" nomli to'plamga Niso xo'taniy, Qutlug' Shavqiy, Mulla Nozim mulla Niyoziy, Navro'z Yusufiy, Izzat el Qashqariy kabi shoirlarning 27 she'ri kirgizilgan⁴.

Bu yerda shuni alohida aytib o'tish joizki, milodiy XIX- asrning oxiri XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan oraliqda uyg'ur jamiyatida vujudga kelgan yanggi ma'rifatchilik oqimi foidal mustabidlik, zo'ravonlik, cheklash siyosati, johil mutaasib kuchlar, jaholat homiylarining bosimi ostida ommaviy xarakterlik hosil qilmagan klassik adabiyot an'anasi hali bir qism adiblarning ijodida yana ham asosiy salmoqli o'rinni egalladi. Shunday bo'lsa ham bu

⁴ Bu ikki she'rlar to'plami haqidagi ma'lumot marhum professor Abdushukur Muhammadamin Shinjon oz sonli millatlar adabiyoti lug'ati uchun yozib bergan materiallardan olindi.





xususiyat Uyg'ur hozirgi zamon adabiyotining bir mayoq sifatida davrning o'ziga qo'ygan talablarini aks ettirib adabiyotning o'ziga xos taraqqiyot yo'li bo'yicha olg'a ilgarilayotgan adabiyot edi. Bir qism adiblar ijodida mumtoz adabiyotlar an'anasi mazkur bosqichdagi adabiyotning mavzu, shakl, uslub va til jihatidan ko'p xil rangdorligini ko'rsatadi.

Bu davr adabiyotiga keyingi davr adabiyoti uchun yorqin yo'l bo'lib milodiy 1910-20- yillarda Nazarxo'ja Abdusamadov, Abduqodir domla, Qutlug' Hoji Shavqiy, Abduxoliq Uyg'ur, Nosuxo Aminga o'xshash yo'l boshlovchilar asos solgan ma'rifatchilik adabiyoti edi.

XX asrning boshlaridan 30-yillarning yarmigacha bo'lgan tarixiy vaqtni o'z ichiga olgan uyg'ur hozirgi zamon adabiyotining shakllanish bosqichida yuqoridagi ismi tilga olingan peshqadam vakillardan tashqari Mulla Nozim Mulla Niyoziy, Navro'z Yusufiy, Izzat el-Qashqariy, Abdulla domla Naimiy, Turoxun To'xtiy, Sobit Hoji, Yusuf G'aribiy, Abdurasul Abduqayyumiy, Amin mirzo ibni Muhammad To'xtiy, To'xtiy Oxun, Mulla Ro'zmat, Hofizhoji Ismoil Hoji, Oruf Qosimiy, Hamro Borot, Qul A'lam (Muhammad Al'an Muhammad Amin o'g'li), Qori Boiz Turdi, Donish Xanifa, Mulla Dovud, Abdulla Sodiq, Abdurahim hoji, Solix domla hoji, Qodirxon xo'ja va Ahmadga o'xshash bir turkum adiblar maydongga chiqib o'zlarining turli xil mavzu uslub va janrlarida ijodiy asarlari bilan Uyg'ur hozirgi zamon adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida munosib hissa qo'shdilar. Uyg'ur xalqi yanggi bir asrga qadam qo'yganda insoniyat tarixida ajoyib bir o'zgarish, yangilik va taraqqiyot asrini ochgan milodiy XX asrda o'z adabiyotini davr qadami bilan mos holda uyg'ur hozirgi zamon adabiyotidan iborat yanggi tarixiy davrga olib kirish yo'lida o'chmas xizmat ko'rsatgan yo'l boshchi ma'rifatparvar o'zanining yanggi davr adabiyoti osmonida dastlabki yorqin yulduzlari bilan mangu faxrlanadi.

Siyosiy-iqtisodiy aloqalardan tashqari ijtimoiy, madaniy, ilmiy, adabiy sohalarda ham mustahkam rishtalarda, ayniqsa,





Shinjongning asosiy qismini tashkil etgan uyg'urlar O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shib kelganlar. Bu aloqalar XIX asr oxiri XX asr boshlari – Qo'qon xonligi davrida yuqori cho'qqisiga yetgan. Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston xalqlari o'rtasida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlar, etnodemografik jarayonlar ikki o'lkada yashovchi aholining ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotiga, ilmiy va adabiy jarayondagi rivojlanishlarda ham o'z ta'sirini qoldirgan. Turmush tarsi, tafakkuri, dunyoqarashi, madaniy hayoti mushtarak bo'lgan bu ikki xalq o'rtasidagi madaniy munosabatlar tilning yaqinligi va dinning birligi jihatidan ham mustahkam bo'lgan.⁵

XIX asr oxiri XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan va uning hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat bo'lgan jadidchilar tom ma'noda yurt taraqqiysi, og'riqli dardida yongan vatanparvar, ma'rifatparvar shaxslarni tarix sahnasida bir maqsad yo'lida kengashga chorladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy Ashurali Zohiriy, Obidjon Mahmudov⁶ kabi keng bilimlar egasi va bu bilimlarini vatan rivoji yo'lida sarflashga intilgan, o'rni kelsa ushbu jarayonlarni moddiy jihatdan qo'llab quvvatlashda o'z hissasini mablag'ini ayamagan siymolar jadidchilik harakatining yorqin namoyandalari bo'ldilar.⁷ Jadidchilik "Millat va Vatan ning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo'yilgani haqida bong urdi...ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi."Albatta, bu g'oyalarning asosida milliy uyg'onish, o'zlikni ahnglash, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Xalq

⁵ Хурматжон Фикрат, Қодир Акбар. Ўзбек адабиёти тарихи. Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти, 2005. (уйғур тилида) (Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar. History of Uzbek literature. Urumchi: Xinjiang People's Publishing House, 2005. (in Uyghur).

⁶ Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari. Toshkent: Akademiya, 1999. 23-bet.

⁷ Qosimov B va mual.jamoasi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "O'zbekiston", 23-bet.





erki va ozodligi yo'lida jon berish evaziga bo'lsa-da erishishga qattiq bel bog'ladilar, elni ortlaridan ergashtirishga urindilar.

Abduqodir domlanning "Aqoydul zaruriya" nomli asarida shunday o'rin uchraydi: Insonning xor va zabun bo'lmog'iga bois nimadir, ikki narsadir: biri jaholat va nodonlik, ikkinchisi tafriqa va ixtilofdir. Izzat obro' va quvvat nima bilan bo'latur, ilm ma'rifat va ittifoqlik bilan bo'latur". Abduqodir domla yana o'z davrining tanilgan shoiri bo'lib, u Uyg'ur klassik she'riyati an'alariga ijodiy vorislik qilib hamda uni yangi davr ruhi bilan birlashtirib yozgan ko'plab fasohatlik she'rlari orqali Uyg'ur she'riyatining 1910-20- yillardagi yuqori pallasini namoyon qilgan. Shoirning "Javohir-ul fiqon" (E'tiqod javohirlari nomli she'riy asari hozir Shinjon universiteti kutubxonasi bilan Misrdagi Asxar universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Yaqinda yana uning "Kulliyoti muxammas" asari topildi va bu kulliyotdagi muxammaslardan bir qismi 120 bandi va masnaviy shaklida yozilgan "Mevalar munozarasi" nomli asari Rajab Yusufning nashrga tayyorlashi bilan Buloq jurnalining 1989-yilda e'lon qilindi. Shoir bu muxammaslarida o'z zamonasidagi har qaysi soha hunar kasblar ustida to'xtalib, yaxshilik va yomonliklarni solishtirib o'tadi, zamonasidagi buzilishlar va yomonliklarni qattiq tanqid va hajv qiladi, kishilarni nafsning ko'yiga kirmasdan aql bilan ish qilishga undaydi.

XX asr boshlarida Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi iste'dodli shoirlar ma'rifatchilik davri adabiyotining eng qizg'in va eng suronli davrida barakali qalam tebratgan ijodkorlardir. Bu shoirlar peshqadam vakillari sirasida Sharqiy Turkistonda yashab faoliyat ko'rsatgan bir qator o'zbek ijodkorlari ham bor. Ularning ko'pchiligi ham ijodda, ham ijtimoiy hayotda faol bo'lganlar, o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining Sharqiy Turkistondagi rivojlanishiga muhim hissa qo'shganlar. Bu shoirlar an'anaviy janrlarda g'azal va sayohatnoma, maktub janrlarida ham o'z





mahoratlarini sinab bir qator asarlar yozgan. Ularda xalq hayotini tasvirlashga urinishlar: ijtimoiy hayot, insoniy sevgi-muhabbat, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, insonparvarlik g'oyalarini ifodalaganlar va turmush tartibotiga kirib kelayotgan yangiliklarni adabiyotga badiiy so'z vositasida olib kirganlar. Ayni davrda xo'jalik va madaniy hayotning yuksalishi va taraqqiyoti yangi-yangi tushunchalarning til qatlamiga kirib kelishiga sababchi bo'lganlar.

Biz ushbu monografiya nashriga qadar to'plagan manbalarimiz va aniqlagan shoirlarimiz ijodiy faoliyati va adabiy merosi bo'yicha ma'lumotlarni to'ldirish va kelgusida yangi manbalar asosida davom ettirish istagidamiz.





DILAFKOR⁸

XIX asrda yashab adabiy ijodiyot bilan shug'ullangan o'zbek shoirlaridan biri. Mansur Sa'dullo o'g'li bo'lib, u taxminan 1844-45-yillari O'zbekistonning Kattaqo'rg'on atrofidagi Qo'njinay qishlog'ida tug'ilgan. 1898-1900-yillar oralig'ida Shinjongga kelib, Qog'aliqda yashagn. Shoirning "Ra'no va Suxangul" dostoni va ba'zi she'rlari bizgacha yetib kelgan. Keyingi vaqtlarda bu shoirning qo'lyozma daftari Yakandan topilgan. Qo'lyozmani saqlagan peshqadam kishilarning bergan ma'lumotlariga asoslanganda shoir Mansur qori nomi bilan Yorkentdda tijorat qilib shu yerda vafot qilgani aytiladi. Shoir "Ra'no va Suxangul"⁹ dostonida oz

⁸ O'zbek adabiyotida Dilafkor taxallusli ikki shoir o'tgan. Bu to'plamga kiritilgan Dilafkor – Mansur Sa'dullo o'g'li bo'lib, ikkinchisi esa Mulla Abdulboriy ibni Sher Muhammad hoji bo'lib, u Piskandiy va Dilafkor taxalluslarini bi qo'llagan ijodkor hisoblanadi. 1882-yili Toshkentda tug'ilgan, 1952-yili Piskentda vafot topgan. Po'lotjon domulla Qayyumiyning "Tazkirayi Qayyumiy" kitobining 2-daftarida ushu shoir nomi uchraydi: "Bu kishi Toshkanf atrof shoirlaridan bo'lib Piskand qasabasidandur Nomi Mulla Abdul Boriy bo'lub, nima kasbda ekani bilinmadi Andijon shaharidan turib vataniga xat yozganidan Farg'ona vodiysiga kelib yurgani, savdogar bo'lgani ehtimol tutiladi." Tazkiranavis bu ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda kichik devonini 1914-yili Toshkentda toshbosmadan chiqargani haqidagi ma'lumotlarni ham keltirib, "Salomnoma" sidan parcha keltiradi. Kitobxonlarning bu ikkisining o'rtasida hududiy va ijodiy tafovutlar borligini tavsiya qilib qolamiz (SH.K.)

⁹ Mazkur nomda xalq og'zaki ijodining yirik dostoni mavjud bo'lib, mashhur baxshilardan Fo'zil Yo'ldosh o'g'li repertuaridan ham joy olganligi bu dostonning xalq orasida ham sevimli va uzoq o'tmishga borib taqalishi haqida adabiyot darsliklarida ma'lumot uchraydi: Bulung'ur dostonchilik maktabi qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo'lgan. Sodda, yuksak, o'ta an'anaviy, nisbatan arxaik bo'lgan qahramonlik eposi uslubi bu dostonchilarning poetik yo'li hisoblangan. Bulung'ur dostonchilik maktabining so'nggi talantli vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) hisoblanadiki, undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malikai ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Murodxon»,





bo'lsa ham o'z hayoti haqida to'xtalgan. Uning aytishiga qaraganda, yoshligidan ota-onadan yetim qolgan bo'lib, ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan ekan. Ko'p qishloqlarda musofir bo'lib yashagan. Unung hayotiy sarguzashtlari umrining keying qismini Shinjongda-Yakanda o'tkazganligi haqidagi ma'lumotlar va uni yaqindan taniganlar, uning avlodlaridan olingan ma'lumotlar uuning to'g'riligini ko'rsatadi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Yakanda ko'plab o'zbek ziyolilari va adiblarining makoni bo'lgan edi.

Dilafkor o'zining "Ra'no va Suxangul" dostoni orqali insoniy sevgi, hasrat va adolat, sadoqat, mardlik, axloqiy-ijtimoiy jihatdan daxldor bo'lgan mavzularda fikr yuritadi. Doston masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, 2200 misraga yaqin. Bundan tashqari 21 g'azal, muxammas, 87 ta to'rtlik bor. "Shinjong o'zbek adiblari" to'plamiga shoirning Yorkentdan topilgan qo'lyozma daftariga kiritilgan ayrim she'rlari (g'azal va muxammaslari, to'rtliklari, taxmislari) kiritilgan.

Dilafkor ijodi — xalq ruhiyatining badiiy ifodasi

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillari an'alarini davom ettirgan va keyingi avlod ijodkorlariga ibrat bo'lgan shoirlardan biri — **Dilafkor** hisoblanadi. Uning lirikasida o'zbek va uyg'ur xalqining og'ir tarixiy kechinmalari, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, dardu hasrati, orzu-umid va kurash ruhi o'z ifodasini

«Rustam», «Shirin bilan Shakar», «Ra'no bilan Suxangul», «Zevarxon» kabi ajoyib dostonlar yozib olingan. (V.Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi.2-kitob, 1967. 125-bet). Dilafkorning "Shahzoda Ra'no va Suxangul" dostoni "xalq romani" Ddan ta'sirlanish ma'nosida yaratilgan bo'lib, boshdan oyoq she'riy usulda - masnaviy shaklda yozilgan. Dostonda xalq o'zaki ijodidan samarali foydalanilgan bo'lib, dunyoviy ruhdagi kitob bunyod etilgan. Kitobdagi qahramonlarning ayrimlari dev va parilar timsolida berilsa ham , ko'p hollarda ular dunyo kishilari singari harakat qiladilar , qiyinchiliklarni yengishda , mardlik ko'rsatishda, sevgi va vafodorlikda insonlarga xos eng yaxshi fazilatlarni namoyish etadilar.





topgan. Shoirning asarlari XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda hukm surgan siyosiy beqarorlik, ijtimoiy tengsizlik, jaholat va zulmga qarshi kurash ruhida yozilgan bo'lib, u xalqning ichki dunyosi, uning ruhiy holati va orzu-intilishlarini teran badiiylik bilan tasvirlagan.

Dilafkor o'z asarlarida xalq dardini yurakdan his qilgan, uni poetik obrazlar orqali badiiy timsollarga aylantirgan. Uning lirikasida xalqparvarlik, milliylik, samimiyluk va realizm asosiy g'oya va uslubiy mezon sifatida ko'zga tashlanadi. Shoir jamiyatdagi muhim muammolarga befarq bo'lmagan holda, o'z she'riyatida xalq bilan birga yashaydi, birga qayg'uradi, birga umid qiladi.

Dilafkor obrazlar orqali xalq ruhiyatini yuksak badiiy darajada ifodalaydi. Uning poetik tafakkuri xalq og'zaki ijodi, xalqona timsollar va real hayotiy manzaralar bilan uyg'unlashgan. Shoir nafaqat obrazlar yaratish, balki ularni hayotiy va estetik jihatdan yuksak darajada tasvirlash borasida ham o'z maktabini yaratgan ijodkordir. U tomonidan yaratilgan obrazlar xalq ruhining ko'zgusi, milliy ong va tarixiy xotiraning badiiy shakldagi ifodasidir. Shoir lirikasi, ayniqsa, tanqidiy ruh bilan yo'g'rilgan she'rlari orqali o'z zamonasidagi nodonlik, adolatsizlik, beparvolik va johillikni fosh etadi. Shu bilan birga, u kelajakka bo'lgan umid, xalq kuchiga ishonch, adolatli jamiyatga intilish g'oyalarini ilgari suradi. Bu jihatlar uning she'riyatini chuqur hayotiy, xalqona va samimiy ruhda shakllantiradi.

Dilafkor badiiy merosini o'rganish uning she'rlaridagi mavzu va obraz, badiiy san'atlarni kuzatish uning Ubaydullo usta Solih o'g'li Zavqiy dan katta ma'naviy oziq olganligi, ba'zan unga ergashganligini ko'rsatadi. Zavqiyga zamondosh Sharqiy Turkistonda yashab ijod etgan Dilafkor she'riyati ham mumtoz adabiyot an'alarini munosib davom ettirgan ijodkorlardan.

Shoir o'z g'azal va muxammaslarida dunyoning adolatsiz qurilganligi, yaxshilarning xor-zorlikda, muhtojlikda, tekinxo'r va nodon kishilarning esa, aksincha, rohat va farog'atda





yashayotganligini g'oyat kuyunchaklik bilan tasvirlaydi. Shuningdek, shoir g'azallarida Zavqiy she'riyatida uchraydigan tashbehnlarning ko'pchiligiga takror-takror duch kelish mumkin. Dilafkorda ham yor ko'zlari nargisga, nafasini Iso bo'yiga, labini durga, oshiq dilini lola bag'riga, may to'ldirilgan sog'arga, ma'shuqani Layli, Shiringa, oshiqni Farhod, Majnunga o'xshatish ko'p uchraydi. Shoir sodda va ravon g'azallar yaratishda, badiiy mahoratda, qofiya va radiflar tanlay bilishda, xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanish va boshqalarda benazir ustozidan izidan bordi.

Bu esa Zavqiy bilan maslakdoshlik, fikrdosh bo'lishlikdan shahodatdir. Fuzuliy asarlaridagi sodda uslub, ta'sirchanlik, jozibadorlik shoir e'tiborini tortgan. Dilafkor ijodiga Zavqiy she'riyatining ta'sirini she'riy shakllardan, ayniqsa, muxammasda kuzatish mumkin. Dilafkor badiiy so'zga munosabatda yuksak e'tiborli, ziyrak ijodkorlardan bo'lgani uchun ham uning ijodidan ta'sirlanish ham o'ta kuchli. Uning g'azallaridagi so'z, ohang va ma'no o'ziga xos joziba kasb etadi. Obrazlar olami esa turfa. Shoir qo'llagan vaznlari yengil, o'ynoqi. U tasvir usullari, badiiy vositalardan foydalanishda ham juda mohir.

Zavqiyning oshiqona g'azallaridan ilhomlanib, ularning g'oyaviy motivlari va ifoda usullari ta'sirida yaratilgan she'rlar shoir ijodida ham uchraydi. E'tiborga molik jihati shundaki, shoir ularda iloji boricha an'anaga o'zining ijodiy munosabatini tiklagan holda qalam yuritadi. Dilafkor o'z she'rlariga reallik berishga intiladi, real turmushda bor hodisalar va tushunchalarga ko'proq diqqat qaratadi, ya'ni fikrni real turmush bilan bog'lash uchun urinadi, o'xshatishlar, mubolag'alar va obrazlarni shu turmushdan yoki xalq o'rtasida singib qolgan tushunchalardan oladi. Lirik ifodani jo'n, sodda lekin jozibali ravishda bayon etadi. Bu ham bo'lsa Dilafkorning Zavqiy ijodiga yondashuvining xarakterli xususiyatlaridandir.

Fikrlarimiz isbotini Zavqiy g'azaliga taxmis bo'lgan Dilafkorning ishqiy lirikasida salmoqli o'rin tutgan "Arzirmu?"





radifli g'azaliga muxammasining tahlilida ko'rib chiqaylik. Unda shoirning oshif ruhiyatidagi nozik va murakkab holatlarni mahorat bilan tasvirlash salohiyati namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi misralar badiiy so'zga zavqiyona yo'sinda yondashish samarasi o'laroq yuzaga kelganligining guvohi bo'ldik. Uning falsafiy dunyoqarashi, badiiy uslub tamoyillarida bu ulug'san'atkor g'azallaridagi huzurbaxsh va dardkash navolar ta'sirini sezish qiyin emas. Mumtoz shoirlar qatori Zavqiy ijodiga ham murojaat qilgan, Badiiy so'zga munosabatni aynan shu shoirdan o'rgangan.

*Aylag'il tiriklik ayshi surgoningga arzirmu?
Niholi umri bog'ing kesilgoningga arzirmu?
Nishot zandalik oxir yiqilgoningga arzirmu?
Gina qilmoqda, ey tan, o'yla kuygoningga arzirmu?
Bu yanglig' ming yil umring bir kun o'lgoningga arzirmu?*

Shoir bu yerda inson hayotining o'tkinchi ekanligini eslatadi. Tiriklikning shirinligi, aysh-u ishrati oxir-oqibatda o'lim bilan tugaydi. Inson bir umr yashasa ham, bir kunlik o'lim uni barchasidan mahrum qiladi. Tiriklikdan lazzat olish — oxirgi yiqilishga (ya'ni o'limga) arzimaydimi, deb so'raydi. Bu bandeda zohidlik, fano, va tavakkul g'oyalari ko'zga tashlanadi.

Keyingi bandeda inson nafsining girdobida yurishi tanqid qilinadi. Inson ilohiy suhbatu haqiqatdan uzoqlashib, dunyo lazzatlariga mahliyo bo'ladi, shaytoniy yo'llarni tanlaydi. Shoir so'raydi: bu dunyo lazzati — jon berish vaqtidagi og'riq va qo'rquvga arzimaydimi? Bandeda tasavvufiy ohang va shar'iy nasihat mavjud.

Muxammasning keying bandeda dunyoda g'aflat bilan yashagan, kayf-uu safoda umr o'tkazgan insonning oxir-oqibat parishon holga tushishi ifoda etiladi. Shoir "ayvoning jannati" (ya'ni dunyodagi farovon uying)dan ko'chib, xoru zor holatda





qolishing — bunga arzirmi, deb so'raydi. Bu band tanbeh, ibrat ruhi bilan yozilgan.

*Agar oqil erursan, berma ko'ngul makr nozig'a
Roboti ko'hnani aylamag'il yuzing bozig'a
Ochib diydangni boqqin bu jahonning qish va yozig'a
Yonar bo'lsang sihatlikda agarchi asb tozig'a
Yog'och ot fikrini qilg'il ki javloningg'a arzirmu?*

Shoir oqil kishiga murojaat qiladi: agar aqling bo'lsa, dunyo go'zalligiga, yolg'on zavqlarga berilma. Hayot fasllari – qish va yoz misolida o'tkinchiligini angla. “Yog'och ot” — bu tobut ramzidir. Shoir: bunday “yo'l”ga javlon urish (tez yurish) arzimaydimi, deb o'ylashga undaydi.

Shoir inson qariyb qabrga yaqinlashganini eslatadi — soch oqarib, bel bukilgan, ammo u baribir tavba qilmaydi. U hayot xurshidi sharqdan chiqayotgan (umr boshlanishida) holatni unutib, oxiratda (mag'ribda) pushaymon bo'ladi. Ya'ni, o'limdan keyingi afsusga arzimaydimi? Bu band ogohlantirish, tavbaga chaqiriqdir.

*Kishiga sut qilmas bu jahonni ayshi ila zavqi
Chiqorg'oy balki, yo'ldin imakr ila nayrang ila shavqi
Dilafkor, tavba qil tushmayin bo'ynigg'a la'in tavqi
Tiriklik borida izla haqiqat yorin, ey Zavqiy
Mijozlarni vasli so'zi hijroningg'a arzirmu?*

Dunyo lazzatlari insonni aldaydi; zavq, shavq ortida nayrang, makr, yo'ldan ozdirish turadi. Shoir insonni haqiqiy haqiqatni izlashga, tavbaga chaqiradi. “La'in tavqi” — la'natlangan kishilarga taqiladigan zanjir bo'lib, shoir bundan saqlanishni maslahat beradi. Oxirida, “vasl so'zi” (yaqinlik, muhabbat) hijron (ajralish) bilan almashishga arzimaydimi, deb yakunlaydi.





Vazn va she'r ifodasi Zavqiy boshlab bergan uslubda bo'lsa-da hayot haqiqatlari va ijtimoiy fikr ifodasi, tuyg'ular rivojida shoirning "men"ida o'ziga xosliklar seziladi.

Zavqiyning oshiqona g'azallaridan ilhomlanib, ularning g'oyaviy motivlari va ifoda usullari ta'sirida yaratilgan she'rlar shoir ijodida ham uchraydi. E'tiborga molik jihati shundaki, shoir ularda iloji boricha an'anaga o'zining ijodiy munosabatini tiklagan holda qalam yuritadi. Dilafkor o'z she'rlariga reallik berishga intiladi, real turmushda bor hodisalar va tushunchalarga ko'proq diqqat qaratadi, ya'ni fikrni real turmush bilan bog'lash uchun urinadi, o'xshatishlar, mubolag'alar va obrazlarni shu turmushdan yoki xalq o'rtasida singib qolgan tushunchalardan oladi. Lirik ifodani jo'n, sodda lekin jozibali ravishda bayon etadi. Bu ham bo'lsa Dilafkorning Zavqiy ijodiga yondashuvining xarakterli xususiyatlaridandir.

Dilafkor she'rlarida ishlatilgan badiiy vositalar, timsollar, ramziy ifodalar xalq tafakkuridagi tushunchalarga asoslanadi. Shoir xalq tushunchalarini obrazli tilda qayta talqin qilib, ularga yangi badiiy nafas bag'ishlaydi. Uning poetik merosi o'zbek va uyg'ur adabiyoti rivojida o'ziga xos bosqichni tashkil etib, bugungi adabiyotshunoslik uchun muhim tahliliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan qaraganda, Dilafkor ijodi nafaqat adabiy, balki tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ham egadir. Uning obrazlari orqali biz nafaqat o'tmishdagi xalq turmush tarzini, balki ularning ichki kechinmalarini, orzu-umidlarini, dard va quvonchlarini, kurash va g'alabalarni ham his qilamiz. Shoirning poetik tafakkuri va obraz yaratish san'ati zamonaviy ijodkorlar uchun ham ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Dilafkor lirikasi — bu xalq ruhiyatining badiiy ifodasi, xalq hayotining she'riy aksidir. Shoirning boy va sermazmun ijodi, uning poetik merosi o'zbek-uyg'ur adabiy





aloqalarini chuqurlashtirishda, xalqning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning obrazlari asrlar osha xalq qalbida yashab, bugungi kun adabiyotshunosligi va madaniyatshunosligi uchun chuqur ilmiy-tahliliy manba sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

DILAFKOR MEROSI

Zavqiy g'azaliga muxammas

Aylag'il tiriklik ayshi surgoningg'a arzirmu?
Niholi umri bog'ing kesilgoningg'a arzirmu?
Nishot zandalik oxir yiqilgoningg'a arzirmu?
Gina qilmoqda, ey tan, o'yla kuygoningg'a arzirmu?
Bu yanglig' ming yil umring bir kun o'lgoningg'a arzirmu?

O'tar umring jahonda doimo nash'u namo istab,
Minbasan¹⁰ markab¹¹i shayton uza mas'h yo istab,
Qochib arzi xudodin suhbat qilib fano istab,
Yurursan aysh birla lazzati nafsi havo istab,
Jahon shirinligi to tal'ati joningg'a arzirmu?

Muyassar bo'lsa sanga, ey dil, xohliq tafti,
Sulaymon, Masihi insu jins ogohliq tafti,
Iskandar birla Doro ila johliq tafti,
Jahonni kardori saltanatta shohlig' tafti,
Qaro yer ostida bir kecha yotqoningg'a arzirmu?

Fano mulkida ey g'ofil tamoman bog'i bo'stoning
Maishatda kechurgan kecha kunduz ayshi xandoning
O'tub g'aflatda umring bo'yla etgan fe'l-atvoring

¹⁰ Qayta-qayta

¹¹ Ot, ulov





To addi zulm ila bu jannati qilg'on mulki ayvoning
Ketar fursatdagi holi parishoningg'a arzirmu?

Agar oqil erursan, berma ko'ngul makr nozig'a
Roboti ko'hnani aylamag'il yuzing bozig'a
Ochib diydangni boqqin bu jahonning qish va yozig'a
Yonar bo'lsang sihatlikda agarchi asb tozig'a
Yog'och ot fikrini qilg'il ki javloningg'a arzirmu?

Qora yerda oqarmishkim soqoling tavba qilmasdin
Egilmish nav'i rost qaddi niholing tavba qilmasdin
Gina qilmoqda doim badfe'llik tavba qilmasdin
Erur mashriqda xurshid(i) hayoting tavba qilmasdin
Jigar bo'lg'anda mag'ribdin pushaymoningg'a arzirmu?

Kishiga sut qilmas bu jahonni ayshi ila zavqi
Chiqorg'oy balki, yo'ldin imakr ila nayrang ila shavqi
Dilafkor, tavba qil tushmayin bo'ynigg'a la'in tavqi
Tiriklik borida izla haqiqat yorin, ey Zavqiy
Mijozlarni vasli so'zi hijroningg'a arzirmu?

MUNOJOT

Beadad qilg'on gunohim barchasi senga ayon,
Hojat izhor etur bir-birin qilmoq bayon,
Fe'l-atvorimg'a loyiq jurum, isyonim giryon,
Iltijo qildim, bahaqqi, jumlayi payg'ambaron,
Aylasam rihlat bu olamdin yuborgil boimon.

Aylar pushti panohi Mustafoni hurmati,
Xokdin xalq aylagan Odam Atoni hurmati,
Jumla o'tgan anbiyoi avliyoni hurmati,





Matlubim shuldir: saning dargohinga yo musta'in¹²
Aylasam rihlat bu olamdin yuborgil boimon.

Umrim o'tdi tavba qilmay bu jahondin oy-u yil,
Rahmatingdin ko'p umidim ro'zi mahshar, yo Jalil,
Afv qil, isyonlarimni qilmag'il xoru zalil,
Chunki yo'q mendek tamoman ichra yomon,
Aylasam rihlat bu olamdan yuborgil boimon.

Bandalik lofini urdim qilmasam koni zarar,
Yo'q, vale sha'nimda hech toat-ibodatdin asar,
Nafsi shayton birla bo'ldim dilda yo'q xavf-u xatar,
Ey xudoyo, san erursan aslilarga¹³ mehribon
Aylasam rihlat bu olamdin yuborgil boimon.

Ey karamlik podishohim, san manga pushti panoh
Sandin o'zga takyagohim yo'q mening, hamdu sano
Sanda ko'p avf-u fazilat manda ko'p jurm¹⁴ xato
Iltijo qildim bahaqqi hazrati Odam Ato
Qilmag'il, yo Rab, meni sharmandayi ro'zi jazo.

Ikki kunlik umr uchun izlab hamohi¹⁵ hoyi havas
Qilmadim dargohi toat ibodat bir nafas
Tavba qildim kech gunohim, san o'zing avf ayla, bas
Iltijo qildim, bahaqqi poki nur Mustafo qilmag'il
Qilmag'il, yo rab, meni sharmanda yi ro'zi jazo.

Umrim oxir bo'lsa bir kun nogahon yetsa ajal
Qasdi iymonim yetib shayton agar bersa halal

¹² Yordam so'rash, madad so'rash.

¹³ Alloh yo'lida sodiq bo'lganlar

¹⁴ Ayb, gunoh, mayda xatolar.

¹⁵ Hamroh, yo'ldosh, sherik





Na qilurman yoq meni sha'nimda bir yaxshi amal
Hurmati oyat Qur'onim, muazzam Robbim oqil
Qilmag'il, yo Rab, meni sharmandayi ro'zi jazo.

Bu jahon ichra meningdek yo'q ahvoli yomon
Shuurim shundin har zamon titrar zaminu osmon
Nasihat loyida qoldim jurm isyonim giryon
Hurmati jumla payg'ambar bolsa o'tgan avliyo
Qilmag'il, yo Rab, meni sharmandayi ro'zi jazo.

Rahm etib berg'il dilimg'a lutfingdin futuh
Mahsharo bandam degil man oshino ho-yu sabuh
Sodiq ila qildi Dilafkor misli ma'shuq
Iltijo qildim bahaqqi hazrati Odam Ato
Qilmag'il yo Rab meni sharmandayi ro'zi jazo.

* * *

Ey do'stlar, vahm bu kun qiyomat anglasanglar-chi,
Fujur fisqi isyonig'a nadomat aylasanglar-chi,
Yigitlik vaqtida haqqa ibodat aylasanglar-chi,
Tutub amri Xudoni emdi toat aylasanglar-chi,
Ayo ahboblar, istarki sharorat aylasanglar-chi.

Ibodatga yubordi bandasini Hazrati Rahmon
Qilinglar qonu jon birla hamisha toati subhon
Qadimdan dushman ul Odam o'g'lig'a palid shayton
Hazar aylang bu shayton sharridin to ketmasun iymon
O'qib shomu sahar Qur'on tilovat aylasanglar-chi

Xudo amri yetdi bizga "faskiru asno" deb
Nadomat birla yig'lang robbano zullamno deb
Hamisha dargohiga bosh urung qalbo sallamno deb





Gunohim benihoya, anta azimo deb
Kirib masjid ichiga istiqomat aylasanglar-chi

Tugandi endi dunyo, ey birodarlar, bo'ling ogoh
Kirib shayton so'zig'a haq yo'lidin bo'lmangiz gumroh
Gunohga tavbalar aylang yomong'a bo'lmangiz hamroh
Bu olam mojarosidin qochinglar suvi baytulloh
Rasulning ravzasin borib ziyorat aylasanglar-chi

Tiriklikda, birodar, yurma g'ofil tovba qilmasdan,
Yigitlikda ibodat qil qadding bukilmasdan,
Hayoting bil g'animat tangrig'a tavba qil o'lmasdan,
Nadomat qil, Dilafkoro, rishta umring kesilmasdin,
Ayo ahboblar, endi riyozat aylasanglar-chi.

Musaddas

Tariq yo'ldin ozg'urma, Xudoyo, ahli millatni
Ko'targil diydamidin zahmat-u xo'p g'aflatni
Ravo ko'rma musulmon ahlig'a, yo Rab shu kulfatni
Ato qil bandalarg'a mevayi sabr-u qanoatni
Bahaqqi, qudratingdin yog'durub boron¹⁶ rahmatni
Panohi ismatingda saqlag'il keshti ziroatni.

Necha yildur xaloyiq fitnaga zayn¹⁷ ziyod etdi
Hamma shohu gadolar fitnaga xo'p e'timod etdi
O'z -o'zidin ketdi mardum nashi deb e'tiqod etdi
Xususan ushbu yilda yil o'zini inqiyot etdi
Karam aylab yuborg'il boron rahmatni
Panohingda asrag'il balodin keshti ziroatni

¹⁶ Yomg'ir

¹⁷ Ko'p





Ajab hikmat qaranglar, bo'ldi elga ne balo voqe'
Qilibon nafsi g'olib o'g'zig'a dehqon bo'lmadi qone'
Jaholat haddin oshdi elga hech kim bo'lmadi some'
Ramsa qilma¹⁸ yo rab bandalarni mehnatin zoye,
Bahaqqi, qudratingdin yog'durub boron rahmatni
Panohi ismatingda saqlag'il keshti ziroatni.

Muvashshah

Nedan navo chekarman hajringda yor sansiz,
Yil ichra behuda na devonavor sansiz,

Bo'ldi jahon ko'zimga tordek tiyra ey voh,
Bo'lmas kifoya xurshidi gul-u uzor sansiz,

Yuz g'amza birla kelsa qoshimg'a mahluqolar
Ermas pand manga chashmi xumor sansiz,

Jonimda yo'q halovat hardam fig'on chekarman
Yodingda kecha-kunduz majnun shior sansiz.

Ohu ko'zung xayoli shomi sabo dilimda
Hech manda yo'q, nigoro, asru qaror sansiz

Noz aylama nigorov taraqqiyot ayla
Ko'p mehnat-u alamlar chekdim nigor sansiz

Harm¹⁹ emas Dilafkor, harchand bazm ko'rsa
Ta'sir aylamaydur, ey dil, u zor sansiz

* * *

¹⁸ G'iybat qilmoq.

¹⁹ Ziyon, zarar.





Itob noz ila boqib meni ado qilasiz
Tarahhum aylamayin holimga jaf o qilasiz

Vujudim ichra solib o't qiyo boqib jona
Firoqi husningizdin qaddim duto qilasiz

Xayoli orzungizg'a tasadduq o'lsun jon
Ko'ngul uyini qachon lutfu ila ziyo qilasiz

Xaloyiq ichra meni xastaga nazar solmay
Raqibim suhbatida kayfingiz safo qilasiz

Ezildi bag'rim, yuragim debon siza yig'lab
"Iloho, mundin battar bo'l" debon duo qilasiz

Ne jurm o'tdiki, mandan siz shahanshohqa
Chekib qobog'ingizni doimo jaf o qilasiz,

Visolingiz talab aylab borg'onda, Dilafkor
Urub, so'kub, "nari ket" debon jaf o qilasiz

* * *

Go'zal mahvashlar ichra san kabi hurliqo bo'lmas
Qiyomingla nechun tashbiya qildim tubi raso bo'lmas

Rakobing bo'sa etmasmu ko'zida har nechuk odam
Ayo ey ofati davron, senga podshoh bo'lmas

Yurarda bo'yla raftoringga tovus o'lmaya tashbeh
Jamoling shu'la ravshan o'ldig'i hargiz fano bo'lmas

Malohat osmonida yorug' tashbehi emish oya
Xiromingla ko'zida qaysi jondur muhtalo bo'lmas.





Xaloyiq bir-birina so'zlar shu husnung ko'rgan hola
Duoga qo'l ochib bo'ylab jahonda dilrabo bo'lmas

Ikki ohu g'izoling ko'zlaring hijron chekanlardur
Go'zallar bo'lsalar ham, bo'ylakim chashmayi siyoh bo'lmas

Nigoro, la'li nobingdur manga malham hayvona
Hayotim ketdukinda g'ayr la'li hech davo bo'lmas

Domi nozu g'ofil qildig'ungda man Dilafkora
Na deb hijroningga bul xasta ko'ngul oshno bo'lmas

* * *

Qildingiz Farg'onadan azmi sayohat, Qorijon
Marhabo xush keldingiz, ey sarvqomat, Qorijon,

Olmasin oynayi husnung malohat gardini
To bo'lub doim qarorgohing farog'at, Qorijon,

Ramz alfozing fasohatda masihoyi zamon
Ruhparvarla lablaring bog'i nazokat, Qorijon

Yuzlaringni sha'niga parvona bo'lsam tong emas
Bu erurkim, shevayi ahli muhabbat, Qorijon

Xo'bro'lar ichra yo'qdur siz kabi oliygohi
Suhbatingdin jon topar orom – rohat, Qorijon.

Oftob orazingdan ko'k uza shamsi-qamar
Rashk o'tig'a o'rtanib chekkay hijolat, Qorijon





Nom xubingni Dilafkori nazmig'a qildi nihon
Nukdadonlarg'a arzidur bu ishorat, Qorijon

* * *

Nozanin nozparvar chiqdi bir gulxoridin
Husnini aylar tomosha shohu jannatdoridin

Zabdayi ahli sumanbar xulqi xush, odoblig'
Dilbari shirin shakar lazzat erur guftoridin

Yuz qizortib bodadin qilsa to'lui ul mahluqo
Saf'ayi ro'yi zamin ziynat-la nur gulnорidin

Rashk etib bo'lg'oy nihon kavokib aro shamsu qamar
Osmon uzra qamar tal'at guli ruxsoridan

Jon topar rohat muyassar bo'lsa kim goh suhbat
Bo'lg'usi oshufta ko'ngul husnini anvoridin

Ikki jodu ko'zlaridan ohular beshak xijil
Jon qutulmas novakiy narkas ila xunxoridin

Nuktadon ahli xiradlar sarbasar aylab nazar
Lazzati shakar toparlar Dilafkor ash'oridin

* * *

Dedim: "Uzra maqdamingiz naqshi po bo'lsun, ukam
Ko'zlarimg'a hoki poying surmaso bo'lsun, ukam

Iltifot aylab qadam, tashrif qil kulbam sari
To jamolingdin xazin kulbam ziyo bo'lsun, ukam





Rahm qil endi g'arib jonimda rohat qolmadi
G'am chekib toki alif qaddim duto bo'lsun, ukam

Ohudek shahlo ko'zingni siyratida qon yutub
O'zgarlar mandek ko'yungda benavo bo'lsun, ukam

Javr - zulmingni oshurding noz istg'no bilan
Man sori sabru tahammul oshno bo'lsun, ukam

Ul Iskandar birla Kaykovus ham Doro ko'rub
Bu sifat sham'i jamoling muftalo bo'lsun, ukam

Na bo'lur solsa, Dilafkorni tegirmon do'lig'a
Un qilib girdin sovub ko'kka fano bo'lsun, ukam

* * *

Dilu jong'a yetar rohat kulub bergan salomingdin
Takallum qil to'kulsun yer uza shakar kalomingdin

Alif qadding nigoro, jon uyida jilvagar bo'ldi
Nihol qomating shamshod erur ayni qiyomingdin

Ishorat qildi qoshing nogahon qatlim havosida
Basiddiq dil qabul qildim sani bo'yla nizomingdin

Agar biri g'amza birla qatl om etsa, qaro chashming
Shahodat jomin ichsam, men qatori qatli omingdin

Jamoling safhasida xil - xating ashkidin hola
O'qurman surayi nun ham alif ikki lomingdin

Agar mumkin esa jona xumorim daf'ig'a gohi
Karam qil, bo'sa yanglig' dambadam ul la'l jomingdin.





Necha muddat Dilafkora nazar solmay bas, ey dildor
Mabodo o'tdimu senga zarar ushbu g'ulomingdin.

* * *

Gulshanda, ayo jono, mastona xirom etkil
Gullarning jamolingg'a bir damda g'ulom etkil

Yuz uzra chekib birdam mushkin niqobingni
El ichra solib g'avg'o majlisni davom etkil

Raftoringa, albatta, shaydo bo'lodur har kim
G'amzang o'qig'a mardum ko'ksini payom etkil

Mushtoqi visol o'lgon hajringda nihoyatsiz
Onlarg'a karam aylab, lutfingni mudom etkil.

Noz ila tag'ofilda oshiqlaringga boqib
Aftoda nechuksiz, deb onlarg'a kalom etkil

Ohu ko'zingga boqib hayratda nechuk holi
Bir jilva bilan anga hajringniki dom etkil

Jonimni beray senga, e dilbarim, ayyorim
Domingg'a farruhlar bir nechasin rom etkil

Naylayki ilojim yo'q, ey sho'xi jafopesha
Dilxasta Dilafkora bir yo'la salom etkil.

* * *

Telba ko'nglum ko'z tutar fursat topib yor oldida
Aylasam hijron g'amin fil jumla izhor oldida





O'rtanib kuysam tong ermas rashkidin, ahboblar
G'ayrlar bazm Sikandar tuzsa dildor oldida.

Voh nechun o'lmay tirilgay shomdin to subhidam
Bo'lsalar doim raqib eli chamanzor oldida.

Har zamon etsam tavozu yer o'pub qilsam salom
Bir kalom xush eshitmayman vafodor oldida

Dil havas aylar oni la'li labidin bo'sayi
Aql aylar beadam andisha bul kor oldida.

Aytingiz ahboblar rahm etmasa holim ko'rib
Hajrida qilsun shahid qonin to'kub yor oldida.

Kuymasunmu notavon joni Dilafkor, ohkim
Suhbat etsa doimo ul sho'x ag'yor oldida.

* * *

Ey dil, hoy-u havas deb chekkan ozoring g'alat,
Ikki kunlik umr uchun behuda guftoring g'alat,

Bandaman, deb xolisalilloh ibodat qilmading
Qilg'oning barcha riyo, boshingda dostoring g'alat,

Madhingga til ochsa har kim6 ey bani odami agar
Shod o'lub anga tavozu' pesha abrozing g'alat,

Ro'za tutsang mushtlashursan ko'chada har kim bilan
Odamlarga xumori man, deb iqroring g'alat,





Qoriyo qilding tilovat doimo dunyo uchun
Gar Xudo rahm etmasa shab ro'za takroring g'alat

El meningi hoji desun deb izzatu hurmat uchun
Mulk garov, qarzdor o'lub qilg'on ziyorating g'alat

Qur'a tashlab, dam ochib kasb aylading rahmatlik
Har kishiga qismatidin bergan axboring g'alat

Ilmdan behahrasan takror etib "Kanzul husayn"
Ezib ichku ham tutotquga xiyonating g'alat

Kunduzi jurm, kina aylab sharorat peshalik
Kechasi yostuq boshida ho'b afg'oning g'alat

Mol dunyo haris etib bermay zakotu ushrina
Makr tazvir ila qilg'on xayr ehsoning g'alat

Xalq aro yaxshi tabiblikka olay shuhrat deyub
Za'fron habbul malakdin doru qilg'oning g'alat

Har na kelsa so'zlading hardam desun deb azkiyo
Majlisi ichra kulgu birla mardum ozoring g'alat

Oqil o'lsang mardun ichra shuhrat ol xushxulqliq
Avval ozor yetkazub oxir pushaymoning g'alat

Bo'lma mag'rur bu jahonda e'tibor obro' uchun
G'irra hurmat mol uchun mahdum isboting g'alat

Ey Dilafkor, toati taqvog'a qilma e'timod
Qilmasa tangri qabul fil jumla toating g'alat





Gulyor

Ey saning xurshid yanglig' shomu ruxsoring qani?
Husniga zebish o'lankim xati gulnoring qani?

Turfayi barno eding, husningga to'ymas edi
Xo'bro'lar anjumida sarv osoring qani?

Misr shohidek eding ush malohat taxtida
Ey, bu kunlarda o'shandog' hashmatu koring qani?

Telmurub shaydoyi bo'lg'on bulbuli sho'ridek
Dard hijroningni chekkan ahli bemoring qani?

Lab urub husnungni borida bo'lub dog'i jigar
Hamnishin bir yerda doim sanga xushtoring qani?

Xat chiqarmishsan chiqqan hanuz shomi raxshoning ketib
Qomating yodek bukulmish husni gulzoring qani?

Yaxshi so'zlarg'a javob talx erdikim bedil
Endi xush alfoz o'lub san talx guftoring qani?

Chashm etib boqqay eding xasta Dilafkorg'a qadam
Ey sumanbar, aytqil emdi fe'l-u atvoring qani?

Dilafkorning Xislatga maktubi

Xislato, majmui yor-u oshnolarni so'rang
Ko'z tanish xiradkalon, ahli salolarni so'rang.





Borchadan bizg'a qarib²⁰ ahbobimiz mulla Kamiy
Bormular eson-omon, xush bavafolarni so'rang.

Mulla Ilhomjon, Habibulloh, ukangiz ham yana
Hoji Ilyosjon degan fahmiy adolarni so'rang.

Shohjalil, Shohbarotga aytingiz bizdan duo
To'ychixon otashnafas bulbul navolarni so'rang.

Chorsudan misli tobon jahon Sa'dulloxon
Bormilar sihat-salomat ko'zi qarolarni so'rang.

Mullarizq-u Xo'ja Eshong'a duoyi beadam
Mullo Zokir xo'ja xushfahmu zakolarni so'rang.

Qandolat bozorida ul mulla Asfar nozanin
Mirzo Abdulla degan ahli kinolarni so'rang.

Gul bozorig'a borsangiz mabodo, ey oshino,
Mullo Ahmadxon degan husni ziyolarni so'rang.

Rasti bazzoz orakim o'lturur oydek to'lub,
Mulla Akromxoj'a eshon mahluqolarni so'rang

Ul kitob bozorida tujjorlarning boshlug'i
Mulla Akmalxon, Zafar kasbi a'lolarni so'rang.

Mahdum Nosuho akamni, ham yana Mulla Rasul
Tutqonni qo'ymas qavomidin shifolarni so'rang.

Kotib Abdulhamid birlan Siroj Mahdum degan
Husni xat avsofid sohib mashqi bejolarni so'rang.

²⁰ yaqin





ZARIF QORI TOSHKANDIY

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashab, serqirra faoliyat ko'rsatgan o'zbek shoiri, tarixchi, faylasuf. Zarif Qori (asl ismi Zarifiddin) haj qilgandan so'ng xalq orasida "Zarif qori hoji" nomi bilan mashhur bo'lgan. "Toshkandiy " – uning qo'llagan adabiy taxallusidir. U o'zining she'riyatida diniy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy masalalarini yoritgan. O'zbek adabiy aloqalarini uyg'ur adabiyoti bilan chambarchas bog'lashga ijodiy jihatdan katta hissa qo'shgan lirik shoirdir. Zarif Qori o'z asarlarida mumtoz turkiy she'riyatidagi an'anaviy she'riy shakllar va poetik ifodalarni qo'llash bilan birga o'zining novatorlik jihatlarini ham namoyon qila olgan so'z san'atkoridir. Albatta, bunday yuksak ijdokorlik salohiyati uchun tug'ma qobiliyat va sharoit muhim ahamiyat kasb etadi.

Zarif Qori 1858-yili Toshkentda ziyoli xonadonda adabiyotga ixlosmandlar oilasida tug'ilgan. Zarifiddin dastlabki tahsilni mahalladagi eski maktabda oladi. Zakovati yuqori va aqli teran bo'lgani bois tahsilni tez orada yakunlaydi.

U 16 yoshidan adabiyotga, she'riyatga ixlosmandligi uchun she'riyat bilan erta shug'ullangan. Toshkentdagi "Ko'kaldosh" madrasasida ilm olgan. Adabiyot, tarix, islom falsafasi tahsilida yaxshigina bilim egasi bo'lgan. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi tufayli shoirning oilasi 1890-yillar atrofida Shinjongga kelib o'troqlashib, Qashqar, G'ulja, Yorkent kabi katta va qadimiy shaharlarda yashagan. 1958-yili G'uljada vafot etgan. Zarif Qori Hojining nomi katta olim, adib va tarjimon (arab tilidan) sifatida keng jamoatchilikka tanish bo'lgan.





Shinjongda o'sha davrda adabiy maktablar ham faoliyat yuritgani shoirning zamondosh ijodkorlar bilan olib borgan ma'rifiy-adabiy aloqalari va suhbatlari orqali ma'lum bo'ladi. Zamonasining istedodli qalamkashlari Tajalliy, Furqat kabi shoirlar bilan ijodiy hamkorligi kuchli bo'lib, butun umri ijodiy hamfikrlikda, do'stlikda o'tgan. Arab tilidan malakasi yuqori bo'lgani bois Qur'anni tarjiima qilib, Bombayda nashr qildirgan.

Tarixshunoslik masalasida ham zakovati yuqoriligidan o'lka tarixi va ijtimoiy ahvolut bayoni tarzida Zarif Qori Toshkandiyning Shinjong va O'rta Osiyo ellari munosabatiga bag'ishlangan "Farg'ona va Qashqar tarixi" nomli asari ham bor. Bu mo'tabar meros aynan Farg'ona va Qashqarning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida bo'lib, tarixni haqqoniy o'rganishda ahamiyati yuqori bo'lgan asarlardan hisoblanadi. O'zbek adiblari ijodini o'rgatish va o'rganish borasida tadqiqot olib borgan Qodir Akbarning bergan ma'lumotiga ko'ra, bu asarning qo'lyozmasi Shinjong ijtimoiy Fanlar akademiyasi tarix tadqiqot institutida saqlanmoqda ekan.²¹ Tarixshunoslar va matnshunoslar ushbu asarning asl matni bilan tanishishsa, xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o'sha davrdagi manzarasiga oydinlik kirituvchi muhim ma'lumotlarga ega bo'lishardi.

Shoirlik iste'dodi o'sha davrdayoq zamondosh ijodkorlar va oddiy xalq tomonidan e'tirof etilgan va yuksak hurmat bilan tilga olingan. Uning bir necha she'rlari 1911-yili Toshkentda nashr qilingan "Bayozi Muhallo" to'plamiga kirgizilgan. Bu to'plam hozir Shinjong avtonom rayonidagi Ijtimoiy fanlar akademiyasi Millatlar adabiyoti institutidagi qo'lyozmalar bo'limida saqlanmoqda.

Zarif Qori Toshkandiy o'z asarlarida an'anaviy g'azal, qit'a, ruboiy kabi mumtoz janrlarni qo'llagan U she'riyatda o'zining nozik lirizmi, ma'naviy va axloqiy mavzularni ifodalashdahio

²¹ Bu haqda qarang: Shinjong o'zbek adiblari. Nashrga tayyorlovchi: Qodir Akbar. Shinjong xalq nashriyoti. 1989 y., 114 – 140 betlar

شنجڭ ئۆزبېكىستان يازغۇچىلىرى. نەشىر قىلىشقا تەييارلانغان. قادىر ئەكبەر. شنجڭ خەلق نەشرىياتى. 1989.





mahorati bilan tanilgan. Uning she'rlarida insonning ichki dunyosi, muhabbat, dard va umid kabi mavzular yoritilgan. Zarif Qorining she'rlari odatda sof turkiy tilda, sodda va ravon uslubda yozilgan bo'lib, o'quvchiga chuqur ma'naviy-axloqiy mazmunni yetkazishda, lirik qahramon kayfiyati va tuyg'ularini ifodalashda xalqona til uslubidan foydalangan.

U o'zining she'riyatida diniy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy masalalarini yoritgan. O'zbek adabiy aloqalarini uyg'ur adabiyoti bilan chambarchas bog'lashga ijodiy jihatdan katta hissa qo'shgan lirik shoirdir. Shu davr ijodkorlari haqida ishonchli va mo'tabar manbalardan biri Po'lotjon domulla Qayyumiyning "Tazkirayi Qayyumiy" kitobi²²da ham qimmatli ma'lumotlarga duch keldik: "Bu kishi Sharqiy Turkistonning Yorqand shahrida Hoji ariq nomli karyada tug'ilmish.Yorqandda o'qib o'smish va shunda nash'u namo etmishdur. Ishi bu mudarrislikda bo'lmishdir. Nomi Nabirayi Husaynixon bo'lib otasi Dehlidan Sharqiy Turkistonga Koshg'ar xoni bo'lmish Yakubbekning zamoni saltanati vaqtida kelmish hazratlaridan edi," deb ta'rif beradilar.

Zarif Qori o'z asarlarida mumtoz turkiy she'riyatidagi an'anaviy she'riy shakllar va poetik ifodalarni qo'llash bilan birga o'zining novatorlik jihatlarini ham namoyon qila olgan so'z san'atkoridir. Tazkirada shoirning so'z ijodkori sifatida quyidagi ma'lumotlar uchraydi: "Otasidan so'ngra o'zi mulkiga xoja va voris bo'lib turgan tasavvuf ruhida bo'lsa ham,badiiy kuchga ega ash'ori obdori Farg'ona vodiysi fozillari orasida zavq ila o'qilur edi.Xo'qand hazratlariga munosib va aloqalari bo'lub Eshonxon hazratga ingan martabasi bordur.Shoir Muqimiy va Firqatning Tajalliyning g'azallariga aytgan turkiy va tojikiy muxammas va mushoiralari ham bordur. Shoir Sharqiy Turkistonga sayohat etib Yorqandda bo'lub shoir mavlono Tajalliyning ziyorat etmishdur. Bu musoboqada bo'lub ko'p foydalanmish."²³

²² Po'lotjon domulla Qayyumiy. Tazkirayi Qayyumiy. Toshkent, 1999, 4-daftar. III kitob.337-bet.

²³ Yuqoridagi manba.





Demak, Zarif qori Toshkandiy uchun shoir Tajalliy²⁴ ijodi ham tanish bo'lgan. U kishi bilan diydorlashish va suhbatlashish istagida Yorkentga ham Qo'qon va Toshkentdagi adabiy davralarda, she'riy mushoiralarda k'op qatnashgani, o'z davrining betakror iste'dodli shoirlari Muqimiy va Zokirjon Furqat kabi qalam ahliga g'azallaridan o'qub bergani va ularga ma'qul tushib, naziralar bog'laganini qayd etar ekan, uning ham iste'dodi baland, qalami o'tkir shoirlardan ekaniga ishora qiladi.

Shuningdek, tazkirada shoir Zarif qorining g'azallaridan 3 tasini keltirib o'tadi. Biroq bu matnlarni "Shinjong o'zbek adiblari" kitobida berilgan variantlari bilan solishtirib ko'rilganda ayrim o'rinlari farq qilishiga guvoh bo'ldik:

"Tazkirayi Qayyumiya"	"Bayozi Muhallo"da
Gul yuzingsiz bog'aro bulbul kabi zor o'lmisham Xajr xori sanchilib bir bag'ri xunbor o'lmisham	Gul yuzungsiz bog'aro bulbul kabi zor o'lmisham, Hajr xori sanchilib bag'rim ado xor o'lmisham.
Lutf aylab bir kelib qoshimg'a ahvolimni ko'r, Kim la yanglig men sening hajringda afgor o'lmisham.	Lutf aylab bir kelib qoshimg'a ahvolimni ko'r, Kim nayanglig man sanning hajringda abgor o'lmisham.

²⁴ Tajalliy – XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek ijodkorlaridan bo'lib, Sharqiy Turkistonga ketib, o'sha yerda yashab ijod qilgan shoirlardan. Po'lotjon domullaning "Tazkirayi Qayyumiya" asarida ham bu shoir haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Yana bu ijodkorning faoliyatiga oydinlik kirituvchi qaydlar tadqiqotchi Sh.Qo'ldashevning "Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston: ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar" (Toshkent, Akademiya, 2021) kitobida quyidagi qaydlar uchraydi: Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tufayli ikki o'lka olimlari, shoirlari, adiblari, shoirlari u yoki bu o'lkaga ko'chib yurishgan, Jumladan, Sharqiy turkistonlik faylasuf Muhammad Siddiq Rushdiy, adiblardan Xislat Qashqariy, Xushhol G'aribiy Qo'qon xonligiga kelib ijod qilishgan bo'lsa, qo'qonlik Imom Ali Qunduziy, Zarif, Akmal Toshkandiy, G'iyosiddin Umar Marg'iloniy, Pisanfiy, Toib, tabiblardan Hasanxo'ja Sharqiy Turkistonga borib ijodlarini davom ettirgan" (124-bet)





Kel samanding o'ynatib, boshim uza Layli sifat, Men junun vodiysida Majnun asror o'lmisham.	Kel samanding o'ynatib, boshim uza Layli sifat, Kim junun vodiysida <i>mahbubi osor</i> o'lmisham.
Firqatingda dard ila gar chiqsa jonim yo'q ajab, Chunki jononsiz bu kondin <i>balki</i> bezor o'lmisham	Furqatingda dard ila gar chiqsa jonim yo'q ajab, Chunki jononsiz bu kondin <i>baski</i> bezor o'lmisham
Justi jo'yi orazi sha'mida man har subhu shom Kezibon daydu haram parvona <i>kirdor</i> o'lmisham	Justi jo' orazi sham'ida man har subh shom, Kezibon dahri haram parvona <i>gardor</i> bo'lmisham.
Sharbati la'li labi birla va'da qilsa <i>no'lar,</i> Men musalsal zulfi savdosida bemor o'lmisham	Sharbati la'li labi birla va'da qilsa <i>bo'lur,</i> Kim musalsal zulfi savdosida bemor o'lmisham.
Man' qilma ishqdin, ey zohidi taqvofurush Sanga matlab hurdur man tolibi yor o'lmisham	Man' qilma ishqidin, ey zohidi taqvofurush, Sango matlab hurdur man tolibi yor o'lmisham.
Ko'tarib burqa jamolingdin tajalliy aylag'il Ishq tavri ichra men jo'yoyi diydor o'lmisham	Ko'tarib burqa jamolingdin tajalliy aylakim, Ishq tavri uzra man xunobi diydor o'lmisham.
To g'izo qildim jigar kokila ishq ichra Zarif Voqifi sirri maoniy ramzi asror o'lmisham.	To g'izo qildim jigar qonila ishq ichra Zarif, Voqifi sirri maoniy ramzi asror o'lmisham.

G'azal ramal bahrida yozilgan: ramali musammani mahfuz,
ya'ni foilotun – foilotun – foilotun – foilun (-V-- / -V--/ -V-- /-V-).





Har ikki manbada ham 9 baytdan iborat, Biroq satrlardagi ayrim so'zlar almashib qolgan. Mazmunga u qadar jiddiy ta'sir qilmasa-da, 2-varinatdagi matnni vazn va sh'erning poetik mazmuniga ko'ra to'liq va to'g'ri variant deb hisoblasak bo'ladi. Bu mashhur radif (o'lmisham) mumtoz so'z salafarida ham ko'p uchraydi. Masalan, Fazliy Namangoniy²⁵ning ham ushbu radifdagi muxammasi²⁶mavjud. 1-baytni solishtirganimizda, albatta, bunday yuksak ijodkorlik salohiyati uchun tug'ma qobiliyat va sharoit muhim ahamiyat kasb etadi.

Shinjongda o'sha davrda adabiy maktablar ham faoliyat yuritgani shoirning zamondosh ijodkorlar bilan olib borgan ma'rifiy –adabiy aloqalari va suhbatlari orqali ma'lum bo'ladi. Zamonasining istedadli qalamkashlari Tajalliy, Furqat kabi shoirlar bilan ijodiy hamkorligi kuchli bo'lib, hamfikrlikda, do'stlikda o'tgan. Arab tilidan malakasi yuqori bo'lgani bois Qur'onni tarjiima qilib, Bombayda nashr qildirgan.

Shoirlik iste'dodi o'sha davrdayoq zamondosh ijodkorlar va oddiy xalq tomonidan e'tirof etilgan va yuksak hurmat bilan tilga olingan. Uning bir necha she'rlari 1911-yili Toshkentda nashr qilingan "Bayozi Muhallo"²⁷ to'plamiga kirgizilgan.

Zarif Qori Toshkandiy o'z asarlarida an'anaviy g'azal, qit'a, ruboiy kabi mumtoz janrlarni qo'llagan. U she'riyatda o'zining nozik lirizmi, ma'naviy va axloqiy mavzularni ifodalashda alohida

²⁵ Abdulkarim Fazliy Namangoniy (XVIII asr II yarmi – XIX asr I yarmi) Qo'qon adabiy muhitining yetuk vakillaridan biridir. XIX asr boshlarida To'raqo'rg'on va Namanganda turli mansablarda ishlagan. Umarxon hukmronligi yillari (1810-1822) Qo'qonga kelgan. She'riy iste'dodi tufayli xonning marhamatiga sazovor bo'lib, tez orada saroy shoirlarining boshlig'i – "maliku-sh-shuaro" nomini olgan. Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari, hukmronligi davridagi voqealarni "Umarnoma" dostonida tasvirlagan. Xon topshirig'iga ko'ra, Fazliy "Majmuai shoiron" ("Shoirlar majmuasi", 1821) tazkirasini tuzishga boshchilik qilgan.

²⁶ Bu muxammasning to'liq varianti "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi"(Toshkent, Tamaddun, 2022) kitobida keltirilgan.(77-78-betlar)

²⁷ Bu to'plam hozir Shinjong avtonom rayonidagi Ijtimoiy fanlar akademiyasi Millatlar adabiyoti institutidagi qo'lyozmalar bo'limida saqlanmoqda(Sh.K)





mahorati bilan tanilgan. Uning she'rlarida insonning ichki dunyosi, muhabbat, dard va umid kabi mavzular yoritilgan. Uning she'rlari odatda sof turkiy tilda sodda va ravon uslubda yozilgan bo'lib, ular o'quvchiga chuqur ma'naviy-axloqiy mazmuni yetkazishda, lirik qahramon kayfiyati va tuyg'ularini ifodalashda xalqona tildan foydalangan.

Zarif Qori Toshkandiy o'z she'riyatida faqat shaxsiy his-tuyg'ularini ifodalash bilan cheklanib qolmagan, balki ijtimoiy masalalarni, xalqni tarbiyalash, axloqiy qadriyatlarini keng tarqatishga ham intilgan. U o'z she'rlarida adolat, halollik, o'zaro hurmat va sof insoniy sevgining ahamiyatini ta'kidlagan.

Bu kabi g'azallar qatiga ijtimoiy-axloqiy masalalar singdirilar ekan, bu ifodalar orqali odamlarni halollik, adolat, insof va insoniy xislatlar bo'lgan yaxshi axloqqa ega bo'lishga chaqiradi. Shuningdek, uning she'rlari xalqning oddiy hayoti, mehnati, muhabbati va turmush tarzini tasvirlashga qaratilgan. She'rlari asosan ishq-muhabbat mavzusida:

*– Ul pari ishqin buzuq ko'nglum aro ettim nihon,
O'ylakim pinhon etarlar ganjni vayron aro.*

Ushbu baytda *pari, buzuq ko'ngil* mumtoz adabiyotda uchraydigan birliklar. Lirik qahramon sevganiga an'anaviy tarzda pari deb murojaat qilibgina qolmasdan uning sevgisini buzuq jo'ngli ichiga yashirishinin go'yo ganj (qimmatbaho tosh va maravridlar top'langan xazina, boylik)ni vayronalarga yashirilishiga ishora qilib o'tadi, bu baytda husni ta'lil²⁸ning yaxshi namunasini yaratadi.

Shoir she'riyatiga mumtoz va zamondosh o'zbek shoirlarining ijodi, boy ma'naviy merosi katta ta'sir ko'rsatgan. Poetik uslub va

²⁸ Husni ta'lil – shoirona o'xshatishga asoslangan badiiy tasviriy vositalardan biri. Bunda ijodkor aytilayotgan fikrga daxli bo'lmagan hayotiy o'xshatma, dalil topib, go'zal ifoda yaratishga harakat qiladi.





tasavvufiy g'oyalar shoir ijodida ham aks etgan. Ijodkorning qator she'rlarida bu ta'sirni ko'rish mumkin bo'lib, nafaqat ma'naviy izlanishlar, balki ijtimoiy va axloqiy masalalar ham muhim o'rin tutadi.

Shoir mumtoz o'zbek she'riyatidagi salmoqli o'rin tutgan qalamkash sifatida ham o'zbek, ham uyg'ur adabiyotiga birdek hissa qo'shgan. Undan qolgan meros tarkibida islom ma'rifati va tasavvuf axloqi masalalari va xalq qadriyatlarini birlashtirilgan. Zarif qori Toshkandiyning aksar she'rlari yangi davr kayfiyatini yoritishga va ijtimoiy-siyosiy voqelikdan xabar berishga qaratilgan she'riyatdir.

Shuningdek, adibning tarixshunoslik masalasida ham zakovati yuqoriligidan o'lka tarixi va ijtimoiy ahvolut bayoni tarzida Zarif Qori Toshkandiyning Shinjong va O'rta Osiyo ellari munosabatiga bag'ishlangan "Farg'ona va Qashqar tarixi" nomli asari ham bor. Bu mo'tabar meros aynan Farg'ona va Qashqarning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida bo'lib, tarixni haqqoniy o'rganishda ahamiyati yuqori bo'lgan asarlardan hisoblanadi. O'zbek adiblari ijodini o'rgatish va o'rganish borasida tadqiqot olib borgan Qodir Akbarning bergan ma'lumotiga ko'ra, bu asarning qo'lyozmasi Shinjong ijtimoiy Fanlar akademiyasi tarix tadqiqot institutida saqlanmoqda ekan.²⁹ Tarixshunoslar va matnshunoslarning ushbu asar bilan tanishishi o'sha davrdagi xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning manzarasiga yanada aniqroq oydinlik kiritilishiga yordam berar edi.

²⁹ Bu haqda qarang: Shinjong o'zbek adiblari. Nashrga tayyorlovchi: Qodir Akbar. Shinjong xalq nashriyoti. 1989 y., 114 – 140 betlar.

شىنجاڭ ئۆزبېك يازغۇچىلىرى. نەشر قىلىشقا تەييارلانغان: قادىر ئەكبەر. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى. ۱۹۸۹.





ZARIF QORI TOSHKANDIY SHE'RLARIDAN

G'azallar

Ey xayoli ko'nglum ichra ul alifkim jon aro,
Kelki san sayr, keldi jonimg'a lab hijron aro.

Rahm etib yetkur, nigoro, sohil-u vaslinga kim,
Hajrida ko'z mardumi³⁰ g'arq bo'ldi bahri qon aro.

Kelding-u turmay boshimdin tez ketding reg qad³¹,
Qoldim ashk-u oh ila man bur qading bo'ron aro.

Ul pari ishqin buzuq ko'nglum aro etdim nihon,
O'ylakim pinhon etarlar ganjni vayron aro.

Gul qizorib sorg'arur ra'no yuzingning rashkidin,
Bu gul oraz ila borsang agar bo'ston aro.

Man tanho qon yutarman la'li nobing yodida,
La'li bag'ri ham labing yodida qondur kon aro.

Otashi ishqiq ko'ngul ichra yoqildi o'ylakim,
Lahcha afkardur tan-u jon otashi so'zon aro.

Voizo, do'zax o'tidin berma ko'p qo'rqunchkim,
Kuykisham yillar firoq o'tida bu davron aro.

³⁰ Ko'z mardumi – ko'z qorachig'i

³¹ Reg qad – tik qomat





Qilmag'il rohat tamannosi jahon ichra, Zarif,
Kimsa rohat ko'rmadi bu kulbayi ahzon³² aro.

* * *

Gul yuzingsiz bog' aro bulbul kabi zor o'lmishan,
Hajri xori³³ sanchilib, bag'rin ado xor o'lmishan.

Lutf aylab, bir kelib qoshimg'a ahvolimni ko'r,
Kim na yanglig' man saning hajringda abgor o'lmisham.

Gul samanding o'ynotib boshim uza Laylisifat,
Kim junun vodiysida Majnun asror o'lmisham.

Furqatingda dard ila gar chiqsa jonim yo'q ajab,
Chunki jononsiz bu kondin baski bezor o'lmisham.

Justi jo'y³⁴ orazi sham'idaman har subh-u shom,
Kezibon dahri xaram parvona gardor o'lmisham.

Sharbati la'li labi birla va'da qilsa bo'lur,
Kim musalsal zulfi savdosida bemor o'lmisham.

Man'i qilma ishqidin, ey zohidi taqvofurush,
Sanga matlub hurdur, man tolibi yor o'lmisham.

Ko'tarib burqi jamolingdan tajalliy aylakim,
Ishq to'ri uzra man xunobi diydor o'lmisham.

To g'izo qildim jigar qoni-la ishq ichra, Zarif,
Voqifi sar maoni ramzi asror o'lmisham.

³² kulbayi ahzon- G'am uyi

³³ Xor - tikan

³⁴ Justi jo'y - kelishgan qomat





* * *

Yuz tuman armon-u hasrat jon bir yonimdadur,
Toki ming jabr-u jafo bul ofati jonimdadur.

Maqsadim bulkim, xudoyo, qil raqibimga nasib,
Manga nisbat har na badxulqki jononimdadur.

Har necha bemehr bo'lsang ham ko'ngulni uzmagum,
Chunki chehrang mehri naqshi sahfayi jonimdadur.

Dahri dun³⁵ bilmon meni mundog' nechun qon yutdurur,
Kavn-u kayn husuli ohu afg'onimdadur.

Dahri dunparvar kim nishon g'amidin bok³⁶ yo'q,
Bo'lmasa ul hurlarkim mohi tobonimdadur.

Vasling istab ketdi aql-u sahtim kuyuk sori,
Hajring ichra telba-yu bemorlig' yonimdadur.

Davlat-u vaslin Zarifi so'rg'animda ajz ila,
Aydi noz aylabki, davlat sanga hijronimdadur.

³⁵ Dahri dun-yer yuzi

³⁶ Bok-chegara





BARQIY

Abdug'ofirjon Qori, taxallusi Barqiy, XX asr boshlarida yashab ijod etgan iste'dodli, ammo uzoq yillar davomida ommaga noma'lum bo'lib qolgan o'zbek shoiri hisoblanadi. U 1901-yilda Farg'ona vodiysining madaniy markazi bo'lmish Qo'qon shahrida tavallud topgan. Dastlabki ma'lumotni Qo'qon madrasalarida, keyinchalik "Usuli jadid" maktablarida olgan. Bu esa uning tafakkuri va dunyoqarashiga ma'rifiy ruh, yangilikka intilish, zamonaviy tafakkur asoslarini singdirgan.

Barqiy adabiyotga yoshligidan qiziqqan, 20 yoshidan boshlab she'rlar yozishni boshlagan. Biroq uning hayoti faqatgina badiiy ijoddan iborat bo'lmagan — u 1930-yilda ota-onasi bilan birgalikda Xitoyning Shinjon (Shinjong) viloyatiga, aniqrog'i Janubiy Shinjonga ko'chib o'tgan. U yerda Qashg'ar, Qog'alik, Xo'tan kabi shaharlarda istiqomat qilgan. Barqiy asosan o'z hayotini sayohat, izlanish va xalq bilan muloqotda o'tkazgan. Uchinchi o'rinda emas, balki xalq orasida yashagan, xalq qalbini o'rgangan ijodkor edi.

Shoirning adabiy merosi 1930–1950-yillar orasida shakllangan bo'lsa-da, u o'z asarlarini hech qanday rasmiy matbuotda chop ettira olmagan. Chunki o'sha yillardagi siyosiy va ijtimoiy holat — xususan matbuot tanqisligi, senzura va milliy adabiyotga bo'lgan e'tibor yetishmasligi sababli uning ijodi faqat qo'lyozma holida xalq orasida og'izdan-og'izga, daftardan-daftarga tarqalib kelgan.

O'sha davrda Shinjon Uyg'ur Avtonom Rayonida o'zbek adabiy merosiga nisbatan ilmiy qiziqish uyg'ondi. 1984-yilda bu borada muhim qadam qo'yilib, Shinjon Ijtimoiy fanlar akademiyasi, Millatlar adabiyoti instituti va Avtonom rayon milliy ishlari bo'limi





bilan hamkorlikda Janubiy Shinjonda yashovchi o'zbeklar orasida adabiy yodgorliklarni yig'ish bo'yicha ilmiy ekspeditsiya tashkil qilindi.

Mazkur izlanishlar davomida Qashqar, Yakan (Yorkent), Qog'alik, Xo'tan kabi hududlarda istiqomat qiluvchi o'zbeklar orasidan Barqiy taxallusli shoir haqida xotiralar, shuningdek uning qo'lyozma she'rlari topildi. Ayniqsa, Yakan shahrida yashagan boshqa bir o'zbek shoiri, Najimiy (Ubaydullo Hoji To'ram) saqlagan she'riy daftarlardan Barqiyning bir necha muhim qo'lyozma asarlari aniqlab olindi.

Barqiy va Najimiy o'zaro yaqin ijodiy aloqada bo'lgan, ular o'z asarlarini bir-birlariga o'qib bergan, she'riy mulohaza va tahrir orqali badiiy fikr almashgan. Bu esa ularning ijodiy uslublarida mushtaraklik va g'oyaviy yaqinlikni yuzaga chiqargan.

Barqiyning she'riyati uslub jihatidan Sharq mumtoz adabiyoti an'anasiga sodiq bo'lgan. Uning g'azallari, muxammaslari, lirik va hajviy asarlari Navoiyning badiiy maktabi, shuningdek Furqat, Muqimiy kabi jadid shoirlari ijodiy ruhini o'zida mujassam etgan. Ayniqsa, "Sayohatnoma" yo'nalishidagi she'rlari bilan Muqimiy uslubiga yaqinlashadi — bu asarlarda shoir o'z ko'rgan-kechirganlarini, jamiyatdagi illatlarni, ijtimoiy voqealarni yengil hajv bilan tasvirlagan.

Barqiy o'z asarlarida xalq ruhiyatini, o'zbekona tafakkur va qadriyatlarini, qishloq va shaharlardagi hayotni nozik satira va chuqur lirika bilan aks ettirgan. Uning she'rlarida sadoqat, yurtdan uzoqlik, ayriliq, g'am, muhabbat, ezgulik kabi mavzular yetakchi o'rin egallaydi. Barqiy (Abdug'ofirjon Qori) tomonidan yozilgan "Sayohatnoma" asarining she'riy parchasidir. Asarda ko'tarilgan mavzular faqat bir shahar emas, butun jamiyat muammolarining badiiy ifodasidir. Shoir mumtoz she'riyat shaklida, ammo chuqur tanqidiy realizm ruhida yozadi.

Topilgan qo'lyozmalar har xil qog'ozlarga, turli uslublarda yozilgan. Ayrimlarida shoirning o'z qo'li, ayrimlarida esa uning





ijodini sevgan shogird yoki muxlislarining ko'chirmalari mavjud. Bu holat Barqiyning xalq ichida hurmat qozongan ijodkor bo'lganligini ko'rsatadi.

Izlanishlarimizga ko'ra ma'lum bo'ldiki, Barqiy XX asr o'zbek adabiyotining kam tanilgan, biroq o'z davrida muhim badiiy ahamiyatga ega bo'lgan shoiri hisoblanadi. Uning hayoti va ijodi o'zbeklarning Shinjondagi madaniy hayotida qanday o'rin tutganini anglashga yordam beradi. Barqiyning asarlarini o'rganish — nafaqat o'zbek mumtoz she'riyatining davomiyligini, balki uning xalq og'zaki ijodi va madaniy xotirasidagi o'rnini ham ko'rsatadi.

Barqiy she'rlaridan namunalar

Orazing oydek to'lubdur ko'zlaring ichra siyo(h),
Qomating ziyo bo'lubdur, sarvmonanda go'yo.

Bu mahal nima desa bo'lg'oy seni ilgari-keyin
Qo'zg'otib odamni o'z holig'a qilding kamnamo.

Dilda darding, yuzda zarding, ohu faryod kechalar,
Yursa, tursa, qo'psa, o'ltursa muqarrar doimo

Ajramas fikring bila yoding-xayoling muttasil.
Sir yelim birla bo'lib ketganmu ham kam jobajo,

Lol bo'lub bir yo'l ko'rub behol bo'lub qoldim seni
Ilgari begona bo'lsang endi kel, bo'l oshuno.

Hur parizoddin tug'ilganmu va yo tarso adan,
Surating, turqing ajoyib o'zgachadursan bino.





Mast bo'lur yetsa mashoming ham to'lu'ing nash'asi,
Hasrat-u armon ko'nglida kokilingdin ham to'la.

Ko'p nihoyat nozlaring, shavqing yaqin, rohing uzoq,
Bir sababla shoh qizig'a ishqivor bo'lgay gado.

Do'st bo'lur bir-bir bahona ishig'a mashg'ul bo'lub,
O'zi abgor, dili xunbor devonaga bir mahluqo.

Ne'mat-u vaslingni so'ng'il, aylagay Barqing umid,
O'tmasun vasling talabkoringda hamd-u iqtizo.

Yo'q

Tavba, tavba, ajabo, hech kimda bir vafo yo'q,
Sochilgani, sochilgan, to'plariga iltijo yo'q.

Guruh-guruh kishilar bir narsaga zor-u zor,
Bir kishida mol-u nang, o'zgada bir sado yo'q.

Bir kimsaga ishanmak bul zamonda qolmabdur,
G'araz o'zdin o'zgaga ahd-u kalom raso yo'q.

Jannatga kirib o'zi davzaxqa seni tashlar,
Joniga tushan ofat tarahhumga sazo yo'q.

Bor ismi Sulaymoncha lokin o'zidur tariso,
Gardanda kishi haqqi bermakka muddao yo'q.

Ko'zingni o'yub bersang rahmat demagay senga,
Vojgundur kuning, Barqiy, bul yerda musaffo yo'q.





Jononga

Orazing shirmonga o'xshar anda bor oq-u qizil,
Lablaring axmarga monand oning uchun jon sabil.

Ziynati odam hayliga bo'lgay dalil zoti zuhur,
Ey vujudi kimyo paydo bo'lub chiqti asil.

Yurmushing dillarga xushlik, mazaring azoga jon,
O'tlaring kuydursa bak tig'laring etgay qatl.

Diydayi xo'blar erursan qomatingda benazar,
Guftugo' hojat emas sha'ni oning beqol-u qil.

Xonumonim yo'llaringda bo'lsa sarv manga na g'am,
Ham gadoying, ham adoyingman xor-u zalil.

Oftob husningga tushsa menga zo'r davlat erur,
Na qilurman g'ozu yo'q ul bevafo sarbu akil.

Barqiyni qadding xayoli ayladi devonavor,
Har na qilding, aylading san bu sifat zebo jamil.

Xo'tanda bir birodarga maktub

Yonib keldim topolmay xonang'izg'a man borib,
Ko'rushka ishtiyoqim ko'p edi afsus nade guftor.
Ilojsiz bo'ldim ondin keldim ondin nazdi buzrukvor,
Yedim onda o'rik pishqon halvo bo'lub tayyor,
Duo qildim makonim Jonibiyga ayladim raftor.





Bu dunyoda kishining maqsadi birla murodi puch,
Bu zolim bevafo dunyo erur odam ishiga o'ch,
Deb olsang bir makondin oltunkim holatdur duch,
Ko'rinmas yaxshi pinhon yomon o'zni qilg'ay duch,
Yonib keldi quruq zarifim qusurim kengramasdan tor.

Bu dunyo turub miskin murodi uzro yetgan kim?
Na yaxshi baxt-u iqqollik erur ul qaysi inson kim?
Bo'lor oning ishi hal doimo ranji osonkim,
Hammaga to azaldin bo'ldi oxir nonimon kim?
Ki dushvor ishga qoldim toleyim ul soyada o'ynor.

Qoshida g'uncha bulbul to uqub abru qilib orzu,
Oning qilg'oni bundoq vajhi ra'nosin qilib orzu,
Ki ayni g'unchasini chekka qismoq qilib orzu,
Oning ko'nglida maqsudu tomoshosin qilib orzu,
Ochilmoq vaqti qoldi uyqulab ko'rmak nasib yo'q zor.

Xo'tan mavosig'a hasrat Mashrab kelib hayron bo'lib ketdi,
Necha kun cho'llarda churgulub sarson bo'lib ketdi,
Oning sha'niga ko'p abyot o'qub xushxon bo'lub ketdi,
Ozib hushdin bu Barqiy oqibat laylon bo'lub ketdi,
Qarorni qo'ymadi misli sirob eltib ko'zin xumor.

Safarnoma

...³⁷

Qorg'aliq bir ajab serob,
Havosi baayni ofitob,
Na issiq, na salqin, o'rta tob,
Bu joydin bir shavq izhor etay.

³⁷ Asarning boshlanishi yo'qolgan





Uningdin Xo'tanga yurish ayladim,
Birinchi kunimni "Qo'sh" ayladim,
Ikkinchi Cho'loqqa xuruj ayladim,
Kirdim andin Gumiga qaror etay.

Kirib ko'rdim bir shirin shahar,
Ozoda ko'chalar ham rastalar,
Bechangi, beg'ubor zilol suvlar,
O'zumni bu shaharga xaridor etay.

Bor ekan idora yaxshi bo'limlar,
Ekilgan ko'chalarda terak, uzumlar,
Kishilarda bor ekan har xil tuzumlar,
Ular vasfin qandoq takror etay.

So'ngra ko'rdim bir necha kentlarni,
Bog'i-yu adir-u ne-ne yurtlarni
Bozor-u, shovqun-u sukutlarni,
Mukuy³⁸la bozorda bozor etay.

Mukuylani bozorini tafrij qildim,
Andaki xalqlarni taftish qildim,
Birdam turub ondin furuj qildim,
Mo'ji³⁹ tomon turib raftor etay.

Ertasi Muji taraf qildim havas,
Borib anga birdam oldim nafas,
Yana yo'l tay etmakka qildim pahas,
Endi Zango'yni o'zimga bor etay.

³⁸ Qishloq nomlaridan biri

³⁹ Bu ham Gumo qishloqlaridan birining nomi





Shom ila Zango'yga dohil bo'ldim,
Bir uy tushub uyquga moyil bo'ldim,
Xo'p charchabman o'zimga ham qoyil bo'ldim,
Bugun uxlab erta safar dushvor etay.

Piyolmaning kiraverishi dang ekan,
Ko'chasining atroflari ustang ekan,
Ustanglari daryoga ham tang ekan,
Yerlarini asta naiy osor etay.

Zovaga yetishtim vaqti asr,
Safarda o'qub yurdum "Xamsa", "Qasr",
Havasi har kimni ham qilg'oy asir,
Bul maskanda dilimni anvor etay.

"Zova" din chiqishda bor ikki yo'l,
O'nga Ilji, Qoraqoshning yo'li so'l,
Birovdin savol qildim: "Qaysi mo'l?",
Ul odam dedi: "Sizga asror etay.

Ikkisi barobardur yursangiz,
Qoraqosh yaqinroqdur bilsangiz,
Borursuz yuzni elchi bursangiz,
Ikkisin to'qquz putoy⁴⁰ miqdor etay.

Qoraqosh tomon borib netdim man,
Deb Ilji tarafga ketdim man,
To'qquz soat uzra Eron yetdim man,
Ko'rganlarim endi bir oshkor etay.

⁴⁰ Uzunlik o'lchov birligi. Taxminan 1 putoy – 500 metrga teng.





Xo'tan

Shahar ajoyib dilkusho,
Odamlari yengilnamo,
Har muyulishda doimo,
Tuproq to'zor ham zang ekan.

Atrof ajoyib sabzazor,
Bir ko'chasi ulkan bozor,
Kimki nima bo'lsa sotar,
Dalloli ham kattang ekan.

Narsux kabi har mevakim,
Tushmay o'tub qildim alam,
Olma, anor o'rniga ham
Bog'da tang va zang ekan⁴¹.

Ozodadin to'pori ko'p,
Dukchisidin attori ko'p,
Choyxo'ridan ko'knori ko'p,
Bir rasta nos-u bang ekan.

Ayvonchalar misli katak,
Bir, ikki odam siqqudek,
Tomlarida chit, xo'yla bilak,
Bozori tor-u tang ekan.

Odamlari molga havas,
Ko'chalari baland-u past,
Ko'zlarga urgay xor-u xas,
Chiqsa shamoli zang ekan.

⁴¹ Bu misralar Muqimiyda ham bir xil





Xuftanda tushsam bir do'kon,
Qildi ashula bir juvon,
Oldi dutor qo'lga shu on,
Yangrorida xush ohang ekan.

Saroyda yotgan uch yigit,
Zanjirda boqqan katta it,
Uxlatmadilar bir minut,
Tong otquncha vang-vang ekan.





PIRIMQUL QORI ANDIJONIY

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan o'zbek shoiri, imom, ma'rifatparvar ijodkor.

Pirimqul Qori Andijoniy — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan taniqli o'zbek shoiri, diniy arbob va ma'rifatparvar insonlardan biri hisoblanadi. U 1883-yilda Andijon shahrida, ziyoli oilada – Mulla Ibrohimning xonadonida dunyoga kelgan.

Ilk savodini o'sha davrda keng tarqalgan eski usuldagi maktablarda chiqargan, shuningdek, otasi — Mulla Ibrohimdan ham ta'lim olgan. Keyinchalik u diniy va dunyoviy bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida Buxoro madrasalarida o'qigan, bu esa uning tafakkuri, diniy saviyasi va adabiy didining shakllanishida muhim rol o'ynagan. XX asrning avvalgi choragida Pirimqul Qori Shinjong (Xitoy)ga hijrat qilgan va u yerda, xususan Cho'chak shahrida yashab, diniy va ma'rifiy faoliyat olib borgan. U Cho'chakdagi masjidlardan birida imomlik qilgan. Bu haqda mashhur tatar tarixchisi va olimi Qurbon Valiy Xolidiy o'zining "Tavorixi xamsa" asarida alohida to'xtalib o'tadi. Bu ma'lumotga tayansak, Pirimqul Qori 1905–1906-yillarda Cho'chakda imomlik qilgan bo'lib, u yerda diniy-ma'rifiy faoliyat bilan birga, adabiy ijodni ham davom ettirgan. Pirimqul Qori o'z asarlarida Sharq mumtoz she'riyati an'analariga tayangan holda g'azal, muxammas kabi an'anaviy janrlarda ijod qilgan. Uning asarlarida axloqiy poklik, ma'naviy komillik, diniy-falsafiy mulohazalar yetakchilik qiladi.

Shoir o'z g'azallarida Allohga muhabbat, tasavvufiy tushunchalar, dunyo hayotining o'tkinchiligi, nafsga qarshi kurash





kabi mavzularni kuylaydi. Uning ba'zi g'azallarida ishqiy lirika, tasavvufiy ohang va axloqiy pand-nasihath uyg'unlashgan holda ifoda etilgan.

Pirimqul Qorining bir qator she'riy asarlari 1908–1913-yillar oralig'ida Toshkentda nashr etilgan “Armug'oni xislat” nomli she'riy to'plamda chop etilgan. Bu to'plam o'z davrida ma'rifatparvarlik ruhidagi adabiyot namunasi sifatida qadrlangan.

Hozirda mazkur to'plamning asl nusxasi Shinjong Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi Millatlar Adabiyoti Institutining kutubxonasida saqlanmoqda. Ushbu to'plamda Pirimqul Qorining bir necha g'azal, muxammas va hikmatli she'rlari jamlangan bo'lib, ular o'zbek mumtoz adabiyoti an'alarining Shinjonda davom etishiga xizmat qilgan muhim manbalardan biridir.

1938-yilda Pirimqul Qori haj safariga otlangan. Afsuski, u bu safardan qaytishda yo'lda vafot etgan. Uning dafn etilgan joyi aniq ma'lum emas, biroq rivoyatlarga ko'ra u hajdan qaytishda, safar ustida olamdan o'tgan. Pirimqul Qori Andijoniy — o'z davrining diniy ulamosi, shoir, ma'rifatparvar va muhaqqiq insonlaridan biri bo'lib, uning hayoti va ijodi o'zbeklar va uyg'urlar o'rtasidagi madaniy aloqalarning ifodasi, Shinjondagi o'zbek adabiy merosining muhim sahifasidir.

Mumtoz adabiyotda kam uchraydigan she'riy shakl – ruboiyga ham qo'l urgan.

*Bazm etmakka bog' ila bahoron yaxshi,
May ichmakka mavsumi guliston yaxshi,
Bulbulsifat oldida fig'on etmakka,
Bir orazi gul, lablari xandon yaxshi.*

“Bazm etmakka bog' ila bahoron yaxshi,” Bu yerda bahor fasli va bog'-rog' – shodlik, zavq, yasharish va go'zallik manzarasi sifatida tilga olinadi. “Bazm” – bu ziyofat, majlis, to'y, ruhiy ko'tarinkilik ramzi.





Shoirlar ko'ra, bazm (ya'ni go'zal davra) qurmoq uchun aynan bahor va bog'ning uyg'unligi eng ma'qul. Chunki bahor – hayotning uyg'unlash fasli.

Uning ijodi hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, mavjud manbalar asosida uning adabiyotda chuqur iz qoldirgan ijodkor, ma'rifatparvar va diniy arbob bo'lganini ishonch bilan aytish mumkin.

“May ichmakka mavsumi guliston yaxshi,” Bu misrada may ichish – ruhiy extijoj, ilhom, zavq ramzi sifatida berilgan. Shoir jismoniy emas, majoziy mayni – ilhom, sevgi, hayot shavqini nazarda tutmoqda. “Guliston” – go'zallik timsoli bo'lib, go'zallik og'ushida hayot shirinroq degan fikr mavjud. May ichish (ya'ni ilhomlanish, kayf surish) uchun eng mos joy – guliston, ya'ni go'zal tabiat qo'ynidir.

“Bulbulsifat oldida fig'on etmakka,” Bu yerda bulbul – shoir obrazidir. U gullar og'ushida fig'on soladi, kuylaydi, dardini aytadi. Shoir o'zini bulbulga qiyoslab, go'zal oldida fig'on qilish, ya'ni dil izhor qilish, muhabbat ifoda etish — uning vazifasi, ehtiyoji ekanini aytmoqda.

Muhabbat azobini chekayotgan lirik qahramon, ya'ni bulbul, o'z dardini fig'on bilan ifoda etadi.

“Bir orazi gul, lablari xandon yaxshi.

Bu misrada lirik qahramon go'zallikning eng oliy namunasi – bir go'zal yuz (guldek yuz) va “kulib turgan lab (lablari xandon)”ni maqtaydi.

“Oraz” – yuz, chehra, “lablari xandon” – kulib turgan lablar. Shoir nazarida bu dunyodagi barcha go'zalliklar ichida gul yuzli, kulib turuvchi mahbuba eng aziz va mukammal sanaladi.

Bu ruboiy muhabbat, ilhom, go'zallik, tabiat va san'atning yuksak uyg'unligini ifoda etuvchi mumtoz lirika namunasi. Shoir hayotdan zavqlanish, muhabbatni ardoqlash va tabiat og'ushida ilhom olishni orzu qiladi. Undagi har bir obraz, mavhum tushunchalarning go'zal timsollaridir.





Pirimqul Qori she'rlaridan

Doim sani g'aming bilan holim xarobdur,
Topmay visoling, ey sanam, qonim sharobdur.
Hajring o'tida o'rtanib bag'rim kabobdur,
Rahm etmasang bu jonima qattiq azobdur,
Qilg'il nazzora holima mandin xitobdur.

Kelgil yonimg'a, ketmagil mandin yiroq qochib,
Bergil zakoti husnunga bobi karam ochib,
Sirringa mahram bo'lgil, labdin guhar sochib,
Rahm aylagil g'aribingga san borchadin kechib,
Ko'rsam agar muruvvating shayxim shabobdur.

Gul ochilur gulshandakim bulbul navosidin,
G'amgin ko'ngul faroh to'ti sadosidin,
Husnung kamola yetkusi oshiq duosidin,
Oshiqclaring umid etar, vading vafosidin,
Kelgil doim xush aylag'il ayni savobdur.

Berdim ko'ngilni ul kuni o'z dilbarim dedim,
Ikki ko'zumni nuriyu toji sarim dedim,
Zulmat sahbning mohiyu ham axtarim dedim,
Dardu g'amingning zahrini man kavsarim dedim,
Oxiri damida yig'layub chashmim pur obdur.

Yo'q sabru toqatim oydek yuzung ko'rub,
To'ysam edi jamolonga bir dam o'zing ko'rub,
Daf'iy humorim aylasam, shahlo ko'zung ko'rub,
Shakkar albingdin, ey pari, bo'sa qilib so'rub,
Mandin hamisha orzu, sandin itobdur.





Avvalda jilvalar qilib, oxir sitam nadur,
Kelmay qoshimg'a bir yo'li, manga bu g'am nadur?
Dog'i g'amingda jismima mundoq alam nadur?
Qori Piring'a vaslingni qilsang karam nadur?
Arzi dilimning sharhidin bu bir kitobdur.

Nolash Pirim Qori Andijoniy

Dilo, ming umr ko'rsang, bir kun o'lgoninga arzirmu?
Gul umring ochilmay, g'uncha so'lgoningga arzirmu?
Tegib oxir xazon yanglig' tugulganingga arzirmu?
Suyaking bandi-bandidin so'kulganingga arzirmu?
Latif jisming qora yerga ko'mulganingga arzirmu?

Tushib boshinga davlat soyasi, shohi jahon o'lsang,
Minibon saltanat taxtin, necha yillar amon o'lsang,
Adolatda bo'lub, manzuru maqbuli zamon o'lsang,
Hukumat kayfidin masururu chindin shodimon o'lsang,
Qo'lingdin ketsa davlat qilg'on armoningga arzirmu?

Hayotingni g'animat bilmayin, hirsu havo izlab,
Yurursan ayshu ishratlar bila yuz muddao izlab,
Quvonub holu mulkungg'a ajab faxru bino izlab,
Qo'lingg'a qaysi yerdin xok olsang kimyo izlab,
Hisob vaqtidaki qilg'on pushaymoningg'a arzirmu?

Sanga bo'lsa hamisha Hizr ila Ilyos rahbar,
Muyassar bo'lsavu, kirsqa qo'lingg'a lal ila gavhar,
Mashomi jong'a yetsa, bo'yi mushku va yo anbar,
Sururidin yosharsang, har giz ul may holating abtar,
Ketar vaqtida qilg'on ohu afg'oningg'a arzirmu?





Yurursan toki o'zni bu fanoda sarafroz aylab,
Sanga Nuh umrini bersa, Xudo umring daroz aylab,
Kelur qoshingga Azroyilki bir kun jilvasoz aylab,
Olur ul jon qushin monandi lochin sayirboz aylab,
Berurda joni shirin, talhiyi joningga arzirmu?

Sulaymondek minib taxt uzra olam aylasang javlon,
Va yo misli Humo parvoz etib suyi samo tayron,
Minib ham asb toziylar yugursang har taron har on,
Topib izzu a'lo el ichra sursang bu qadar davron

...⁴²

Yotur bo'lsang hamisha masnadi ayshu farog'atda,
Turar bo'lsa aziz joning hamon oromu rohatda,
Kelur bo'lsa nidoyi, hotifi subhi Qiyomatda,
Tavohhumdin hama o'z holig'a ohu nadomatda,
Hijolat tarig'i g'arqob bo'lg'oniga arzirimu?

Kiromon kotibin qilg'on gunohingni butar bo'lsa,
Berurda nomayi a'molingga chapdin tutar bo'lsa,
Qo'rub, mizon o'shul kunkim sirot ko'pruk o'tar bo'lsa,
Gunohing shumlig'idin jismu jon davzah ketar bo'lsa,
Tamug' ichra kirib bir lahza kuygoningga arzirmu?

Dedi: "La tafnatu min rahmatulloh" Tangiri-yu bori,
Xabardor ul oning mazmunidin uzma umid tori,
Magar bo'ldi hama gumrohlarga lutfi jabbori,
Gunah loyig'a botqon, sharmakin xasta Pirim Qori,
Bu dunyo lazzati diydori saning joningg'a arzirmu?

⁴² Asl nusxada bu misra tushib qolgan "armug'oni xislat" 75-bet





Ruboiyoti Pirim Qori Andijoniy

Bazm etmakka bog' ila bahoron yaxshi,
May ichmakka mavsumi guliston yaxshi,
Bulbulsifat oldida fig'on etmakka,
Bir orazi gul, lablari xandon yaxshi.

* * *

G'aribingman umidim bir o'zingdin doimo, yo Rab,
Ki sandin o'zga yo'q man xastag'a pesh-u panoh, yo Rab,
Alamkinman⁴³, sitamkinman ajab afkanda g'amkinman,
Gunohimdin juduksinman, ishimdin dil siyoh, yo Rab.

Xudovando, sening ismingni G'affor Zunun derlar,
Ichib kon karam lutf et manga avf-u ato, yo Rab,
Gado holig'a adabtur tavozzu' birla turmoqlig',
Hamon deb shayulloh ayla hojatni ravo, yo Rab.

Gadolar ismini tuttum meni zinhor rad qilma,
Yotibman dargohe ollingda man ham bir gado, yo Rab,
Yigitlik fursatida qilmadim oh-u nadomatlar,
Na sud emdi qarib ko'nglum chekar dod-u fig'on, yo Rab.

O'shul ro'ze jazoda qilmag'il sharmanda miskinni,
Bahaqqi, sayidul kunni ins-u jon, yo Rab...⁴⁴

⁴³ Alamkin – alam chekuvchi, jabrdiyda

⁴⁴ G'azalning oxiri manbada berilmagan.





TURG'UNJON RAHIMIY⁴⁵

(1887-1937)

Shinjong yangi zamon maorifi va hozirgi zamon o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, pedagog, shoir va dramaturg. Asl ismi Tug'ul Abdurahimiy bo'lib, "To'luyi" ("porlaguvchi" ma'nosida) deb adabiy taxallus qo'llagan. U 1887-yili Farg'onada tug'ilgan.

Turg'unjon Tulo'ye Shingjong yangi zamon maorifi va demokratik o'zbek madaniyatining taniqli vakillaridan biri. Fidokor shoir va dramaturg. Asl ismi Turg'unjon Abdurahim o'g'li, To'lo'iy uning taxallusi "porlaguvchi" ma'nosini bildiradi. Turg'unjon 1887-yil Farg'onada tug'ilgan. Farg'onadagi "Usuli Jadidiya" maktabida va madrasalarda o'qigan. 1914-yillar atrofida Shinjongga ko'chib kelib, Qashqar shahrining Andijon ko'chasida o'troqlashgan, shu yerda yashab ijod etgan. Bu yerdagi mahalliy ziyolilart bilan munosabati juda yaxshi bo'lgan. Davrdagi o'zgarishlarni tushungan va atrofda qilargalarga nisbatan ochiq ko'z bilan qaragan. 1937-yil vafot etgan. Turg'unjon 1920-1930 yillarda Qashqarda zamonaviy fanlarga ixtisoslashgan maktab ochib, o'zi o'qituvchilik qilgan.

⁴⁵ Shoirning ismi Tug'ul Abdurahimiy bo'lib, Qashqarga kelgandan keyin shu yerlik aholi chaqirishga qulay bo'lishi uchun uning ismini Turg'unjon deb atashgan. Qodir Akbar tuzgan "Shingjon o'zbek adiblari" kitobida ham "Turg'unjon To'luyi" deb olingan. "Jungo' o'zbek adabiyoti tarixi" darsligida Shukur Yolqinning qo'lyozmalarini ko'rib chiqib, uning 30-yillardagi o'zbek shoirlari haqida yozib qo'ygan bir necha sahifalik eslatmalarida (tazkirasida) Tug'ul Rahimiy deyilgan. Shukur Yolqin har holda o'zi bilan zamondosh bo'lgan hammaslak, hamfikir, yaqin munosabatda o'tgan kishining ismini xato yozmasa kerak. Hurmatjon Fikrat darslikda shu manbalarga tayanib shoir ismini Tug'ul Rahimiy deyishni ma'qul ko'rgan.





30-yillarga qadar ilk mashqlari havaskor ruhda bo'lib, 1937-yilgacha har xil mavzularda she'rlar yozgan. Shuningdek, uning hajviy she'rlari xalq ichiga keng tarqalgan va og'izdan og'izga ko'chgan. Uning ba'zi she'rlari 1935-yil nashr qilingan, Qashqar gazetada e'lon qilingan. 1934-1936-yillari Qashqarda ishdan sirtqi teyatr guruhi tashkillab, drammachilik bilan ham shug'illangan. "Gos boy" (1935), "Halima" (1936) kabi drama va komediyalarni sahnalashtirgan. O'z vaqtida shoir va dramaturg Shukur Yolqin kabi ijodkorlar bilan ham ijodiy munosabatda bo'lgan. Uning asarlari ayni zamonda xalqni yangilikka, ma'rifatga undash, eski qaramlik odatlarini tanqid qilib, demokratik g'oyalarni targ'ib qilish xarakterida bo'lib, jamiyatga ma'lum ta'sir ko'rsatgandi.

U O'zbek hajviy she'rlarida bo'lganidek, mutaassib tabaqa vakillarini ayovsiz "qamchilagan". Ularning kirdikorlarini, qorinqursoq yo'lidagi manfur ishlarini tanqid ostiga oladi:

*Eri o'lgan boy xotunlarni olib, davlat ko'rub
Beva-bechoralarni ezishtur odatim.
Ey To'luyi, xoma chekmaktin o'zingni saqlagil
Hajv-u tanqid birla o'zgarmas mening odatim.*

Shukur Yolqin⁴⁶ning guvohlik berishicha, shoir shu she'rida o'zining she'riyatda ham bir muncha talanti borligini ko'rsatgan va xalq tomonidan o'zining chinakam shoir deb e'tirof etilishiga sazovor bo'lgan. Shoir Turg'ul Rahimiy aruz vaznini puxta o'zlashtirish bilan birga yana yangicha hijo vazni she'riyatda qo'llab, xalqona musiqiy ohangdoshlikka yaqin she'rlar yozgan.

⁴⁶ Taniqli uyg'ur shoiri, maorifchisi. Abdushukur Muhiddin o'g'li Yolqin 1918 yil 8 noyabrda Toshkentda, ma'rifatparvar tabib oilasida tug'ilgan. Otasi Muhiddin hoji arab, fors, urdu tillarini yaxshi bilar, uyida tez-tez adabiy kechalar tashkil qilib turar edi. Oila muhiti yosh Abdushukurda adabiyotga qiziqishni kuchaytiradi, u arab imlosidan lotin imlosiga o'tish davridagi munozaralarda faol qatnashadi. Shukur Yolqin 1945 – 1955 yillarda Shinjon Pedagogika institutida o'qituvchi, Shinjon xalq nashriyotida muharrir, 1957 yildan Shinjon Yozuvchilar uyushmasining poeziya va dramaturgiya bo'limi mudiri bo'lib ishlaydi.





Hatto uni dushman sifatida ayblab otishga sayilga chiqqanda oddiy barmoq vazni bilan yozgan she'ri bunga yorqin misol bo'la oladi:

*Toshdan toshga hatlab oqqan zilol suv
Ortushlikning toshlariga qon berar ekan
Shu toshlardan hosil olib, ortushlik mangu,
Tosh bag'ridan avlodiga jon berar ekan.*

To'g'rul Rahimiy o'sha paytdagi ijtimoiy hayotdagi turli illatlarni, jumladan, kishilar o'rtasidagi salbiy munosabatlarni, adamchilik, kazzoblik, vafosizlik va pastkashliklarni ayovsiz fosh qiladi:

*Baxt agar, qaytsa kishidin bo'lg'usi ko'p xorlar,
Yetgusi qavm-u qarindosh, do'stidin ozorlar.*

*Sanga jon qurbon qilay deb yor bo'lg'onlar u chog',
Teskari yuz ko'rsatib sendin bular bezorlar.*

*Ey falak, bo'lding Rahimiyga rahm qilmas bugun,
Marhamatga yetdi rahm sizlar-u g'addorlar.*

Bundan tashqari shoir Tug'rul Rahimiy sof insoniy muhabbat, pok ishqni kuylaydigan bir qator lirik she'r, g'azallar ham yozgan bo'lib, uning bir qismi 1935-yili "Qashqar gazetisi"da e'lon qilingan, qolgan she'rlari esa 1937-yili shoirning tutqun qilinishi bilan yoqib yuborilgan.

Tug'rul Rahimiy – XX asr boshlarida Yettisuv va Shinjongdagi jadid maktablari tarixida alohida o'rin tutgan, zamonaviy ta'lim tarafdori bo'lgan yirik ma'rifatparvar o'qituvchi va tashkilotlardan biridir. U yangi zamon o'qitish usullariga ochiq ko'z bilan qaragan,





qadimgi uslubda o'qitiladigan maktablarning o'rnini yangicha, fan asosida tashkil etilgan maktablar bilan almashtirishga butun vujudi bilan bel bog'lagan. Yangi zamon maorifiga ochiq ko'z bilan qaragan, zamonaviy o'qitishni bajonidil qabul qilgan Tug'ul Rahimiy ma'rifatparvar pedagog sifatida jonkuyarlik qilgan. Butun vujudini ilm-ma'rifatga bag'ishlagan fidoiy, tajribali o'qituvchi, mohir pedagog bo'libgina qolmasdan, insoniylik jihatdan hurmatga sazovor xarakter sohibi bo'lgan: kichik fe'l, samimiy, xushchaqchaq kishi edi. U duch kelgan muammolarni, hayotiy masalalarni kulgu, hazil-mutoyiba bilan hal qilib, dilozorlikdan o'zini saqlagan. Bunga misol tariqasida Qashqarda qurilgan ilk yangicha maktabni qiziqish bilan ko'rishga keladiganlar ko'payib ketib, bolalarning o'qishiga halaqit berayotganida, maktab mudir bo'lib ishlayotgan Tug'ul Rahimiy ilm dargohning darvozasi oldiga bir lavha o'rnatib, unga quyidagicha she'rni yozib qo'ygan ekan:

*Kelsangiz maktabni ko'rmakka, aziz mehmonlar,
Beijozat kirmangiz, ey sohibi vijdonlar.
Chunki istiqbolingizdan bexabar bo'lsak agar,
Siynamizda qolg'usidur bir necha xil armonlar.*

Albatta, bu so'zlarni oqigan tashrif buyuruvchilar istihola qilib, ruxsat bilan ichkariga kirganlar.

Shoirning bolalar uchun yozgan she'rlarining ko'pi o'sha davrdayoq musiqaga solinib, o'quvchilar tarafidan sahnalarda ijro etilgan. Adib yana 1934-36-yillarda Qashqarda pedagoglikdan tashqari teatr ishlariga ham jonbozlik ko'rsatadi, alohida guruh tashkil qilib, dramachilik bilan ham shug'ullangan, sahna asarlari uchun o'zi pyessa yaratgan. Uning dramalari Shinjong o'zbek adabiyotida emas, balki shu yillardagi uyg'ur teatr madaniyati rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Muallifligida yozilgan "Oyxon" dramasi, adib vafotidan keyin sahnalashtirilgan.





Tug'rul Rahimiy o'zining sherlari, sahna asarlari, maorif jonkuyari sifaridgai faoliyatlari bilan Shingjon hozirgi zamon o'zbek adabiyoti va maorifning shonli sahifasini yoritgan ziyoli inson edi. Uning atrofidagi hamfikir, hammaslak do'stlari, jumladan, Shukur Yolqin kabi ijodiy hamfikir ziyolilari ko'p bo'lgan. Shu yillarda Qashqarda adabiy ijodiyotgan kirib kelgan Abdushukur Muhiddin, ya'ni Shukur Yolqin Qashqardagi uyg'ur o'zbek adabiyot havaskorlari bilan hamkorlashib bir qator sahna asarlarni hammualliflikda tayyorlagan.

Tug'rul Rahimiy 1936-yili Qashqarda "Gulniso" nomli hikoya yozib, jamoatchilikka e'lon qilgan. Afsuski, bu asar bilan tanishish va izlab toppish imkoni bo'lmadi.

O'sha davrda o'quvchilar uchun saf qo'shiqlarini yozgan. Afsuski, shoir asarlarining qo'lyozmasi nobud bo'lib ketgan, uning ba'zi asarlari xalq ichida hali ham saqlanib kelmoqda. Turg'unjon To'lo'yi ijodiy faoliyati haqida 1983-yili Shinjong millatlar adabiyoti ilmiy muhokama yig'inida ham qator ilmiy chiqishlar qilingan.⁴⁷

Turg'unjon Rahimiy she'rlaridan

Baxt agar qaytsa kishidin bo'lg'usi ko'p xorlar,
Yengusi qavmu qarindosh, do'stdin ozorlar,

Senga jon qurbon qilay deb yor bo'lganlar uchog',
Teskari yuz ko'rsatib sandan bular bezorlar,

Dal kecha parvonadek o'tingda kuygan nechasi,
Endi o'tti kuydirib, senga bo'lur xunxorlar,

⁴⁷ Abdug'ani Xasan Shingjong hozirgi zamon O'zbek adabiyoti vakillari haqida. (uyg'urcha) Shinjong ijtimoiy fanlar akademiyasi millatlar adabiyoti instituti ilmiy xodimi Turg'unjon asarlarini to'plab tadqiq qilmoqda.(Sh.K.)





Hammadan qilgay alam sandin madad kutgan kishi,
O'zgarib darhol bo'lar senga nasihatkorlar.

Ey falak, bo'lding Rahimiyga rahm qilmas bugun,
Marhamatka yettilar berahmlar g'addorlar.

1934-yil Qashqar

To'rtlik

Toshdan toshga sakrab tushkan oqqan zilol suv,
Tog'lardagi toshlarga qon berar ekan
Shu toshlardin husul olib ortushliq mangu
Tosh bag'ridin avlodiga jon berar ekan.

1935-yil

Hoji Muhiddinga hajviya

Hoji Muhiddin hojiman olamda bordur shuhratim,
Non yemas, mumsik la'imlik birladur ul viloyatim,

Man na deb Hazratka maktab solg'ali pul sarf etay,
Mahv o'lur molu a'molim hamda shonu shavkatim.

Eri o'lgan boy xotunlarni olib davlat ko'rub,
Beva-bechoralarni zorlatishtur odatim.

Ey To'lo'yi, xoma chekmakdin o'zungni saqlagil,
Hajvi tanqid birla o'zgarmas mening bu niyatim.





NASRULLOH QORI FARXATIY

Farxatiy taxallusi bilan ijod qilgan shoir, bastakor, pedagog Nasrulloh Qori hozirgi zamon Shinjong adabiyotining asoschilaridan biri va tanilgan namoyondasidir. Shoirning asli ismi Nasrulloh Qori Ne'matillo o'g'li bo'lib, 1906-yili Toshkentda tug'ilgan. U 12 yoshga kirgan yili, ya'ni 1918-yili otasi olamdan o'tadi. Nasrullohni tog'asi o'z himoyasiga olib, ilk maktabda o'qitadi. Shoirning tarjimai holi haqida to'xtalganlar uning Toshkentdagi mashhur Ko'kaldosh madrasasida ilm tahsil qilganligini qayd qilishadi.

Darvoqe, shoir she'r va asarlarining birining bosh betiga o'z qo'li bilan yozib qoldirgan nihoyatda qisqa tarjimai holidan o'zining tog'asining himoyasida 19-yildan 24-yilgacha eski maktabda o'qiganligini yozadi. Farxadiy ijodiyotidan aniq ma'lumki, u Miskin taxallusli shoir bilan yaqin bo'lib, uni ijodda ustun tutgan, ustoz deb bilgan. U Shinjongga kelgandan keyin ham, u bilan xat yozishgan. Ustozining vafot etgan xabarini olgandan keyin qattiq qayg'urib, unga atab marsiya yozgan. Shoirga ustoz bo'lgan Miskin taxallusli ijodkorning asl ismi G'ulom Jalil Toshmuhammad o'g'li bo'lib, toshkentlik edi. U ham bir muddat Ko'kaldosh madrasasida o'qigan. Agar bu nuqtayi nazardan olinsa, Nasrullohning Miskin bilan tanishgan vaqtlari Ko'kaldosh madrasasida tahsil olgan paytlariga to'g'ri kelishi mumkin. Nasrulloh ham xuddi ustoziga o'xshab, bolalikdan adabiyotga kuchli ishtiyoq bog'lagan, xat tanigandan boshlab har xil bayozlarni o'qib, she'rlarni yodlashga kirishgan.





Shoirning bir she'r daftariga XVIII-XIX asrda o'tgan shoirlarning she'rlari ko'chirilgan bo'lib, ularning ichida Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Huvaydo, Hilvatiy, Muqimiy, Furqat, Haziniy, Miskin, Zavqiy, Mahzun, Akmalxon, Rojib, Gulshaniy, Fazliy, Kotib, Noqis, Yusuf, Nodir va hatto hozirgi zamonga tegishli shoirlari Hamza Hakimzoda, Xurshid, G'ulom Zafariy, Sobir Abdullalarning she'rlari ham uchraydi. Ehtimol, shoir o'zi yaxshi ko'rgan shoirlarning she'rlaridan namunalarni ko'chirgan bo'lishi ham mumkin. Bularning orasida Navoiy, Qozi, Muqimiy, Furqat, Miskin kabi shoirlarning she'rlari eng ko'p ko'chirilgan bo'lib, eng ko'p she'riyatga havas qo'ygan Nasrulloh uchun ustoz bo'lganligi, shubhasiz. Ammo shoir ko'proq buyuk salaf ijodkor Navoiydan ilhom olgan, o'rgangan. Navoiy g'azallariga yozgan muhammaslari hatto Navoiydan tazmin, Navoiydan taqlid, Navoiydan o'xshatmaga o'xshash mavzularda yozilgan ko'plab she'rlari shundan darak beradi. U Bobur she'rlaridan ham juda ko'p oziqlangan bo'lib, ularga taqlid qilib ham bir qancha she'r yozgan. XIX asrdagi shoirlardan Muqimiy ijodiyoti shoir uchun she'riyat maktabi bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoir arab, fors tillaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Buni shoirning hozirga qadar matbuotda e'lon qilingan she'rlaridan ham, masalan, "O'zgradur", "Bo'lgaymi, bo'lmagay", "Kelmadi", "Arz etaymi etmay", "Oldirish" va boshqalardan bilish mumkin. Shuningdek, shoirning she'rlari, uning ijodiyoti haqida kengroq tushuncha hosil qilish ehtiyoji bilan undan meros qolgan qo'lyozma holatdagi she'r daftarlarini ko'rib chiqish jarayonida shoir she'rlarining ba'zi betlariga forscha yozilib, ko'chirilgan she'rlar uchraydi. Bularning ko'pi Sa'diy, Rumi, Hofiz, Fuzuliy ijodidagi mashhur yoki shoirga ma'qul baytlari bo'lishi ham ehtimol. Ehtimol, shoir fors tilida she'r yozishga urinib boqqan bo'lishi ham mumkin. Bu keyingi tadqiqotchilarimiz uchun yana bir ilmiy muammo bo'ladi. Shoir 1924-yil Toshkentda vaqtda ijod qilgan asarlaridan "Izlamas" radifli she'rining oxirida shundoq yozilgan edi:





*Farhato, "Bo'ston", "Guliston" din shavq olg'on kishi
Ikki gulshandin bo'lak sayri guliston izlamas.*

Demak shoir ijodiyotga kirishishdan ancha avval forschaning yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, buyuk fors mutafakkiri Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston" asarlari u uchun yod bo'lib ketgan edi. Daftardagi ba'zi she'rlarning yoniga Sa'diy she'rlari forschasini yozib qo'yishi ham, balki Sa'diy hikmatlarining o'zlashtirma qilinganligiga ishoradir. Farhatiy she'rlarida alohida yo'nalishni tashkil qiladigan pand-nasihati ya'ni didaktik mazmundagi she'rlarning ko'p bo'lishi ham ma'lum ma'noda olganda Sa'diy ijodining ta'siridan bo'lsa kerak. Shoir 1925-yil qarindoshlarining yordami bilan sartaroshning qiziga uylanadi va ikki yilcha tirikchilik ehtiyoji bilan tog'asining Oloy va Tolchuk bozorlaridagi yoyma do'konlariga qarashib turadi. U 1926-yil qaynatasining maslahati bilan sartaroshlikni o'rganishga shogirdlikka kirib, toki 1929-yilgacha qaynatasidan sartaroshlikni o'rganadi. Hunarni o'rganib bo'lgandan keyin bir-ikki yil ko'chalarda sartaroshlik qilib yurib, 1930-yil o'zi alohida do'kon ochadi. 1932-yilgacha shu do'konda o'zi yolg'iz ishlab, vaziyat kun sari yomonlashyotgandan keyin, ilojisiz 1933-yil sentyabrda o'z tug'ilib o'sgan ona shahri Toshkentni tashlab, boshini olib chiqib ketadi. Ko'p mashaqqatlar bilan 1933-yili mayda G'ulja shahriga yetib keladi. G'uljadagi o'zbeklar bilan tanishganda, uning she'r va musiqa jihatdan talanti ularning diqqatini tortadi. G'uljadagi "Namuna" o'zbek maktabiga bastakor, shoirning so'zi bilan aytganda, ohang o'qituvchiligiga taklif qilinadi.

1935-yilda G'uljadagi o'zbek madaniyati oqartish uyushmasi qurilgandan keyin u uyushmaning san'at ishlariga faol qatnashib, uyushma tarkibida ishlaydi. Shoirning ayoli va bolalari Toshkentda qolgan bo'lib, ularni olib keltirish imkoniyati bo'lmagani tufayli, 1936-yil G'uljada payti ikkinchi marta uylanadi. Shoir G'uljaga





kelib, makonlashib qolgandan keyin ham xat orqali bo'lsa ham Toshkentdagi qavm-qarindoshlarining iz-daragini qilib turgan. Bu uning ustozlari Miskinning xatini olgandan keyingi yozgan "Keldi xat" she'ridan aniq ko'rinib turadi. Ushbu she'r shoirning ahvoloti haqida ham darak beradi.

"Keldi xat" Ustozim Miskindan xat olib:

Ey ko'ngul, xushlab qadrdon oshnodin keldi xat,
Tur, sadoqat chin ahli vafodin keldi xat.

So'zlari oromi dal maktubu go'yo marzi xat,
Ya'ni u lafzi shakar Shirin adodin keldi xat.

Bir jahon ma'no o'qitgay nomasin har nuktasi,
Zufunun hikmat talab aqlu rasodin keldi xat.

Bunchalik dilg'a farog'at etganin ko'rmadim,
Garchi qancha yor-u xush-u aqrabodin keldi xat.

Gulshani mehri vafodin chiqdi bu dostonkim
Xatti rayhon jomasi gul-u rayhondan keldi xat.

Ketgay ko'ngil ko'zqusini qoplagan zangori g'am,
Ishqi haq birla munavvar bosafodin keldi xat.

Naslidin nasliga ko'p nahli vafolar o'sturub,
Bog'i serhosil ulug' atodin keldi xat.

Farhatiy farhat g'azo maktub olib mundog' dedi:
Ey ko'ngil, xushlab qadrdon rahnamodin keldi xat.





Shoir Miskin o'z ijodiyotida Muqimiy, Furqatlar boshlagan yo'ldan borib, xalqni jaholatdan uyg'onishga chaqiradigan ma'rifatparlik ruhi bilan sug'orilgan she'rlari bilan o'zbek adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan shoir bo'lib, o'zbek xalqining XX asrning boshlarida bo'lgan milliy, ijtimoiy harakatning uyg'onishida muhim rol o'ynagan. U o'z she'rlaridan ikki devon tuzgan bo'lib, birinchi devon 1925-yilgacha chop etilgan she'rlarini o'z ichiga olgan. Keyingi she'rlari bo'lsa, ikkinchi devoniga kirgizilgandi. Farhatiyning Miskin she'rlarini yodda qolganicha daftariga xotirlab qo'yishi va uning she'rlariga muxammas yozgani, G'uljaga kelgandan keyin ham uning bilan aloqa qilib turganligi har ikkisi o'rtasidagi ustoz- shogirdlik munosabatlarining qanchalik chuqur ekanligidan darak beradi. Miskinning o'z tarjimaiy holini bayon qilib yozgan bir qism she'rlaridan hayotining bir qismi jafo, mashaqqatda o'tganligini bilish qiyin emas. Ehtimol, bu og'ir qismatlar shoirni bu bevafo dunyo bilan erta xayrlashishga majbur qilgan hamdir. 1957-yil olamdan o'tadi. Nasrulloh Qori ustozining musibat xabarini garchi kechikibroq eshitgan bo'lsa ham, o'z qayg'usini she'riy yo'l bilan izhor qilib, ustoziga marsiya yozadi.

Nasrullo Qori ko'p yillar O'zbek uyushmasida va "Namuna" maktabida o'qituvchi bo'lib faoliyat olib boradi. O'zi she'rlar yozib, bollar qo'shiqlariga mos ohangda kuyga solib beradi. Bu qo'shi'lar xalq orasiga tezda tarqaladi. Misol uchun:

*Kecham tong otti, turdum o'rundan,
Maktab sorig'a chaqqon borurman.
Darsimni yodlab, ko'nglumni shodlab,
Olmoqqa ilmu urfon kelurman.*

Shoirning o'sha paytlarda xalq orasida keng tarqalgan bir qator maktab haqidagi qo'shiqlari G'ulchada yashaganlar hozirgacha ham yodlab keladila:





Matbuot va maktab.

Biling, xalqim, jahonning joni matbuot bilan maktab
Xudoyimning buyuk ehsoni matbuot bilan maktab.

Ko'ringkim Yevropada ko'p taraqqiyga sabab ul
Ziyolilari, yoshlarning do'koni matbuot bilan maktab.

Nasrulloh Qorining ijodiyoti Toshkentdagi vaqtlarida boshlangan bo'lib, "Mulla to'qmoq", "Farhatiy" (shod-xurram, xushhol ma'nolarida) taxallusi bilan ijod qilib borgan. Qo'lyozmalari orasidagi she'rlarining ko'p qismi arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvida bitilgan bo'lib, yozilgan vaqti ko'rsatilganlaridan eng dastlabkisi 1924-yilga tegishlidir. Shoirning "Kerak", "Izlamas" radifli ikki she'rining ostiga *1924-yil Toshkent* deb yozilgan.

Axloq, odob, ilm-hunar, mehr-u vafo kerak
Ota-onang qarindoshing sandin rizo kerak.

Miskin boshing'g'a istasang do'st-u mehribon,
Ikki jahonda xoliqing qodir xudo kerak.

Insofu adlu bo'lmagan ulfatlaring qo'y,
Inson deyishga bo'lg'udek yor oshno kerak.

Nomus, uyatni tashlama saqla go'zalsifat,
Mo'min musulmon bandaga sharmu hayo kerak.

1924-yil Toshkent





*Qaro ko'ngillar jahonda to'g'ri vijdon izlamas,
E'tiqodi sog' kishilar soxta imon izlamas.*

*Farhato "Bo'ston", "Guliston" din saboq olgan kishi,
Ikki gulshandan bo'lak sayru guliston izlamas.*

1924-yil Toshkent

Ko'rinib turibdiki, shoir Nasrulloh Qori Farxatiyning adabiy ijodiyoti 1920-yillarning boshlarida boshlangan. Shoirning "Ichkuyovlik" deb nomlangan she'rining oxiriga 1930-yilda yaratilgan, shahri Toshkent deb yozilgan bo'lib, mazmuna olib qaralganda bu she'rning o'z kechmishi asosida xasbihol tarzida yozilgandek ko'rinadi:

*Meni ko'nglumda bordur behad armon ichkuyovlikdin,
Boshimda kulfat anduh chandon ichkuyovlikdin.
Sinibdur ming hasrat birla o'ttiz ikki dandonim,
Dilimdur g'uncha yang'lig' tabtaqon ichkuyovlikdin.
Jahon ichra ajal paymonasin ichmoq na yaxshiroqdur,
Ichar bo'lsang Xizrdek obu hayvon ichkuyovlikdin.*

Otasidan kichik yetim qolib, onasi boshqaga turmushga chiqqan bo'lib, tog'asining himoyasida qolgan shoir urug'-aymoqlarining yordami bilan uylangandan keyin, asosan, qaynotasi bilan birga turib, unga shogird bo'lgandan, boshqacha aytganda, qatnatasiga ichkuyov bo'lib qolgandi. Ehtimol, bu she'r shoirning shu chog'dagi kechmish ichki hissiyoti, hayoti tajribalari bilan bevosita bog'liqdir. Balkim shoirning ota shahridan bosh olib chiqib ketishi ham mana shu ichki hissiyotlari bilan qisman bog'liqdir. Shoirning Furqat g'azaliga taqlid qilib yozilgan





*Ey mehnat ahli, sizning har koringiz chiroylik
Baxtim kabi ochilgan gulzoringiz chiroylik⁴⁸*

Shoir Farxatiyning Toshkentda yashagan davriga taalluqli asarlari juda ham kam. Shoir G'uljaga kelgandan keyin u yerdagi o'zbek namuna maktabi va o'zbek oqartish uyushmasining xizmatlariga ishtirok etgandan keyin bir tarafdin maktab va uyushmaning san'at ehtiyoji, ikkinchi tarafdin o'zining ijodiy kuchi va tafakkuri shoirni tinimsiz ijod qilishga undagan. Shoirning bu yillarda bir tarafdin maktab o'quvchilari uchun, ularning yoshiga mos keladigan bolalar she'rlari, qo'shiq matnlari yozib, ularga ohang bastalab, yana bir tarafdin uyushmaning ishlari uchun qiz-yigit, ota-bola, ona bilan qiz birga aytib chiqadigan aytishuvlarining matnlarini yozadi.

Demak, Nasrulloh Qori Farhatiy G'uljada barakali ijod qiladi. Uning asarlari "Shikoyat", "O'qingiz", "Baxt nimadir", "Bizning tilak", "Qahramonlarga salom", "Yasha, oq yo'lim", "Muncha ham", "Arzimas", "Xoli umid", "Jaholatga qarshi", "Tengsizlikdan dod", "Eli o'zbeklar", "Nodon xotunlarga", "Taassuf", "Ichkilikka qarshi", "Ukam sizga nasihat", "Uyg'oning", "Yangi tilaklar", "Tanqid", "Yalqov bolaga nasihat", "Vatan", "Himmatga chaqiramiz", "Yaylov xotirasi", "Aqlg'a ishorat", "Nasihat", "Saodat ilmdadur", "Maslahat", "Mehnat va ish", "Duxtir bilan og'riq", "Orzu ham nasihat", "Nodon ota", "Shunchalar", "Biz va boshqalar", "Mayliga", "Muhtojlar", "Boy bo'lg'ondan so'ng", "Kambag'allar", "Nodon kelinimga", "Hikoyat", "Turmushimizga bir nazar", "Singlimg'a", "Haqiqat", "Uyg'on xalqim", "Yoshligim" nomlari bilan atalgan.

Farhatiyning she'rlari 30-yillardan boshlab Shinjongda matbuotda e'lon qilina boshlagan.

Ko'rinib turibdiki, Nasrulloh Qori Farhatiy ijodiyotining rivoj berishida ayni vaqtdagi G'ulja o'zbek "Namuna" maktabi va o'zbek

⁴⁸ "Chiroylik" radifli g'azali Toshkentdagi Sodiqov ijrosida 1935-yil O'zbekiston radiosida aytilgan.





oqartish uyushmasi ijodiyoti ham juda katta rol o'ynagan. Shoir G'uljaga kelgandan keyin ham, avvalo, o'zi tanish bo'lgan o'zbeklar turmushini tasvirlagan. Uning G'uljaga kelib bir necha oydan keyin "Mulla to'qmoq" taxallusi bilan yozgan "Tanqid" nomli she'ridan ham buni aniq ko'rsa bo'ladi:

*O'zbek xotin-qizlari ko'p nodondir,
O'qumasdin g'aflat aro qolg'ondir...*

*Opa-singillarim yaxshi bilishsun,
To'g'ri o'ylab insoflarga kelishsun.
O'quv-bilim uchun g'ayrat qilishsun
Nodon qolganlarning holi yomondur.*

*Bu so'zumga lablarini bursalar,
Meni qarg'ab yomonlashib yursalar.
Mayligadir meni yomon ko'rsalar,
Mulla To'qmoq degan shundoq yomondur.*

O'zbek xotin-qizlarining ilmsizligi, "o'quv bilimlarni aslo suymas"ligi,

"orzu-havas qancha bo'lsa to'yimas"ligi shoir yuragini og'ritadi, jaholatdan qutulishning yo'li ilm ekanligiga da'vat qiladi.

Shoir vujudini chirmagan millat sevgisi, xalqining holatini o'zgartirish, uni nodonlikdan, jaholatdan uyg'otish istagi uning ijodiyotida muhim o'rin tutadi.

U millatning vujudini chirmab olgan odatlar, ilmsizlik, nodonlikni uzluksiz qoralaydi. U oziga dastlab "Mulla To'qmoq" deb taxallus qo'llashida ham, balki millatdagi yaramas illatlar, nodonlik va jaholatga zarba berib charchamaydigan to'qmoq bo'lishni ko'ngliga tukkanligidan bo'lsa kerak. Adib asarlari kuchli tanqidiy xarakterda bo'lib, ma'rifatsizlik, nodonlik, jaholat, diniy xurofot, kishilik munosabatidagi sadoqatsizlik, mehrsizlik, manmanlik,





quruq safsatabozlik kabi shoir qalamga olib tanqid qilmagan, qamchilamagan boshqacha aytganda to'qmoq bilan urmagan mavzular qolmagan desa ham bo'ladi. Shoirning 30-40-yillardagi she'rlarining ko'p qismini mana shu mazmundagi asarlar tashkil qiladi. 1934-yillari yozilgan "Bezdim man" kabi she'rlarida ham shoirning g'oyaviy shu kabi qarashlari o'z ifodasini topgan:

*Zamonaga boqmagan, yangiliklar yoqmagan
Eskilikni yoqlagan nodonlardan bezdim man
Xalqi uchun kuymagan, dunyo yig'ib to'ymagan
Baxillikni qo'ymagan, boyonlardan bezdim man.
Oz nafsigga qul bolgan, fikri mol-u pul bo'lgan
Vijdoni ham shul bo'lgan, surbetlardan bezdim man.*

Shoir bazida hatto millatdagi bunday jaholatdan, nodonlikdan, inoqsizlikda bezor bo'lib hasratlanganidan o'zining ham shu millatning bir hujayrasi bo'lib qolganiga hasrat chekadi. Shoirning "O'zbek emasman" she'rida mana shu xissiyoti chuqur ifodalanadi:

*Ey o'zbeklar, muncha nodon ekansiz,
G'aflat girdobida qolg'on ekansiz,
O'z nafsingiz uchun qurbon ekansiz,
Qo'ying, o'z holima o'zbek emasman.*

*Bu zamonda sizda birlik, g'ayrat yo'q
Maktab-maorifga aslo rag'bat yo'q
Yetim-miskinlarga yordam shafqat yo'q
Qo'ying, o'z holima o'zbek emasman.*

*Choy-mashrab⁴⁹ga to'p-to'p bolib borasiz
Uyushmada majlis desa qochasiz*

⁴⁹ Coy-mashrab – uyg'urlarning marosimi, urf-odati, erkaklar yig'ini





*Qaysi millat sizlar kabi parvosiz
Qo'ying, o'z holima o'zbek emasman.*

*Qachongacha bu hol bilan yurarsiz
Toki g'aflat bila davron surarsiz
Nodonliqning jazosini ko'rarsiz
Qo'ying, o'z holima o'zbek emasman.*

*O'qursiz deb qancha so'zlar ayttim man
Uqtirolmay bu kunlarga yetdim man
Jahlim chiqib xafa bo'lib ketdim man
Qo'ying, o'z holima o'zbek emasman.*

Albatta, bu she'rning maydonga kelishida muayyan davr ijtimoiy kayfiyati sabablari bor: ayni yillardagi uyushma faoliyatlari jarayonida yozilgan edi. Bu fikrlari bilan shoir o'z millatidan kechayotgani yo'q, shu millatga mansubligidan orlanayotgan yo'q, balki mana shu yo'l bilan millatining bu holiga qattiqroq tegib, ularni o'zlari haqida mushohada qilib ko'rishlariga da'vat qilmoqda. Shoirning "Turmushimizg'a bir nazar", "Ili o'zbeklari", "Muncha ham", "Shunchalar", "Biz va boshqalar"(1935) kabi she'rlarida millat sevgisi tanqidiy yo'l bilan ifodasini topadi.

Shoir Farhatiyning ijodiyotiga umumiy jihatdan nazar tashlansa, u dastlab mumtoz she'riyat an'anasi bo'yicha ishq-muhabbat mavzularida qalam tebratgan bo'lsa, keyinchalik uning she'rlarida davr sadolari o'z aksini topa boshladi. Shoir zamon bilan hamnafas bo'lib, davr bilan teng borib, diqqat e'tiborini zamona uchun muhim bo'lgan aktual mavzularga qaratganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun uning asr boshlaridagi she'rlarida ko'proq millatning ijtimoiy ongini uyg'otib ularni ilmsizlikka, jaholatga qarshi kurashga chaqiradigan she'rlari asosiy o'rinda turgan bo'lsa, 30-yillardan she'rlarida dunyo xalqi uchun vabo bo'lib yetib





kelayotgan urushning insoniyat boshiga tushiradigan balo-ofatlari, fashizmning muqarrar mag'lub bo'lishiga ishonchi ifodalangan she'rlari ko'proq o'rinni tashkil qiladi. Shuningdek, shoir she'rlarida vatanparvarlik mavzusi izchil o'rinda turgan bo'lib, u xalqini birdamlikka, ahillikka chaqiradigan jangovar she'rlarini yozadi. Xalqining o'ziga bo'lgan ishonchini, vatanparvarlik tuyg'ularining kuchayishida adabiyot, san'atning tengsiz kuchini namoyon qiladi. Keyinchalik yangi Jungo' qurilganidan keyingi ijodiyotida ozodlikdan tug'ilgan ilhom, hayajonlari, ijtimoiy hayotta yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar o'z ifodasini topadi. Bundan ko'rinadiki, shoir har zamon o'z davri bilan teng ilgari lab, o'z muhitida yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar, davrning talabini o'z ijodiyotning markaziga qo'ya olgan.

Nasrullo qori Farhatiy she'rlarini mazmun jihatdan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) An'anaviy mavzularda aruz vazni bilan yozilgan ishq-muhabbat mazmunidagi she'rlar. Bularga shoirning g'azallari, muxammas va munjojlari, fard va qit'alarini kirgizish mumkin. Bu turdagi she'rlar shoir ijodiyotida izchil davom qilgan bo'lib, "Jononlarga", "Havaskor va boshqalar", "Qarg'asa", "Naylayin". "O'rgulay" she'rlari ham shular jumlasiga kiradi. Shoirning davr yangiliklari, zamon hodisalariga bag'ishlangan she'rlari ham shakl jihatdan an'anaviy janrlar asosiy o'rinda tutgan. Bu shoir she'riyatda an'anaviy qoliplaridan chiqib ketolmagan degan tushunchani bermaydi. Albatta shoirning maktab bolalari uchun yozilgan she'rlari, qo'shiq matnlari bunga yaxshi misol bo'la oladi.

Shoirning "O'zgadur", "Bo'lgaymu bo'lmagay", "Aytaymu aytmay" va "Dildora", "Men kimga dey", "Falak" kabi g'azallari Navoiy, Bobur, Muqimiy, Miskin, Mahzun g'azallariga yozgan nazira va taxmislari shoir ijodiyotidagi mumtoz she'riyat an'anasining tipik namunalaridir.

Misol uchun, shoirning Navoiy g'azallariga muxammas nomli she'rini ko'rib o'taylik:





Qachonkim, orazin ko'rdim o'shal Laylinigorimni,
Yo'qotdim aqlu idrokim bila sabru qarorimni,
Bu yanglig' telbalandim tark etib nomus-u orimni,
Junun vodiysida moyil ko'rurman joni zorimni,
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zgorimni.

Havoyi ishq tug'yon etdi besabrur qaror o'ldum,
Zuloli vaslig'a lab tashnaligida zor-zor o'ldum,
Tanim cho'llar aro qoldi na bir qabru mozor o'ldum,
Falak bedodi birla garchi men xok-u g'ubor o'ldum,
Tilarmen, naf' topmag'aylar to'tiyoliqqa g'uborimni.

Na bo'lg'ay erdi yorim bir kelib ahvolim so'rsa,
Qili shirin takallum bir dam yonimda o'ltursa,
Tarahhum aylabon mushkul halokatdin qutultursa,
Yomon holimg'a ko'ngli ezilur har kim meni ko'rsa,
Bag'ri parkolasidin qong'a bulg'ongan uzorimni.

Mazolim ahlining oxir muzayyan maskani kuygay,
Sitamgarlik bila yig'qon muqantar⁵⁰ mahzani kuygay,
Necha iblispur talbasi mal'un rahzani kuygay,
Banogoh partavi tushgach uyi ham ravzani kuygay,
Go'ristonning gadoyi sham'i mozorimni.

Sitamgar charxi kajraftoridin boshimg'a yuz mehnat,
Jafosi daxrpur ozordin boshimg'a yuz mehnat,
Hujumi tana'yi ag'yordin boshimg'a yuz mehnat,
Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz mehnat,
Ne tong boshim olub ketsam qo'yub yoru diyorimni.

⁵⁰ Mahkam qilib berkitib qo'yilgan





Kel, ey bodi sabo, arzimni ul diyorima yetkuz,
Firoqi kunjida bundog' meni qoldurmasun yolg'uz,
Solib partav jamolidin yetursun umuma navro'z,
Tuganmish ashki gulgun emdi qolmish za'faron yuz,
Falak zulmi badal qilmish xazon birla bahorimni.

Jununim birla rasvoyi jahonman asru, ey soqiy,
Hamonakim go'zal yora yomonman asry, ey soqiy,
Bo'loy hajridin ozurda jonman asru, ey soqiy,
Hayotim bodasidin sargardonman asru', ey soqiy,
Qadahqa zahri qotil quy dag'i daf' et xumorimni.

Bo'lub ul laylivashning ishqida Majnun shior,
Alam dashtida yuzlandim qilib tarki diyor oxir,
Tugandi ishtiyokki, vaslida sabru qaror oxir,
Demang qay sori azm etkung, manga yo'q ixtiyor, oxir
Qazo ilgiga bermishmen inon-u ixtiyorimni.

Fano bo'lmay turub diyora yetmoq mumkin ermastur,
Anga ey Farhatiy, oshkora etmoq mumkin ermastur,
Aniq topmay unumlik chora etmoq mumkin ermastur
Jahon tarkini qilmay, yora yetmoq mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod, o'rtab yo'qu borimni.

2. Xalqni ilm-ma'rifat o'rganishga, zamonaviy ilm-ma'rifat o'rganishga, zamonaviy fanlarni egallashga da'vat qiluvchi ruhdagi ma'rifiy xarakterdagi she'rlari. Bu turdagi she'rlar Farhatiy ijodiyotida juda muhim o'run tutgan bo'lib, shoir xalqni ilm-ma'rifat etagini tutishga chaqiriq, nodonlikdan yiroq turishni uqtirish burchi deb biladi. Bu kabi g'oyaviy yondashuv ko'plab she'rlarida ochiqdan ochiq o'rtaga tashlanadi:





*Uyg'oning ahboblar, g'aflatda yotmoq shunchalar
Asirlar turli falokatlariga botmoq shunchalar,
Nokerak ishlarga doim hisobot ko'rsatib
Ilm o'rganmak uchun bizda uyonmoq⁵¹ shunchalar.*

*Kecha-kunduz bir-birimizga qilib makr-u firib,
Arzimas ishlar uchun vijdonni sotmoq shunchalar,
Molimizni doimo maktab maorifdin ayab,
Bo'lmag'ur yo'llarga sarf aylab, tugatmoq shunchalar.*

Shoirning maktab o'quvchilari uchun chaqiriq, xitob ruhidagi she'rlarida ma'rifatchilik ruhi yanada yorqin ifodalangan bo'lib, buning namunalarini yuqoridagi she'ri orqali anglash mumkin. Masalan, 1935-yil yozilgan "o'qingiz" nomli she'rlaridan parcha misolida ko'rib o'tsak:

*O'qug'onlar bu jahonda aysh-u rohatda,
Erkin turmush birla yashar ko'p farog'atda,
Nodonliqda qolg'onlarning holi yomondur
O'qug'onlar rohat o'ynab kular omondur.*

Shoirning yana shu yili yozilgan "Baxt nimadur?" she'rida bu fikri yana ham chuqurlashib, haqiqiy baxtning kaliti ilm, irfon egallash bilan qo'lga kiritilishi ifodalanadi:

*Molg'a mag'rur o'lon nodonlarning nodonidir,
Moyaiy⁵² g'aflatning ul bir notavon qurbonidir
Bu jahonda ilm-u urfon kamola yetkuzon
Kimsalar insoniyat dunyosinng sultonidir.*

⁵¹ Uyg'onmoq

⁵² Manbasi





Bu kabi ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlari orqali xalqning qoloqligi, qashshoqligining hammasi ilmga, maorifga e'tibor bermasligida deb baholanadi. Shuning uchun ham u millatning ertasi bo'lgan yosh avlodni maktabga, o'qishga da'vat qilib tolmaydi:

*O'qungiz o'bdon bolalar,
Qolmangiz nodon bolalar
Tirishib ey jon bolalar,
Bo'ling chin inson bolalar.*

3) Xalqning ruhiyatidagi nodonlik, jaholat kishamlarini parchalab tashlash milliy ijtimoiy ongni uyg'otish maqsadida yozilgan ijtimoiy-tanqidiy mavzulardagi she'rlar. Bu kabi she'rlar Nasrullo Qori Farhatiy salmoqli o'rin egallaydi. Sahna uchun yozilgan laparlarda (masalan, "Nodon ota", "Do'xtur bilan og'riq" va boshqalar) nodonlikning oqibati fojeaviy yakuni mahorat bilan ko'rsatiladi. Shoir "Jaholatga qarshi", "Nodon tabib hikoyasi", "Hikoyat", "Ichkilikdin shikoyat", "Boy bo'lg'ondin so'ng", "Kambag'allik" kabi ko'plab she'rlaridan tashqari maxsus "Tanqid", "Ijtimoiy tanqid" deb sarlavha qo'yib umumiu mavzu ostida "Xo'roz so'qishturg'uvchi⁵³ bola", "Bekorchi", "Bangi", "O'g'ri", "Qimorboz", "Dallol", "Qassob" kabi mavzularda bir turkum tanqidiy she'rlar yozgan.

Shoir jamiyatdagi turli salbiy illatlarni goh achinish, goh kulgu yo'li bilan hajv qiladi. Shoir 2936-yili yozgan "Jaholatga qarshi" she'rida xitob qilib, shunday deydi:

*Ey jaholat, ey nodonliq ket bizdan nari
G'afolat ichra bizni ezding ko'p zamonlari*

⁵³ Urushtiruvchi,





*O'zga millatlar o'qumoq birla uchdi havoga
Nodonliqdin bizlar qolduq sonsiz jafoga.*

1935-yili yozilgan tengsizlikdin dod she'rida bo'lsa, u ayollarning o'rnini naqadar pastda, naqadar tuban, huquqsiz ekanligi to'g'risida bir ayol tilidan shikoyat qiladi:

*Man kabi mazlumlar tortgan jafosin kim bilur,
Qayg'u hasrattin boshida mojarosin kim bilur?!*

*Ushbu ozodliq zamonda yo'qmi bizga hurriyat,
Bu ezilganlarni rangi qahrabosin kim bilur?!*

Shuningdek shoir millatning harobalshishidagi muhim sabablardan birini ichkilikbozlikda deb biladi va qator asarlarida sharobxo'rlikni qoralaydi, odamlarni undan yiroq yurishiga da'vat qiladi.

4) Davr sadosi, zamon hodisalari aks etgan zamonaviy ruhdagi she'rlar. Bu kabi she'rlarda Vatanga muhabbat, unga sadoqat bialn xizmat qilish motivlari yetakchilik qiladi. Bu davr adabiyoti uchun mushtarak bo'lgan mavzu xalqning vatanparvarlik ruhini uyg'otish, elga fidokorona xizmat qilishga chaqirishdan iborat bosh mavzu asosida yozilgan she'rlar ham yetakchi o'rin tutadi. Ular shoirning vatan, xalq bilan har vaqt, hamnafas, taqdirdosh bo'lib, yashaganligining ifodasio'laroq ko'zga tashlanadi.

5) Sharq she'riyatiga xos bo'lgan pand nasihat, didaktik xarakterdagi hikmatomuz she'rlar. Shoir bu turkum she'rlari orqali mumtoz lirikaning necha asrlik an'analarini axloqiy, ma'rifiy ruhda bardavom ettiradi. Misol uchun, "Ey o'g'lum", "Ey ukam", "Ey yoshlar", "Ey bolalar", kabi xitoblar bilan boshlanuvchi she'rlarida faqatgina o'sha zamon yoshlari uchun emas, balki kelajak avlod





uchun ham o'git-nasihath tarzida murojaath qiladi. Hatto "Nasihath"
deb atalgan turkum she'rlar yaratadi:

Doim, ey jonim ukam, ahvolingizga boqingiz,
Toki nochorlanmasun sizning go'zal ahloqingiz.

Nasihath

Fikr qil do'stim, qarab ko'p o'qug'onlari
Ilmdan qanot yasab uchmoqdadur osmonlari
Biz nechuk g'aflat aro qolduk botib armonlara
Emdi biz ham intulaylik ilm ila irfonlara
Tez zamon shoyadki yetsak davr ila davronlari.

Qo'zg'ol emdi ilm uchun, qardoshlarim, g'aflatni qo'y
Bo'lmag'ur ishlarg'a chekkan foydasiz zahmatni qo'y
O'qi yoshlik chog'ida boyvachchalik rohatni qo'y
Bu jahon ichra faqat dunyo yig'ish niyatni qo'y
Qil nazar yer ostida yotqon ulug' xoqonlari.

Aqlg'a ishorath

Har kishi doim tirishsa o'qumoqning yo'lida
Qolmag'ay hargiz jahonda qayg'u mehnath qo'lida.

6) She'riy maktublar, salomnomalar, shoirning ona yurtida
qolib ketgan qavmu qarindoshlari, ustozlari, yor-u do'stlarini
sog'inib bitgan arz-u hollari.

U o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga bo'lgan muhabbatini,
hijronini Vatanida qolgan onasini diydorini qayta ko'rishga bo'lgan
intizorligini, hatto qabrining tuprog'ini ko'ziga surtishga tayyor
ekanini chuqur sadoqath bilan ifodalaydi.





Shoirning bu turdagi she'rlari u Shingonga kelgandan keyin u yerdagi do'st-birodarva shogirt, muxlislari bilan yozishgan she'riy maktublarini ham o'z ichiga oladi. Bu she'rlari ham shoir ijodiyotida ma'lum o'rinni egallaydi. Masalan, uning bir she'riy maktubiga nazar tashlaylik:

...

Sog'indi jonim, talpindi qalbim
Bormoqqa Toshkand, Fag'onalarga
Ey Toshkand sari uchgan turnalar
Borsangiz maning Gulistonimga
Tong suzilganda, sahar bo'lganda
Salomlar ayting onajonimga.
"Yurtdin ayrilib bo'yni qisilgan
Bir qaro ko'zing salom aytdi" deng,
"Sog'inib seni qalbi ezilgan
Bir yetim qo'zing salom aytdi" deng.

Shoir "Onamga", "Onajonima"ga o'xshash ona sog'inchi, farzand qo'ri ifodalangan bir qator she'riy salomnomalar yozgan bo'lib, ularda ayriliq, sog'inch, ona mehri, farzandlik burchi kabi ohanglar aks etadi.

7) Sahna uchun mo'ljallangan she'riy asarlar. Bularga shoirning qo'shiq matnlari, diktomatsiya she'rlari va laparlarini kiritishimiz mumkin. Bu turdagi she'rlarning xalq falkloriga yaqinligi, xalq qo'shiqlari ohangdorligida yozliganligi bilan ajralib turadi. Hatto shoirning o'zi qaysi she'rni, qaysi xalq kuyida aytish mumkinligini bilib o'zi kuy bastalagan. Masalan, "Xonamizga" g'azaliga Xorazm kuyi tushadi deb yozsa, yana bir she'riga Qashqarcha kuy mos deb eslatma tarzida yozib qo'yadi.

Bu shoirning bastakorlik san'atidan darak edi. U o'zi yozgan laparlarning qo'shiq matnini o'zi yaratibgina qolmasdan, yana





ularni sahnaga olib chiqishda ham bevosita jonbozlik ko'rsatib yetakchilik qiladi. Shu boisdan shoirning sahna uchun yozgan she'rlari juda sahnabop, tomoshabinbop edi. Bu iqtidori tufayli o'z davriningm amshhur yozuvchisi va dramaturgi Zunnun Qodir qalamiga mansub "G'uncham" dramasini sahnalashtirishga muvaffaq bo'ladi. Fikrlarimiz isboti uchun, shoirning 1936-yilda yozilgan laparlardan namuna sifatida keltirsak:

Yigit: Jonim bir ishdan qo'rqaman, boshqa kelib qolmasun
Senga o'rtoq bo'lg'onimni otang bilib qolmasun.
Olma yuzli dilbarcha, o'zim xushtoringman-ey,
o'zim xushtoringman-ey.

Qiz: Manim qadrdonimsiz, tanamdagi jonimsiz
Otam bilsun, bilsun-e, maning suydigonimsiz.
Oy yuzli yigitcha, o'zim dildoringman-ey
o'zim dildoringman-ey.

Yigit: Bilmasun otang-onang bilib qolsa bo'lmaydur
Ikkimizni o'rtoqdek yurmoqqa hech qo'ymaydur.
Olma yuzli dilbarcha, o'zim xushtoringman-ey,
o'zim xushtoringman-ey.

...

Yigit: Qayga qochib boramiz, qayda turmush quramiz,
Qaysi shaharga borub davr-u davron suramiz.
Olma yuzli dilbarcha, o'zim xushtoringman-ey,
o'zim xushtoringman-ey.

Qiz: O'lturamiz vagonga, ketamizmi Toshkanga
Yuraversak G'uljada, qolmasak-da armonga
Anor yuzli yigitcha, o'zim dildoringman-ey
o'zim dildoringman-ey.





Yigit: Yo'qsa yuring ketaylik, Toshkan borib yetaylik
Ikkalamiz birlashib, aysh-u ishrat etaylik.
Olma yuzli dilbarcha, o'zim xushtoringman-ey,
o'zim xushtoringman-ey.

Demak, sahnadan iborat oshkora va bevosita ochiqlik bilan insoniy erkinlikni, chinakam muhabbatni yoqlaydi. Bundan tashqari "Nodon ota" nomli hajviy-tanqidiy ruhda "Ota-bola aytishuv" payravini yozadi. Bunda ilmga qarshi nodon ota bilan zamonaviy fanlarni egallashga astoydil bel bog'lagan bola munozarasi orqali jamiyatdagi johillik, nodonli ustidan yengil kulgu qo'zg'aydi, insonlarni ilm-u hunar egallashga chaqiradi. Bu kabi sahnaviy laparlar insonlarni o'ylashga, bevosita fikr yuritishga undaydi, zamona hodisalariga ochiq ko'z bilan qarashga, ijobiy xulosa chiqarishga da'vat qiladi. Ularni zamonga mos tafakkur qilishga chaqirishdek ilg'or g'oyaviy mazmuni bilan diqqatga sazovor bo'lib qolmasdan, chuqur milliy tusga egaligi bilan ham diqqatni o'ziga tortadi.

Ko'rinib turibdiki, shoir xoh maktab mavzusidagi she'rlarida bo'lsin, xoh sahna laparlari yoki aytishuvlarida bo'lsin jaholatga va ma'rifatsizlikka qarshi kurashchi sifatida maydonga chiqadi. Bu o'sha davrdagi uyg'ur-o'zbek adabiyoti uchun umumiy xususiyat kasb etar edi.

Farhatiy ijodiyotining badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritish uchun uning butun ijodiyoti bilan tanishib chiqishga to'g'ri keladi, chunki shoirning asarlari jamlanib to'plamga keltirilmagan, butun she'riyati yuzasidan badiiyligi to'g'risida muayyan xulosaga kelish qiyin. Shunday bo'lsada, to'plangan she'rlar yuzasidan quyidagi mulohazalarni bersak bo'ladi:

- 1) Farhatiy asarlarida mumtoz she'riyat an'anasi bilan zamonaviy yangi shakllar ustida izlanish va ijod qilish





bir-biri bilan chirmashib ketgan: aruz vazni bilan barmoq vaznida teng ijod qilishdan iborat bu alohidalik shoir ijodiyotining oxirgi davrlarigacha davom etgan.

- 2) Til, mazmun, shakl jihatdan milliy ruh to'la ifodalangan. Shoir asarlarini butunlay o'zbek tilidan yozgan bo'lib, matbuotlarda e'lon qilingan, to'plamlarga kirgizilgan, bir qator she'rlari uyg'urchalashtirilgan. Shunday bo'lsada asarlarida uyg'ur tilining ta'siri sezilib turadi, mazmun jihatdan ham 1930-yillardagi asarlarida, ayniqsa, lapar va aytishuvlarida milliy turmush aks etgan bo'lib, bu hol uning asarlarini milliy ruhda bo'lishini ta'minlagan.
- 3) Shoirning o'ziga xosligi kuchli. Shoirning nodonlik, jamiyatning ma'naviy hayotidagi ijtimoiy illatlar tanqid ostiga olingan she'rlari ko'proq havj qilish usuli bilan yozilgan bo'lib, satirik kulgu vositasida jamiyat a'zolariga bu norasolikni tushuntirishga, xalqni ko'zini ochishga urunish seziladi.

Shoir Farhatiy iste'dodli shoir, mohir sozanda, talantli bastakor bo'lib qolmasdan, millatning ma'naviy yuksalishi taraqqiyotining kurashchisi bo'lgan, maorif sohasini ham jonkuyar fidoiysi mohir pedagog edi. U o'zbek maktabida, o'zbek uyushmasida, yosh alvodlarni taribiyalab qolmay, jamiyatda ham o'z ijodiyoti va shaxsiyati bilan zamondoshlari orasida namuna ibrat ko'rsatib, ularga halol yashashni o'zaro inoq-ittifoq turmush kechirishni o'rgatgan, shu boisdan ham u atrofida gilar orasida yuqori obro' topib, katta hurmatga sazovor bo'lib yashagan. U o'zining asl fazilati, adabiy va san'at sohasidagi iste'dodi bilan o'ziga tengdosh o'zbek adiblari bilangina emas, balki uyg'ur adiblari, san'atkorlari orasida hamjuda yaqin do'stona ijodiy hamkorlik munosabatida bo'lgan.





Bu egiz xalqning madaniyati, adabiyoti va san'atini yana ham bir-biriga yaqinlashtirish, tutashtirishda do'stlik, elchilik rolini sidqidildan bajargan. Shoir Farhatiy Shingjonga kelgandan keyingi hayoti va faoliyati ijodiyoti bilan Shingjon hozirgi zamon o'zbek adabiyoti, san'atining nafaqat asoschilaridan biri sifatida, balki bu adabiyotning ko'zga ko'ringan namoyondasi sifatida ham nom qozondi. Maorif yo'lidagi chinakam xizmatlari o'sha davr pedagogikasining yuksalishiga, maktab-maorif ishining rivojlanishiga ulkan xissa qo'shgan mohir pedagog edi. U hatto arab va fors tillarini puxta egallagan, shuningdek, mumtoz adabiyotning yuksak namunalaridan yaxshigina xabardor, bilimdon ustoz bo'lgan. Shu bois ham saboq olgan o'quvchilar orasida shoir va adabiyotshunoslar yetishib chiqqan. Hozirgi zamon Shingjon millatlar adabiyoti instituti ilmiy xodimi Qodir Akbar ana shulardan biri. Shoirning asarlari Shingjonda 30-yillardan keyin matbuotda e'lon qilina boshlagan.

Nasrullo Qori Farhatiy o'z ijodiyoti bilan keyingi o'zbek shoirlari va san'atkorlari uchun ustoz bo'lib, elga tanilgan shoir, bastakor, mohir pedagog sifatida sezilarli iz qoldirgan ijodkordir.

Farhatiy she'rlaridan:

Bo'lgaymu-bo'lmagay

Bevafolar jonga bo'lgaymu jonon, bo'lmagay,
Vasli xijron dardiga bo'lgaymu davron, bo'lmagay.

Va'dasida turmagon qizning so'ziga aldanib,
Yurmagan dono yigit bo'lgaymu nodon, bo'lmagay.

Ahd qildingkim vatan, xalqingga sodiq bo'lg'ali,
Er yigitning so'zlari bo'lgaymu yolg'on, bo'lmagay.





Ko'pchilikning foydasini ko'zlagan ilg'or kishi,
Hech qachon o'z nafsigga bo'lgaymu qurbon, bo'lmagay.

Bilmagan ishni bilurman deb xatolashmak uyat,
Bo'lsa kamtarroq kishi bo'lgaymu nuqson, bo'lmagay.

Farhato, o'ylab gapur o'zingni olim chog'lama,
Kichkina suv qatراسi bo'lgaymu ukyon, bo'lmagay.

Xat

Salom aytib yozay xat, sog'misiz, tan-joningiz qandoq?
Saboqdosh, ham muallim, do'stlar, yoroningiz qandoq?
Bilimlarni egallashta to'luq imkoningiz qandoq?
Bo'lub xanzucha⁵⁴ tilda bexato irfoningiz qandoq?
Fahmsizlikda gohi ba'zi bir nuqsoningiz qandoq?

Bilim har qancha ko'ptur, bo'lmangiz hargiz garang deyman,
O'zingiz bilmaganni bilguvchilardin so'rang deyman,
Takabburlik yo'lini, jon uka, o'bdon tuzing deyman,
Nasihatni qabul etmoq uchun vijdongingiz qandoq?

Ko'ngul ochib gohi nansan, ulanbaylarda yurganda,
Kezib gullararo hardam chaman zavqini surganda,
Ashundoq dilkusho joyda go'zalliklarni ko'rganda,
Ko'nglida Farhatning mehrini o'bdon ko'chirganda,
Xayol uyiga kelganbu aziz mehmoningiz qandoq?

⁵⁴ Xanzucha- xitoycha





Kerak

Axloq, odob, ilm, hunar, mehr-u vafo kerak,
Ota-onang, qarindoshing, sendin rizo kerak.

Miskin boshing'a izlasang chin do'st-u mehribon,
Ikki jahonda ham egang, qodir Xudo kerak.

Nomus, uyotni tashlama, saqla go'zal sifat,
Mo'min, musulmon bandaga, sharm-u hayo kerak.
Insof-u adli bilmagan ulfatlaringni qo'y,
Inson deyishga bo'lg'udek, yor oshno kerak.

Hayvon ham ko'pchilik uchun zo'r foyda yetkuzar,
Odam bo'lg'ay desang, boqib ibratnamo kerak.

Fisq-u sharorat, kayf-u saflarni tashlama,
Mahshar kuni agar sanga, qattiq jazo kerak.

Qandoq bir ishda unum olmoqni istasang,
Tadbir-u chora topqali, javr-u jafo kerak.

Kayfi safo xarom erur, yondoshma Farxatiy,
Haq so'zga qoyil qilg'uvchi, zavq-u navo kerak.

Sabog'a xitob

Sabo, salomimni yetkur go'zal yora,
Qilurmakin kuygan yurakka bir chora.





Ul oy hajri olamda yig'latkach,
Ko'zum yoshi go'yo falakda sayyora

Qaror-u oromim yo'q ayb emastur,
Yurub boshimni yorsam alamda duvora.

Qachongacha javru jafu tig'i vohkim,
Tilib bu bag'rimni qilur ikki pora.

Muhabbatim bilgach nechuk karam qilmas,
Agarchi ko'p bo'ldum talabda havoda

Vafu qilmay desa burungi ahdiga,
Magar oziqtirdi biron yuzi qora.

Matoyi vaslini olar degan erdim,
Qo'lumda naqd jon kirib bu bozora.

Topolmayin Farhat, chekib alam-hasarat,
Yetolmadim afsus sevikli dildora.

Kelmadi

Va'da qildi-yu boray deb, ul jafujo' kelmadi,
Intizorida ko'zing'a tunlar uyqu kelmadi.

Man sori kelmoqchi bo'lsa, shum raqiblar to'sdimu,
Va'dasini yo faromush aylaganmu kelmadi.

Tiyra baxtimni yorutmoqqa ul oy yuzli nigor,
Bo'lsa-da hijron tuni, behad qorong'u kelmadi.





Ko'p zamonlar furqatida jabr-u, kulfatlar chekib,
Necha o'rtandim va lekin qo'lg'a orzu kelmadi.

Za'faron bo'ldi yuzum, ko'ksun to'la zardob uchun,
Hasratimning zo'ridan, chehramga kulgu kelmadi.

Lolagun ruxsorining shavqida xun bo'ldi jigar,
Bas, aningchun ko'zlarimdin oqdi qon, suv kelmadi.

Ko'rmagan olam yuzi, hargiz oning tengdoshini,
Nozanindek go'zal dunyog'a mangu kelmadi.
Ey ko'ngil, tuzmay nachora daxrining ozorig'a,
Bil oning no'shi hamon, nishidin ayru kelmadi.

Farxato, xurram bo'lolmas bodadin ko'ngling uyi,
Garchi derlar boda kelgan, uyga qayg'u kelmadi.

Ey ko'ngul

Anglayin bu kun saning zehningda ne bor, ey ko'ngul,
Tortinib o'lturma tezroq etgin izhor, ey ko'ngul.

Ko'pchilikning foydasini ko'zlamakim niyating,
Bu sharaftin yoki san bo'ldingmu bezor ey ko'ngul.

Xalq ishini to'g'ri niyat birla qilmoqqa tirish,
Fitnagar ham ziddiyatchi bo'lma zinhor, ey ko'ngul.

Bo'lsa gar sanda Vatan ham xalqining sevgisi,
Doimo bul jon fido qilmoqqa tayyor, ey ko'ngul.





Xalqiga bergan so'zuing – va'dangni buzmay saqlagil,
Ahdini buzg'on kishilar bo'lg'usi xor, ey ko'ngul.

Yaxshi odamgarchilikni bermayin qo'ldin desang,
Kecha-kunduz xalqiga bo'lg'il vafodor, ey ko'ngul.

O'zbek xotin-qizlar

O'zbek xotin-qizlari ko'p nodondur,
O'qimasdan g'aflat aro qolg'ondur,
O'qib bilimlarni aslo suymaslar,
Orzu-havas qancha bo'lsa to'ymaslar.
Opa-singillarim yaxshi bilishsin,
To'g'ri o'ylab insoflarga kelishsin,
O'quv bila g'ayrat qilishsin,
Nodon qilg'onlarning holi yomondur.

Bu so'zimga lablarini bursalar,
Meni qarg'ab yomonlashib tursalar,
Mayliga ham meni yomon ko'rsalar,
Mullo to'qmoq degan shundoq yomondur.

Yoshlarga nasihat

Bir nasihat aylayin eshit zamona yoshlari,
Bo'lg'usi shoyad sanga turmush qurish kengashlari,
Olmag'il nodon Xo'tan garchi qaro ko'z qoshlari,
Yormasun miskin boshing jabr-u jafoning toshlari,
Joningga to'ydurmasun so'kub tolib qarg'ashlari.





Hovshikan it tinchigay oldiga gar non tashlasang,
Tinmagay yomon Xo'tan oldiga marjon tashlasang,
Bag'riga sanchar tikan gul birla rayhon tashlasang,
Rizodur ko'ngli alamda sel bo'lub qon yoshlasang,
San o'lub ketsang qadrdoni bo'lur o'ynoshlar.

Umur ila rohatta boqsang demagay rahmat sango,
Til bila choqib hamisha bergusi zahmat sango,
Har necha hasratta qolsang qilmagay shavqat sango,
Shum zabonidin yog'ar har lahza ming la'nat sango,
Xorlagay turli haqorat birla ham qaydoshlar.

Uy ko'tarib, non yopib ham kir yuvib xizmat qilur,
Cho'ri bo'ldum sango, deb qilg'on ishin minnat qilur,
Beadablikda ota-onangni ko'p diqqat qilur,
Qosid etib oxir boshingni yegali niyat qilur,
Maslahat bergach necha shaytonsifat sirdoshlari.

Bo'lmaga'y kelturmasang har aytkanni paydo qilib,
Boshinga solgay jafo,, boshlab jadal g'avg'o qilib,
Qoziyu sudga choqirg'ay ko'chgani da'vo qilib,
Na uchun kiydurmading, tufli olub, palto qilib,
Nega qo'lda xino yo'q, o'sma ko'rmas qoshlari.

Olti kun kun yurgayborib amma-xolasin to'yida,
So'ngra bir hafta qonar ota-onasin uyida,
San kelturgan narsalarni ul yo'qotish ko'yida,
Dori yeb tezroq tushurgay bola bo'lsa bo'yida,
Qip-qizil yolg'on, "ziyondosh bor" degan aldashlari.



O'zidin o'zi arazlab ikki yil qilgay araz,
Hasratu shikva shikoyat ko'payib bol'gay daroz,
Rangu ro'yi sanxusan qish turqi, hech o'lmaydi yoz,
Bu sovuq mo'ldur bo'running muz dovondan farqi oz,
Oq ayoz yoki tekis daryosidur ko'z yoshlari.

Kimki nodon birla turmush qursa baxti qoradur,
Qayg'u anduhu alam dashti aro ovvoradur,
Baxridin o'tmak demak o'lmak aqliq choradur,
El hazar bundoq Xo'tankim eriga makkoradur
Hiylasiga tuzmagay tog' bo'lsa ham bardoshlari.

Behayo, andishasiz Xo'tanda iymon turmag'ay,
O'lsa imonsiz ketar qabrida ehson turmag'ay,
Shumlig'idin el qochib uyida mehmon turmag'oy,
Qochub o'g'ul-qizlari yonida bir on turmag'oy,
Zahar-zaqqum bo'lg'usidir yegan-ichkan oshlari.

Ko'cha-ko'yda bosh yalang yuziga sochi yoyilib,
Yuz haqoratlar ila yoqangga mahkam osilib,
Zo'r tomosha ko'rgali boshinga mardum yopilib,
Fitnagar, bekorchilarga katta ermak topilib,
Goh saning yoning bo'lub, goh oni maxtashlari.

Sizmu Xo'tan huquqini oyoq osti qi(l)gan,
So'ziga gap yondurub, bijirlama nodon degan,
Boki yo'q besh-o'n bora desa hoyi yo'q degan
Yoki bu mazlumaning yordam tayanchi yo'q degan
Tug'ro ham qonundur, g'avg'o-jadal qozg'oshlari.





Man yigirma nechchi yil jabru jafodin chiqmadim,
Shum xotunlarning g'amida mojarodin chiqmadim,
Farhatimni yo'qotib, ohu navodin chiqmadim,
Hasrato, hargiz bu bedavodan chiqmadim,
Xorlar ko'pmu muncha ham erkan kishi yovoshlar.

Mahzunga muxammas

Nola ko'p chekdim, sabo yoringa anglatgaymu deb,
Bu xazin nolam uning ko'nglini yumshatgaymu deb,
Ishqida o'lsam mozorim ko'yida yotgaymu deb,
Ko'z tutarman toki qabrimga bir o'q otgaymu deb,
Susayib paykondin uyqumdin uyg'otgaymu deb.

Hajrida g'am birla o'lsam, nozanin dildorining,
Sep g'ab-g'ab ham shakarlab, yuzlari gulzorining,
Orzu shulkim: dilimda man g'arib-u zorining,
Bir vasiyatdur sanga, ey do'stlar, ul yorining,
Ko'yini aylanturub, nash'imni to'xtatqaymu deb.

Notavon holimg'a bir bora qadah ham qilmagach,
Ko'z uchidin man sori boqib tabassum qilmagach,
To'xtatib bedodni tarki, tazallum qilmagach,
Yig'ladim ul sho'xman zora takallum qilmagach,
Ko'zlarimda o'ynagan, boshimga so'z qotgaymu deb.

Dilbarim husn-u malohat shahriga xon-u amir,
Man oning dargohida miskin gado, munglug' faqir,
Ostonidin yiroqlashtursa boshimni axir,
Xajr hayli xasta jonimni qilib quldek asir,
Bor umidim ishq bozori aro sotgaymu deb.



Yetmasa mehri jamolidin hayotimg'a ziyo,
Zulmati hijronida o'ldurgay bu mahlik ibtilo,
Bo'lmagin yoring'a vasli yo'q g'amimg'a intiho,
Oh kim, yuz martaba qildim sabog'a iltijo,
Ko'yi tuproqg'a jismim hokini qotgaymu deb.

Dardsizlarni o'ziga zodi sirdosh etmag'il,
Farhatiy saqla dilingni, g'amga chirmash etmagil,
To'kma ko'z yoshingni bas, torim yurungqosh etmagil,
Mahzuno, bu dardlig' nazmingni hech fosh etmagil,
O'qumay pinhon qil, emdi elni yig'latma deb.





AZIZIDDIN VASLIY

Aziziddin Muhammad Qamariddin o'g'li Vasliy 1919-yili O'shda tug'ilgan. Boshlang'ich va o'rta maktabning dastlabki yillarini tug'ilgan shaharida o'qigan bo'lib, 1933-yili oilasidagilar bilan Shinjongga kelib Qog'alik nohiyasida o'troqlashgan. 1938-yili Xo'tan dorulmuallimiga o'qishga kirib, bu maktabni bitirgandan keyin 1942-yilgacha Qog'aliqda o'qituvchi bo'lib, qo'shimcha foto suratchilik kasbi bilan shug'ullangan. Vasliyning adabiy ijodiyoti 30-yillarning oxiridan Dorul mualliminda o'qiyotganda boshlanadi. U dastlab o'zbek klassiklari she'riyatiga taqlid qilgan holda lirik she'rlarni yozadi. Uning ba'zi she'rlari ma'rifiy xarakterda axloqqa oid bo'lib, "Maktab", "Tong" gazetalarida ham e'lon qilinadi. 40-yillarga kelganda shoir har xil mavzudagi she'rlarni yozishga kirishadi. 1941-yil dadasi turmada qatl qilingandan keyin, Vasliy xizmatni tashlab, og'ir sarsonlik ichida turmush kechiradi.

U Qog'alik, Yakan, Xo'tan shaharlarida fotosuratchilik kasbi va boshqa mashg'ulotlar bilan faqirona, g'urbatda yashaydi. Bu vaqtda u ko'proq jamiyat ahvolidan, turish-turmushidan zorlanish xarakteridagi lirik she'rlari bilan o'ziga tasalli beradi.

Aziziddin Vasliy nasab jihatdan shoir Huvaydoning avlodi hisoblanadi. Huvaydo avlodlari II asrdan buyon Janubiy Shinjongda yuksak hurmat va o'ziga yarasha ijtimoiy munosabatga ega edi. Huvaydoning bir nevara ukasi shoir va adabiy tarjimon Siddiq XIX-asrda Yorkentda yashab, adabiy ijodiyot bilan shug'ullangan (afsuski, uning qo'lyozmalari, "Chahor darvesh" tarjimasidan boshqasi hozirgacha topilgani yo'q). Huvaydoning qarindoshlari





Salohiddin Soqib, Sirojiddin Sirojijy kabilar ham hayotining ma'lum qismini Yakanda o'tkazgan va o'z zamonasida Yakanda keng bir adabiy muhit yaratgandi. Vasliy ijodiyotida ham ana shu adabiy muhitning mantiqiy davomi bo'lib, uning she'rlaridan Huvaydo she'rlarining uslubi sezilib turadi.

Vasliy umri davomida ko'p do'stlar orttiradi. Uyg'ur adibi Ahmad Ziyoiy bilan do'stona munosabatda o'tgan bo'lib, ularning tanishish jarayoni ham qiziqarli, ham shoirona bo'lgan edi. Bu haqda Ahmad Ziyoiy shunday deydi: "Aziziddin Mahsum degan bir kishi bilishimcha, Huvaydoning chevarasi ekan. Uning xarakteri qiziq, mijozi xush, ma'nili gap aytishga usta, shoirlikka, she'rga qattiq talab qo'yadigan, xushchaqchaq Andijonlik o'zbek edi. Man u o'zbek shoiri bilan bir choyxonada tanishganman: shu joyning o'zida biz shoirona musobaqa o'tkazganmiz, u kishi bir misra she'r yozib menga uzatib, qanday shoir ekanligimni sinamoqchi bo'ladi, men u kishi yozgan o'sha qofiya, o'sha radif bilan bir misra qo'shib, o'ziga qaytardim, u yozganimni o'qib, sakrab o'rnidan turdi-da, quchoqlab: "Chinakam shoir ekansiz, borakallo" deganicha yonidan joy berdi, birga choy ichdik, shundan so'ng biz bir-birimiz bilan adabiy suhbatlarda ko'rishib turdik...". Shu uchrashuvga guvoh bo'lgan Yakandagi o'zbeklardan Habibulloh Muhiddin shunday eslaydi:

"Man Qog'alikdagi bir choyxanada Aziziddin Mahsum bilan choy ichib, suhbatlashyaotgan edim. Yonimda o'tirgan tanishim to'satdan meni nuqib, eshik tarafni ko'rsatdi, qarasam: Ahmad Ziyoiy bir kishi bilan kirib kelayotgandi. Man darhol o'rnimdan turib, u kishi bilan ko'rishdim-da, biz o'tirgan so'riga taklif qildim va Aziziddin Maxsumning qulog'iga pichirlab "Bu kishi Ahmad Ziyoiy bo'ladi" dedim. Vasliy hech narsa demasdan va shoir bilan ham so'rashmasdan yonidan daftar olib, bir varoq yirtdi-da, unga allanimalarni yozib Ziyoiyga uzatdi va ko'rishdi. U kishi esa





miyig'ida tabassum bilan qog'ozni o'qub, allanimalarni qoralab, Vasliyga qaytarib berdi. Aziziddin qog'ozdagi misralarni o'qub o'rnidan turub, shoirga quchoq ochdi.”⁵⁵

Garchi bu ikki misradan iborat bo'lsa ham, har ikki shoirning she'riyatga munosabatini, adabiy ijodiyotga muhabbatini, salohiyatini ko'rsatib turadigan bir belgi desak bo'ladi. Ikki shoirning do'stligi shu tarzda boshlangan bo'lib, bu do'stlik ularning umrining oxirigacha davom etgan.

Shoir o'z she'rlarida “Vasliy” taxallusidan tashqari “Nahfiy”, “Marviy”, “Ohiy” kabi taxalluslarni ham qo'llagan, ijodi qamrab olgan mavzular doirasi ancha keng. U atrofida yuz bergan turli voqea-hodisalar, tabiat, kishilik turmush tarsi, adab-axloq, tarbiya kabi mavzularda ko'p she'rlar yozgan bo'lsa ham, lekin o'z ijodiyoti namunalarini matbuotlarda e'lon qilishga uncha qiziqmagan. Shunga uning sh'eriylari Xo'tan, Qo'g'aliq, Yakan, Qashqar kabi shaharlardagi o'zbek aholisi ichida qo'ldan-qo'lga o'tib, ko'chirilib, yodlanib, hozirga qadar saqlanib kelinmoqda.

Vasliy oilasining O'shdan Yakanga ko'chib kelishi ham yuqoridagi ijtimoiy munosabatdan holi bo'lmagan. Vasliyning adabiy ijodiyoti mazmun jihatdan xilma-xil. U oddiy turmush voqealigidan tortib, siyosiy hodisalargacha axloq, tabiat manzaralarigacha hamma sohani she'riy til bilan tarannum qilgan. 1985-yil Qodir Akbar shoirning bir qism qo'lyozmalarini to'plab Shinjong ijtimoiy fanlar akademiyasi Millatlar adabiyoti institutega topshirgan. Yakanda yashagan, Yakanda peshqadam ziyoli Ehsonjon Xoji Ishoqjon Yolg'uz va Fayzulloxonlar shoir asarlarini to'plash va uni atroflicha o'rganish bilan shug'ullanmoqdalar.

Vasliy she'rlari asosan, mumtoz she'riyat asosida yozilgan: ishq-muhabbat mavzusida yozilgan g'azallardir:

قادر نەكبەر. چايقاندا بېشئۇبتىلقان تۇگۈن. ناسىيا كىندىك گېزىتى. -2000 يىل، 3-بەت

Qodir Akbar. Choyxonada yechilgan tugun. “Osiyo kindigi” gazetisi. 2000-yil, 3-bet.





*O't ichida o'rtadi mani firoqing nozanin,
Ham yana devona qildi ishtiyoqing nozanin.*

*Men dilimni arz etib, bir so'z desam ne bo'lg'usi,
So'zlarimga na bo'lar sening so'rog'ing nozanin.*

*Man sani ko'rgan edim, Ganjiravonni yo'lida,
Yana ko'rsam deyrman nozik siyoqing nozanin.*

*Zulfu soching sunbuli tun kechadek ermish qaro,
Ham yana erkan uzun solsang taroqing nozanin.*

Shoirning "Ajab" radifli g'azalida biroz tarjimayi holi ifodalanadi: U O'shdan Qashqarga kelib yashash holatini ifodalayotgandek tuyuladi:

*Man o'zum nodon ekanman bir safar qildim ajab
Barcha yor-u do'stlarimni muxtasar qildim ajab*

*Ey musulmonlar ,mening holimni so'rmanglar to'la
Aylanib davri jahon shamsul qadar qildim ajab...*

*Jo'nadik Qashg'ar tomon manzil marohil tay qilib,
Bir saroy xonaga tushdik maqsar qildim ajab.*

*Anda Avrang, munda Xisrav, Shermat-u, ham Sherzod,
Shahzoda, Farruhidek zardin kamar qildim ajab.*

*Men tug'ilgan yurt O'sh, Qo'shtosh mahalla badabang,
Qirg'iz-u o'zbeklari zer-u zavar qildim ajab.*

*Bir tamoshoxonada ko'rdim teyotr, konsert,
Bir necha qizlar usullarga lapar qildim ajab.*





Ushbu so'zni aytaverdim urmayin hech lof-qof,
Qoshg'arni hamma yurtdan mo'tabar qildim ajab.

Ey Visoliy, bu g'azalda ishqidan so'z aytmadim,
Ushbu so'zni ma'ni birla, muxtasar qildim ajab.

“Shinjong o'zbek adiblari” dan shoirning yana bir necha g'azali,
“Pashsha haqida nazm” va bir muxammas o'rin olgan bo'lib, uning
hammasi ham badiiy jihatdan puxta deb bo'lmaydi.

Vasliy she'rlaridan

Man devonayi shaydo yana safro ila savdo
Xaloyiqlar aro dashtda bu ham bir imtihon bo'lsa.

Mani devonayi majnun kezarman dasht ila hamon
Qani sahyton ila mal'un urardim hamon bo'lsa

Turar erdim shu bu joyda o'tar erdi necha shayton,
Borar erdim manam shunda manga taxti ravon bo'lsa.

Manam afsonayi roviy shubi osorga homiy
Hikoyatga ham zavqli ajoyib doston bo'lsa.

... * Ey quyosh, chiqsang falakka qayta botsang mayliga
Subhi sodiqni yorutsang, ham tong otsang mayliga

Bu ko'ngil bir vadayi vayronadur bo'lgan xarob
Ul sari qilsang muattar yona ketsang mayliga

Bir olis joyda ko'runur bir parivada farang
Kim ekanin bilmasang bir so'zni qotsang mayliga



Ushbu kishvar bir ulug' shahar yangi shahar
O'ngu so'l sog'-u kamin ajratsang ham mayliga

Ertadan oqshomgacha qilding na yanglig' kor-bor
Tun kechalarda yana har narsa sotsang mayliga

Man sani ko'rgan edim kayfi ravon ko'chasida
Bir so'zing bor ersa etmoqqa uyotsang mayliga

Bu suhandilkash erur ahsan tag'i dil-u so'roq
Bu g'azalni xonish aylarga unatsang mayliga

Bu g'azalda ey Vasliy, ishqidin so'z aytmadim
Har sariga ishq labzini taratsang mayliga.

* * *

Bemuhabbat ishqkim har kimda maslak bo'lmasa,
Og'zimiz bo'lmas shirin bir burda adrak bo'lmasa

Tunuz⁵⁶ fasli saraton ko'zni nobud aylagay
Ko'zimizga tortgali chun bir ko'zaynak bo'lmasa

Bu haqiqat, bu shariat, bu tariqatdin erur
Topmag'ay tavfiq kishida bir hidoyat bo'lmasa

Ishqdur tavfi hidoyat ham muhabbat manbai
Bo'lmagay maqbul duo dilda nadomat bo'lmasa

Qit'alar ham o'lkalar, shahr-u viloyat mamlakat
Mulki vayron bo'lgusi shohda adolat bo'lmasa

⁵⁶ Tumuz- yozning birinchi oyi, iyun





Xalq ichida har bir ishlar maslahat ila bo'lur
Hech bir ishlar bitmagaykim to risolat bo'lmasa

Maslahat birla bitar har bor mashaqqat har bir ish
Maslahat bo'lgay g'alat elda halovat bo'lmasa

Man shaharlarga borsam qilsam tomoshalar mudom
Orzuga yetmagay Haqdin irodat bo'lmasa

Bu shaharlar ko'p turarlarkim hisobi yo'qdurur,
Unda borib kelmagaylar kim sayohat bo'lasa

Ey Vasliy, ishqi yo'q eshak erur dardsiz kesak
Ishq inson odami ermas sadoqat bo'lmasa

* * *

Kelur bog'i aro sarvi hrom ohista-ohista
Suhanvarlik qiladur bu kalom ohista-ohista

Necha men oshiq o'ldim tashladim rohi omonlikni
Sanam holimga boqdi bir salom ohista-ohista

Dedi ey oshig'im, yaxshimisan qandoq erur holing
Kelursan poyi taxtinga qiyom ohista-ohista

Xudoyim saqladi, do'stlar, bahayri ofiyatdurman
Majozi ishqidan yondim ohista-ohista

Fasohat so'zladim ishqi majozi ishqidandurkim
Kulib aytdi bu so'z Umar Hayyom ohista-ohista



Quyoshi hovar diyoridan ravon baxtar diyoriga
Qilur shahri sabiston volfrom⁵⁷ ohista-ohista

Jahon bozorida necha zamon o'tkaymi o'tmasmi
Bilib bilmay olurlar intiqom ohista-ohista

Jahon bog'ida alvon anjur uzum shaptoli-yu olma
Yana ham mevalar shinni qiyom ohista-ohista

Qaro murch, zira, qo'y yog'i, karam, sholi, gurunchi osh
Anga lagman suyuq osh g'ulom ohista-ohista

Vasliy luqma-luqma bir osham olgin, tanovvul qil,
Bo'lur ushbu ul tamom ohista-ohista.

* * *

Naylaram bog'i chaman xurshid anvar bo'lmasa,
Tun qarong'uda sham'i munavvar bo'lmasa

Odami inson o'zi haylicha bo'lmas kimyo
Kim uni oltun qilurdek sayri ahmar bo'lmasa

Bu jahon odamlarikim uy makon qilur, ketar
Bo'lmagay shahri makon bir sa'da ahtar bo'lmasa

Taxti toji saltanat joyida bo'lmas barqaror
Saltanatga podshohdek bir manzar bo'lmasa

Raiyat bo'lgay hamon bir bevafoqa muhtalo
Shohning boshida oltun toj afsar bo'lmasa

⁵⁷ Bu yerda elektr nuri ma'nosida





Qasri ayvoni jahon tuproq ila tutgay qaro
Har bir atrofida shul surat musavvar bo'lmasa

Bu jahon atrofida qilgay sayohat har kishi
Ko'p tamosho qilmagay charhi mudavvar bo'lmasa

Ishqidan oshufta jo'y bo'lsam taajjub ish bo'lur
Vaslining visoliga pari paykar bo'lmasa

* * *

O't ichida o'rtadi mani firoqing nozanin,
Ham yana devona qildi ishtiyoqing nozanin.

Men dilimni arz etib, bir so'z desam ne bo'lg'usi,
So'zlarimga na bo'lar sening so'rog'ing nozanin.

Man sani ko'rgan edim, Ganjiravonni yo'lida,
Yana ko'rsam deyrman nozik siyoqing nozanin.

Zulfu soching sunbuli tun kechadek ermish qaro,
Ham yana erkan uzun solsang taroqing nozanin.

* * *

Man o'zum nodon ekanman bir safar qildim ajab
Barcha yor-u do'stlarimni muxtasar qildim ajab

Ey musulmonlar ,mening holimni so'rmanglar to'la
Aylanib davri jahon shamsul qadar qildim ajab

Bu safar qilganda yoz erdi, o'tirdim aftavuz⁵⁸
Bir uzoq yo'l bosdim-u, bir xatar qildim ajab

⁵⁸ avtobus





Yerga tushdik aftovus ketti, jo'nab qoldik ikav,
Tog' arosiga kirib ketdik havar qildim ajab.

Jo'nadik Qashg'ar tomon manzil marohil tay qilib,
Bir saroy xonaga tushdik maqsar qildim ajab.

Anda Avrang, munda Xisrav, Shermat-u, ham Sherzod,
Shahzoda, Farruhidek zardin kamar qildim ajab.

Men tug'ilgan yurt O'sh, Qo'shtosh mahalla badabang,
Qirg'iz-u o'zbeklari zer-u zavar qildim ajab.

Bir tamoshoxonada ko'rdim teyotr, konsert,
Bir necha qizlar usullarga lapar qildim ajab.

Ushbu so'zni aytaverdim urmayin hech lof-qof,
Qoshg'arni hamma yurtdan mo'tabar qildim ajab.

Ey Visoliy, bu g'azalda ishqidan so'z aytmadim,
Ushbu so'zni ma'ni birla, muxtasar qildim ajab.

* * *

Menga ishq o'ti tegdi go'zal yuzlik qaro qoshdin,
Bu savdo birla bosh ketdi bu savdo ketmadi boshtin.

Zamon ahli orasida bu yanglig' bir masal bordur,
"Vafo kelsa qaro toshdin, jafo kelar qarindoshdin"

Majozi ishqini ushshoq orasida qilur nag'ma,
Kelur ul ko'hna Turpan yoki Oqsuv yoki Bog'roshtin⁵⁹.

⁵⁹ Sharqiy Turkistonning markaziy shahrlari nomi (Sh.K.)





Erurman ishq yo'lida birodarlar qilur ta'na,
Nido qilsa mano yurdi azizim qolma yo'ldoshtin.

Kiribman ishq ko'yiga bu jonim chiqsa ham mayli
Demanglar bu suhanni ul yigitlar bila qo'ldoshdin.

Pashsha haqida nazm

Ko'rinur odam ko'ziga misli shayton pashshalar,
Qizorib chiqqay g'iring monandi jonon pashshalar.

O'ng chekamga qo'ndi deb ursam shapati yo'qturur,
Chap peshanamni chaqib majruh qildi pashshalar.

Yuz chibin qo'nsa-yu choqsa bir pashsha chaqqancha yo'q,
Taltayib qo'ngan yeridin chiqaror qon pashshalar.

Pashshalarni(ng) dastidin boshimni qashlarman davom,
Tun qarong'u bo'lsa ul qaylarda mehmon pashshalar.

Qon ichra jallod ekan ul ichmish odam qonini,
Istayub topgay ko'zi bor qayda inson pashshalar.

Qo'nsa o'ldirgay uni har kimki ko'ngli g'ash erur
Odam insonni tuki yo'q et deb ekan pashshalar.

Erta tong vaqtida uyquda erur bedor emas,
Kun qizarganda bo'lur g'oyib parishon pashshalar.

Kech peshin digar namozdan keyin paydo bo'lur
Pardada pinhon emas odam al-omon pashshalar.



Pashshalardan saqlanishga is chiqarmoqdur kerak,
Is chiqarsam ko'zi ko'r bo'lgay u hayron pashshalar.

Ey Vasliy pashshalarni dardidin ozroq gapur,
Ul Xudoni qudrati bo'lmish namoyon pashshalar.

* * *

Yorga aynakdin qarang, yuzin munavvar qildimu,
Tebratib boda sabo, sochi muattar qildimu.

Hech fursat bo'lmas erdim, yorni vaslidin judo,
Ayladi yordan judo, charxi mudavvar qildimu.

Yer yuzida yo'q edi ishq muhabbatdan asar,
Yig'ladi ko'rgach ko'zi, ul mehri anvar qildimu.

Ishq ahliga demak lozim emas behuda so'z,
Shul mubbat lavzini boshiga absar qildimu.

Qirq bir yolg'on bilan ming bir hikoyat aytaman,
Bu hikoyatlarni no'imon ibni manzar qildimu.

Ayladim bo'ston guliston, toleyim yovar bo'lub,
Charx ustida kavokib najm-u axtar qildimu.

Hech oshiqkim bu olamda muroda yetmadi,
Rost oshiq yor vaslini muyassar qildimu.

Oshiqiy yor ishqini ko'nglida tutti qaror,
Suratni sabhayi dilga musavvar qildimu.





Ey Vasliy, yorni ishqida takallum ayladim,
Yor ishqini ko'ngil g'ayri muqarrar qildimu.

MUXAMMAS

Bog' aro raftor qilsang, g'unchalarda xandadur,
Sarv ila shamshodi ar-ar sanga sir apkandadur,
Shul sababdin barcha inson gul yuzunga bandadur,
Haq ato qilmish sanga kim ushbu xislat sandadur,
Men o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sendadur.

Ey ulusni xo'broqi, san erursan sar biroz,
Man saning qoshingni mehrobida qilgayman namoz,
Ayladim toat-ibodat senga men ajz-u niyoz,
Bir hikoyat bor turur andoqki, Mahmudi ayoz,
Man o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sandadur.

Man ajab oshuftaman hayronalar qildi falak,
Xonumonimni buzub, vayronalar qildi falak,
Ko'z yoshimni oqizib durdonalar qildi falak,
Ishqining ta'siridan parvonalar qildi falak,
Man o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sandadur.

Ey ulusin yaxshirog'i bul nechun ilmi bilik,
Ma'rifatni bilmaganlar jonidan yuvgay ilik,
Ersa kun botgay ulus uylarga yondurgay filik,
Sabrlar uzra kelur ishqiy muhabbat, tinchilik,
Man o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sandadur.

Ey sanam, qoshing qaro, ko'zing qaro, og'zing adam,
Orazingda ko'rinadur bog'-u gulzori Ajam,
Jannatu Firdavsiy derlar ul Gulistoni Eram,



Iltifoting xayru-ehsoning ila hil-u hasham,
Man o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sandadur.

Bir qiyo boqsang jahon ayvoniga paydo erur,
Boqmasang yo'qdur jahon ayvonikim barpo erur,
San o'zing bo'lgach jahon ayvonikim barno erur,
Bor erursan bu makon hammadin a'lo erur,
Man o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sandadur.

Ey jahonni podishohi, senda bordur ixtiyor,
Bir necha shahr-u, viloyat bor erur ham beshumor,
Pahlavonlar ko'p dilovarlarki, senga jonisor,
Oy jamoling ko'rsa aqlin oldurur beixtiyor,
Man o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sandadur.

Ey Visoliy, ishq ila devona bo'ldum yorga,
Erta oqshomda chiqarman ko'cha-yu bozoriga,
Hech ilojim yo'qturur qoldim bo'lak xummoriga,
.....
Man o'zum har joydaman, albatta, ko'nglum sandadur.





IS'HOQJON YOLG'UZ

“Yolg‘uz” taxallusi bilan ijod qilgan iste‘dod sohibi Ishoqjon Hoji To‘ra ham musiqashunos, xalq baxshisi, ham rejissyor sifatida janubiy Shinjong madaniyat sohasida ko‘p nufuzli obro‘-e‘tiborga ziyoli insonlardan bo‘lgan. U 1926-yili Andijonda tug‘ilgan. Shoirning kelib chiqishi shoir Majzub Namangoniya borib taqaladi. Shundan bo‘lsa kerak uning oilasidagilar adabiyotga, she‘riyatga muhabbat qo‘ygan kishilar bo‘lib, otasi Abdullaxon To‘ra “Rashidiy” taxallusi bilan she‘rlar yozgan. O‘sha davrning peshqadam shoirlaridan bo‘lgan. Lekin bizgacha uning merosidan asarlar yetib kelmagan. Akasi ham she‘rlar mashq qilgan bo‘lib, “Najimiy” taxallusini qo‘llagan.

Taxminan 1930-yillar atrofida butun oilasi bilan Shinjongga kelib Yorkentda o‘troqlashib yashagan. Ilk ijodiy faoliyatini kichik she‘riy mashqlar bilan boshlagan. Madaniy jarayonlarda ham faol bo‘lib, bastakor, rejissyor bo‘lib ham ishlagan. O‘zi sahna uchun kichik hikoyalar yozib sahnalashtirishga muvaffaq bo‘lgan.

Ishoqjon – Yolg‘uz Shinjong madaniy hayotida salmoqli o‘run tutgan ma‘rifatparvar ijodkorlardan bo‘lgan.

Ishoqjon ijdi juda ham erta boshlangan. Adabiy ijodiy faoliyati 14 yoshlaridan boshlab ilk mashqlarini e‘lon qila boshlagan. “Yakan gazetisi” davriy oynomasida uning :“Vatan haqida manzuma” kabi she‘rlari e‘lon qilingan.

Afsuski, salkam 50 yil bu shoirning nomi tilga olinmay, asarlari elga oshkor qilinmay kelingan. Oz sonli millatlar madaniyatini oshirish, adiblari asarlarini ommaga e‘lon qilish ishlarida bu kabi ijodkorlar asarlari topilib, matbuot yuzini ko‘ra boshladi.



“Shinjong o'zbek adiblari” kitobiga ilk bora shoirning she'rlari kiritilib, ijodkor haqida qisqacha ma'lumot bilan keltirilgan.

Oilaviy muhit va an'ana ta'siri bilan Is'hoqjon ham yoshligidan she'riyatga havas qo'ygan bo'lib, biroz uzoq davom etgan madrasa hayoti uning shoir bolib yetishib chiqishida muhim rol o'ynagan. U madrasada darslik sifatida o'qitiladigan Navoiy, Fuzuliy asarlaridan boshqa Xo'ja Hofiz Sheroziy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Muqimiy va Furqatlarning ko'plab she'rlarini yodlagan bo'lib, she'riy mashqlarida bu shoirlar izidan borib, ularni ijodda ustoz deb biladi. Shu boisdan ham uning ijodiyotida mumtoz she'riyat an'anasi izchil davom etgan bo'lib, shakl jihatdan emas, balki mazmuniy-g'oyaviy jihatdan ham an'anaviylik asosiy o'rinda turadi. Masalan, “Xunxorim” nomli she'riga nazar tashlaylik:

Uzrimni qabul ayla,ey shohi-diloromim,
Sabr ayla shitob etma bosh kesmoqqa xunxorim.

Bergil menga vaslingdan bir tunda qilib mehmon
Husningni ziyo etsun ul xoliq-u rahmonim.

Dodim senga yetgaymu, har damda navo qilsam
Rahm etsang ko'rub holim, ey ko'zlari xumorim.

Sarvi qading xushtor, joni dilida Yolg'uz,
Bo'lsang menga sen xona kulbamda qadrdonim.

“Bo'lgaymikan” she'rida shoir yor vasliga intizor bo'lgan oshiq-u beqarorning obrazini yaratadi:

Shomi hijron ichra tongdan bir xabar bo'lgaymikan,
Tong nasimidan hayotga bir asar bo'lgaymikan.





Zulmati hijron ilojinkim qilurman, bilmadim
Toki tong otmay kun-u tundan battar bo'lgaymikan.

Men qayon qilsam nazora aks etar afg'on hamon
Shams emas nurini sochgan bir qamar bo'lgaymikan.

Shoirning “Dard-u g'am tokay”, “Ishq har dam fig'on bo'ldi”, “Hayron aylama”, “Shod o'lmas”, “Arzimi qabul ayla”, “Chashmi xumorim qani”, “Bo'ldum xarob”, “Menga bastur, ey rafiqliq”, “Yonima kel”, “Qandoq qilay”, “Ko'zi xumorim” kabi she'rlari insoniy pokiza ishq-muhabbat mavzularida yozilgan bo'lib, an'anaviy obrazlar: oshiq, ma'shuq, raqiblar orqali lirik qahramon kayfiyati ifodalanadi.

Is'hoqjon Yolg'uz zamondosh shoirlar bilan ham she'riyatda o'zaro musobaqalashib ijodiy takomillashishga urinadi. Uning Aziziddin Vasliy bilan mushoira tarzida yozgan muxammasi mashhur:

Sanamni hajridin jonim ichida qo'zg'alon bo'ldi,
Nigorim visolini izlab, kezib necha zamon bo'ldi.
Ko'rinmas menga ruxsori, nechuk mushkul jahon bo'ldi
Firoqi ichra ko'p yig'lab, mani holim yomon bo'ldi
Mani hijronni no'sh aylab, ishim har dam fig'on bo'ldi.

Visolidin nasib o'lsa mushavvai yig'lagan chog'da,
Junun sahrosida hayron nigorini o'ylagan chog'da,
Xayoli zulfini tori qo'limni boylagan chog'da,
Tanim ishq shiddatidin tinmay aslo o'ylagan chog'da,
Debon ushbu xayol birla qaddim misli kamon bo'ldi.

Boraymu ushbu hol birla o'zimni turfa zor aylab,
Junun sahrosida charchab charxdek tanimni beqaror aylab,
Topohur aylabon har dam el ichra o'zni xor aylab,



Kabob etding bu xasta jismimni ko'p intizor aylab,
Maningdin o'zga xalq ushbu jahon ichra amon bo'ldi.

Junun dashtida Visoli yurursan man kabi yolg'uz
Ko'zingni yoshlabon Visoli turursan man kabi yolg'uz
Nigorim eslabon visoli yotursan man kabi yolg'uz
Tushub hijronga visoli qochursan man kabi yolg'uz
G'amingda Yolg'uzing furqat ichida bezabon bo'ldi.

Keyinchalik shoir ijodiyotida real hayotiy voqealarga asoslangan she'rlar yaratiladi, davrdagi o'zgarishlar, yangiliklar to'g'risida ham qalam tebratadi. She'rlariga zamon sadolari kirib kela boshlaydi. Masalan, "Subhi ko'tardi boshin" nomli she'ri uning ijodiyotidagi ana shu burilishning belgisi bo'lib, unda shoir qalbida nuyg'ongan hayajonlar, yangi tongdan umid va yurt istiqbolidan umidvorlik aks etadi:

Subhi ko'tardi boshin nurin sochib jahonga
Chiqdi quyosh porlabon, tovush berib zamonga.

Bu kabi she'rlar sirasiga "Mardonlarning mardi kerakdur", "Muborak", "Ayladi", "Fasli bahor o'lg'och", "Ey fidoiy xalqim", "Bo'ldi omonlik", "Davroning go'zal", "Hur Vatan" kabi she'rlarni kiritishimiz mumkin:

Bu ozodlik hur zamonim elni xandon ayladi,
Chiqdi erkin bu quyoshim yurtni nuron ayladi.

Otdi tong zulmatni yirtib, gul Vatanni yashnatib
Uzdi zanjiri zulmni, yovni gumron ayladi.

"Ayladi" radifli bu she'rda hurlik tantanasiga madhiya tarzida shoirning quvonchlari ifodalanadi. Yolg'uz ijodida oddiy





mehnatkash ishchi dehqonlarning manfaati, qadr-qimmatini ulug'lanadi, ilm-fan bilan hayotlarini bezashi uqtiriladi. "Hur vatan" nomli musaddasida ham shoir Vatanning yangi tarixiy bosqichidagi parvozigacha jo'r bo'lib, o'zining hayajonlarini orzu-umidlarini quyidagicha bayon qiladi:

Hur Vatan, ozod Vatan, erkin zamonda yashnagin,
Gul quchog'ing gulga to'lsin, ochilib sen yangragin.
Gullagan bo'stonlaringga ellaringni boshlagin,
Shod-xurramlikka to'lsin, g'am yukini tashlagin.
Davrimizning bog'ida bulbul bo'lib sayragin,
Tong quyoshi nuri birla g'olibona kuylagin.

Bosh bahorning elchisi berdi gulistondin xabar,
Yetmagaya endi, dedi zimistondin asar
Doimo bog'ing to'lib sharbati anchoring oqar,
Har giyohingdan uzuldirmay shirin boling tomar
Davrimizning bog'ida bulbul bo'lib sayragin,
Tong quyoshi nuri birla g'olibona kuylagin.

Ochil, ey g'uncha diyorum, bulbulingdur intizor
Sayr etishga tolibi, sohib qalamlar intizor,
O'n necha yil ko'z tikib, yo'lingga ko'zlar intizor,
Bas yetar nozigni qo'y, kuygan yuraklar intizor,
Davrimizning bog'ida bulbul bo'lib sayragin,
Tong quyoshi nuri birla g'olibona kuylagin.

Xullas, zamonaviy mavzularda bo'lsa ham, ammo mumtoz she'riyatimizdagi an'anaviy shakllar va qofiyalanish tartibini o'z ijodiyotida saqlab qolgan. Masalan, "Aylagay vayron o'zin", "Bormikan", "Ey gul-uzor", "Jononasi ekansiz", "Emasmu" kabi she'rlari buning yaqqol misoli bo'la oladi.





Dildorima

Ey sabo, arz aylayin, yetkur borib dildorima,
Noz o'shal uyquda yotkan mahbubi davronima.

G'urbatda yurdum qon yutub, hijron ila umrum o'tub,
Bilmas mani holimni hech, rahm aylasun bemorima.

Yodida ko'ksun loladek qonga to'lub har subhi shom,
Ashkim suyi to'plonib bo'ldi ravon yer konima.

G'am bodasin no'sh ayladim, ketdi qo'lumdan ixtiyor,
Yolg'uz qolib sabru qaror, rahm aylamas giryonima.

Yonimga kel

Ey qadrdon, yo'qla bir yo'l, mehribon yonimga kel,
Jismu tanni(ng) quvvati, shirin zabon yonimga kel.

Yo'llaringga ko'z tikib toqatlarim ko'p bo'ldi toq
Intizor etmay mani, yaxshi zamon yonimga kel.

Tashlading bori muhabbat, ko'ngluma bir noz ila,
Shevaki mehrim qo'y qadam shohi jahon, yonimga kel.

Ul siyoh qoshing bila, tashla yuzungga niqob
Dil uyi rohat topar, oromi jon yonimga kel

Bilmasun ag'yorlar, Yolg'uz sari qo'ysang qadam
Vaqti shom eldan sirin aylab pinhon yonimga kel.





Xunxorim

Uzurimni qabul ayla, ey sho'xi diloromim,
Sabr ayla, shitob etma bosh kesmoqqa xunxorim.

Bergil menga vaslingdan, bir tunda qilib mehmon
Husningni ziyo etsun ul xoliq-u rahmonim.

Dodim senga yetgaymu har damda navo qilsam,
Rahm etsang ko'rub holim ey ko'zlari xummorim.

Sarvi qading xushtori jonu dilida Yolg'uz
Bo'lsang menga sen, jono, kulbamda qadrdonim.

Qit'alar

Uyqu chog'i yodingga nechun mani bir olmading,
Yo'lda yotsam ko'z yoshimga bir nazar ham solmading
Bilmadim o'pganda so'rsam lablaringni bolmidi?
Xayol birla o'ylanib hech bir zamon qo'zg'olmading.

* * *

Ey gulim, ochilmayin so'lding, xazon bo'lding bu dam
Shoxlaring yerga bukildi ham kamon bo'lding bu dam
Chun bahor vahtida keldi yov bo'lib senga alam
Barq urib etdi quyun emdi vujuding ne adam.

Hayron aylama

Ey sanam qahr aylabon aqlimni hayron aylama
Bevafolik birla sen bag'rimni bir yon aylama





Ko'p umid tutdim men ammo ahding ichra turmading
Qohru qon yig'latib ko'zimni giryon aylama

San xarob etmaktilar san bu tana bemorni
Qil xudo haqqi karam olamni vayron aylama

Zarra yanglig' oftobing shu'lasini axtarmisham
Kuydirib hijronida jismimni uryon aylama.

Tokay

Boshimga yog'durursan, ey falak, bo'ron-u g'am tokay?
Yozarsan pasti iqbolimni, ey lavhi qalam, tokay?

O'zimdandmu, falakdandmu va yo iqboli pastdandmu
Hamisha do'stdan ozor-u, dushmanimdin istam tokay

Hujum etdi sipohi g'am sari payomdand ayrilmay
Berib ozor-u kulfat, tan uyiga dam-badam, tokay?

Azalda g'am suyi birla tanimni aylamish barpo
Balodan bosh, ey egurmasman qazodan vahmi ham tokay ?

Jahon ahli hamma dilshod, vale men aylaram yuz dod,
Bu yolg'uz gunji vayronda fig'on-u dard-u g'am, tokay?

* * *

Buzilgan xotiram hargiz tomosho birla shod o'lmas,
Agar ming bora dil bersam xumorim dafiyot o'lmas

Buzuq ayvonga ustun qo'ysa barpo bolmag'ay
O'ylar, masal chog' ichra yotsa ko'rmagay bir zarra bod o'lmas





Parivash tursa yonida dil sevarmu bu sifat birla
Tanda bolmasa joni chiqar muonda dod o'lmas

Duni bemehrsiz dunyo ko'ngul jami qilg'aymi
Shabro'z qayg'u-hasratda bu Yolg'uz aslo shod o'lmas.

* * *

Asli ayyomi bahorda avji gulzorim qani
So'ldi ochilmay gulim, ul yori gulnorim qani

Bog'bonim to'sdi bobin zulm ila qiynab mane
Har taraf sayid ayla Makka qo'lida shunqorim qani

Soyeyi gardini izlab man borurdim ro'zi shab.
Ko'zlari mastona barno chashmi xumorim qani

Surmayi hoki rohini topsa, bu Yolg'uz harif
Ketgusi mendin alamlar tanda bemorim qani.

Vasliy:

Sanamni hajridan jonim ichida qo'zg'alon bo'ldi
Nigorim visolini izlab, kezib necha zamon bo'ldi

Yolg'uz:

Ko'rinmas menga ruxsori, nechuk mushkul jahon bo'ldi
Firoqi ichra ko'p yig'lab mani holim ya mon bo'ldi
Mani hijronni no'sh aylab, ishim har dam fig'on bo'ldi.

Visolidin nasib o'lsa mushavvai yig'lagan chog'da
Junun sahrosida hayron nigorini o'ylagan chog'da





Xayoli zulfini tori qo'limni boylagan chog'da
Tanim ishq shiddatidin tinmay aslo o'ylagan chog'da
Debon ushbu xayol birla qaddim misli kamon bo'ldi.

Boraymu ushbu hol birla o'zimni turfa zor aylab,
Junun sahrosida charchab charxdek tanimni beqaror aylab,
Topohur aylabon har dam el ichra o'zni xor aylab,
Kabob etding bu xasta jismimi ko'p intizor aylab,
Maningdin o'zga xalq ushbu jahon ichra omon bo'ldi.

Junun dashtida visoli yurursan man kabi yolg'iz
Ko'zingni yoshlabon visoli turursan man kabi yolg'iz
Nigorim eslabon visoli yotursan man kabi yolg'iz
Tushib hijroningga visoli qochursan man kabi yolg'iz
G'amingda Yolg'uzing furqat ichida bezabon bo'ldi.

* * *

Fasli ayyomi bahorda avji gulzorim qani?
So'ldi ochilmay gulim, ul yori gulnorim qani?

Bog'bonim to'sdi bobin zulm ila qiynab mani
Har taraf sayid ayla Makka qo'lida shunqorim qani?

Soyeyi gardini izlab man borurdim ro'zi shaf
Ko'zlari mastona barno chashmi xumorim qani?

Surmayi hoki rohini tobsa bu Yolg'uz harib
Ketgusi mendin alamlar, tanda bemorim qani?

* * *

Buzilgan xotiram hargiz tomosho birla shod o'lmas,
Agar ming bora dil bersam xumorim daf'iyot o'lmas





Buzuq ayvonga ustun qo'ysa barpo bo'lmag'ay
O'ylar, masal chog' ichra yotsa ko'rmagay bir zarra bod o'lmas

Parivash tursa yonida dil sevarmu bu sifat birla
Tanda bolmasa joni chiqar muonda dod o'lmas

Duni bemehrsiz dunyo ko'ngul jami qilg'aymi
Shabroz qaygu hasratda bu Yolg'uz aslo shod o'lmas.

* * *

Ey sanam, qahr aylabon aqlimni hayron aylama
Bevafolik birla sen bag'rimni bir yon aylama

Ko'p umid tutdim men ammo ahding ichra turmading
Qahr-u qon yig'latib ko'zimni giryon aylama

San xarob etmaktilar san bu tana bemorni
Qil xudo haqqi karam olamni vayron aylama

Zarra yanglig' oftobing shu'lasini axtarmisham
Kuydirib hijronida jismimni uryon aylama

Qit'alar

Uyqu chog'i yodinga nechun mani bir olmading,
Yo'lda yotsam ko'z yoshimga bir nazar ham solmading
Bilmadim o'pganda so'rsam lablaringni bolmidi?
Xayol birla o'ylanib hech bir zamon qo'zg'olmading.





To'rtlik

Ey gulim, ochilmayin so'lding, xazon bo'lding bu dam
Shoxlaring yerga bukildi ham kamon bo'lding bu dam
Chun bahor vahtida keldi yov bo'lib senga alam
Barq urib etdi quyun emdi vujuding ne adam.

* * *

Boshimga yog'durursan ,ey falak, bo'ron-u g'am tokay?
Yozarsan pasti iqbolimni ,ey lavhi, qalam, tokay?
O'zimdandmu,falakdandmu va yo iqboli pastdandmu
Hamisha do'stdan ozor-u ,dushmanimdin istam tokay
Hujum etdi sipohi g'am sari payomdan ayrilmay
Berib ozor-u kulfat , tan uyiga dam-badam ,tokay?
Azalda g'am suyi birla tanimni aylamish barpo
Balodan bosh ,ey egurmasman qazodan vahmi ham tokay ?
Jahon ahli hamma dilshod, vale men aylaram yuz dod,
Bu yolg'uz gunji vayronda fig'on-u dard-u g'am, tokay?

Ikkilik. Fard

Haqiqat izlasang borib go'rni ko'r,
O'liklardin borib haqiqatni so'r

Xunxorim

Uzurimni qabul ayla, ey shohi diloromim
Sabr ayla shitob etma bosh kesmoqqa xunxorim

Bergil menga vaslingdan bir tunda qilib mehmon
Husningni ziyo, etsun ul xoliq-u rahmonim





Dodim senga yetgaymu har damda navo qilsam
Rahm etsang ko'rub holim ey ko'zlari xummorim
Sarvi qading xushtor joni dilda Yolg'uz
Bo'lsang menga sen, jono, kulbamda qadrdonim.

Murabba

Qandoq qilay?
Ishqing meni qildi ado
Ey bevafo qandoq qilay?
Rahm etmasang ey purjafo,
Men benavo qandoq qilay?

Bir yo'l ko'rub oydek yuzung
Jon olg'uchi qoshu ko'zing,
Hayron etib shirin so'zung,
Sham'i namo qandoq qilay?
Jannatning huri rashk etar
Zulfi siyohingni ko'rub,
Odamligingga shak etar
Huri liqo qandoq qilay?

Xulqing mani shaydo qilur,
Jismimga o't paydo qilur,
Bir boqmasang menga agar,
Qoshi qaro qandoq qilay?

Yolg'uz k'oyingda yig'laram,
Hijron shab'i ichra qolib,
Ko'rmay visoling subhini
Men muftalo qandoq qilay?





Ko'zi xumorim

Ishqing o'tida o'rtandi jonim
Bo'lgaymu senga yetmak nigorim
Ko'rsang bu tunda faryodu zorim
Rahm aylagaysan menga uzorim

Ko'z yoshim oqti daryo bo'lubon
Soylarga toshmish ko'ksun to'lubon
Etting mani zor sabrim olubon
Yig'latma doim ko'zi xumorim.

Yodingda tinmay xoh kecha-kunduz
Yo'qtur qarorim ey qoshi qunduz
G'amda yoturman g'urbatda Yolg'uz
Bir qil nazar shafqatli yorim.

Ko'zim sizdadur

Bahor keldi, bog'larda sochildi chechak,
Keling, sayil etaylik, ko'zum sizdadur,
Ochilganda gullar tamoshosiga,
Keling, mohi tobon, ko'zum sizdadur.

Qaro kechalarda xayol ayladim,
Tong otguncha tinmay visol izladim,
Firoq o'ti birla fig'on ayladim,
Kelib shafqat aylang ko'zum sizdadur

Kelurman deb bizga va'dalar qilib,
Bu ko'zlarni yo'liga intizor qilib,





Kelmaysizmu bizga tokay noz qilib,
Keling, ahdi yolg'on ko'zum sizdadur

Chechak mevasiga ko'zim intizor,
Qachon may bo'lurkim andan bol tomar,
Quruq kosamizga may oqar,
Keling, yaxshi mehmon, ko'zum sizdadur.

Adabga chaqirdi bizni bu zamon,
Yuraklar suyundi eshitkan hamon,
Bo'lur endi bizning guliston makon,
Keling, suyguli yor, ko'zum sizdadur.





BILOL AZIZIY

Bilol Aziziy – Shinjongdagi demokratik o'zbek adabiyotining ilk namoyandalaridan biri.

Bilol Aziziy XX asr o'zbek adabiyoti tarixida, xususan, Shinjong (Xitoy) hududidagi o'zbek adabiy merosining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan adib va faol ijtimoiy arboblardan biridir. U 1920-yilda O'zbekistonning Andijon shahrida dunyoga kelgan. Ijtimoiy va siyosiy beqarorliklar natijasida 1931-yilda oilasi bilan Shinjongga ko'chib o'tgan. Dastlab Qashqar, keyinroq esa Xo'tanda yashab, o'sha yerda o'zining ilk ta'limini boshlagan. Xo'tandagi boshlang'ich maktabni muvaffaqiyatli tugatgach, o'qituvchilar tayyorlov kursida tahsil olgan.

U mehnat faoliyatini "Xo'tan-Shinjong" gazetasida jurnalist sifatida boshlagan, keyinchalik boshlang'ich maktablarda o'qituvchilik qilgan. O'qishini tamomlaganidan so'ng Oqsuv tumanidagi soqchilar idorasida (mahalliy huquq-tartibot organlarida) xizmat qilgan.

Adabiy faoliyati va g'oyaviy yo'nalishi

Bilol Aziziy 16 yoshidan boshlab adabiy ijod bilan shug'ullana boshlagan. Uning ilk she'rlari "Xo'tan-Shinjong gazeta", "Shinjong gazeta", "Oqsuv-Shinjong gazeta" kabi mahalliy nashrlarda chop etilgan. Shoirning asarlari asosan lirik-siyosiy yo'nalishda bo'lib, ularda ozodlik, milliy uyg'onish, vatanparvarlik, adolat va xalq erkinligi g'oyalari ilgari surilgan. Ayniqsa, 1940-yillarda Yaponiyaning Sharqiy Turkiston (Shinjong)dagi bosqinchilik siyosatiga qarshi qaratilgan she'rlari bilan alohida ajralib turadi. U o'z asarlari orqali fashizm, istibdod va zo'ravonlikka qarshi kurashgan, xalqni ozodlik va ma'rifat yo'liga undagan.





1945-yilda Bilol Aziziy taniqli uyg'ur shoiri va siyosiy arbob Lutfullo Mutallib boshchiligidagi inqilobiy tashkilotga qo'shilgan. Ushbu tashkilot Shinjongda muvaqqat hukumatning mustabid siyosatiga qarshi milliy-ozodlik harakatini olib borgan. Aziziy bu harakatda faollik bilan ishtirok etgan, shu sababli, 1945-yil sentabr oyining 17-kuni (to'qqizinchi oyning 17-kuni) hibsga olinib, qamoqda qatl etilgan.

Garchi Bilol Aziziy qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, u o'zining sermazmun ijodi orqali Shinjongdagi o'zbek adabiyotining demokratik tamoyillarda shakllanishiga muhim hissa qo'shgan. Shoir vafotidan so'ng uning she'rlar to'plami ikki marta nashr etilgan. Asarlarning bir qismi esa keyinchalik nashrga tayyorlanib, e'lon qilingan.

Hozirgi kunda Shinjong ijtimoiy fanlar akademiyasi huzuridagi Millatlar adabiyoti instituti tomonidan Bilol Aziziy ijodiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar shoirning adabiy-estetik qarashlarini, u ilgari surgan g'oyaviy yo'nalishlarni, Shinjongdagi o'zbek adabiyotining taraqqiyotidagi o'rnini chuqur o'rganishga qaratilgan. Bilol Aziziy — nafaqat shoir, balki milliy uyg'onish, ozodlik va adolat yo'lida fidokorona kurashgan ziyoli sifatida Shinjong o'zbek adabiy merosida unutilmas nomlardan biridir. Shoirning qisman asarlari vafotidan keyin e'lon qilindi.

Bilol Aziziy she'rlarida asosiy mavzu Vatan va uning ozodligi, elning farovon turmushi, millatning istiqboli va kelajar avlodning ma'rifatli bo'lishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday she'rlaridan biri "Vatan ozod bo'lg'onda" deb nomlanadi. Ushbu she'r Bilol Aziziyning ozodlik, vatanparvarlik va kelajakka ishonch g'oyalari bilan sug'orilgan siyosiy-lirik asarlaridan biridir :

*Gulim, xushhol o'ynaymiz Vatan ozod bo'lg'onda,
Qo'l tutushub⁶⁰ yayraymiz Vatan ozod bo'lg'onda.*

⁶⁰ Uning she'rlarida uyg'urcha elementlar ham uchraydi: qo'l tutushub – qo'l ushlab. (Sh.K.)



Shoir bu yerda “Gulim” obraziga murojaat qilib, (bu obraz vositasida, nafaqat sevikli yor, balki millatdoshi, taqdiridoshiga murojaat qilayotgandek bo'ladi) kelajakda Vatan ozod bo'lganda xalqning birgalikda bayram qilishi, xursandchilik va birdamlik ruhi hukm surishini tasvirlaydi. Bu — umid va quvonchga yo'g'rilgan orzudir.

*Biz ko'zlagan suzuk tong bo'lg'usidur muyassar,
Vaxshiy, qonxo'r dushmanlar cho'qum barbod bo'lg'onda.*

Shoir bu yerda ozod tong, ya'ni erkinlik va yorug' kelajak orzusi, albatta, amalga oshishini ifodalar ekan, bu tong esa xalq dushmanlari — zulm, mustamlaka va zo'rvonlik kuchlari yo'q qilingandagina keladi, degan qattiq ishonch bildiradi. Zulm-zo'rvonlika qarshi kurashga chorlovida Vatanni adabiy qahramonlar Farhod va Shiringa qiyoslaydi:

*Vatan uchun qayg'urg'on vatanparvar bo'lamiz.
Vatan mango Shirin, sango Farhod bo'lg'onda.*

Bu bandda shoir o'zini va o'z avlodini vatanparvarlik yo'lida fidoyilikka tayyor insonlar deb tasvirlaydi. “Shirin va Farhod” timsollari orqali sadoqat va muhabbat ramziy ma'noda ishlatilgan — Vatanga muhabbat Shirin-Farhod muhabbatidek cheksiz va qurbonlikka tayyor bo'lishi kerak, degan fikr ilgari suriladi. Keyingi baytda shoir xalqni faqat yig'i-sig'i bilan emas, amaliy harakat bilan ozodlikka erishish kerakligini ta'kidlaydi. Maqsadga erishish uchun faol kurash, fidoyilik zarurligi aytiladi:

*Yig'i-hasrat yo'li bilan maqsadimiz hal bo'lmas,
Kecha-kunduz ishimiz ohu faryod bo'lg'onda.*





Vattanni sevish e'tiqodiy tushuncha ekanligi go'yo jadidlar shioriga aylangan "Vatanni sevmoq iymondandur" hadisini yodga soladi:

*Gulim, hargiz qayg'urma jasurona amal qil,
Har ishni qilish mumkin chin e'tiqod bo'lg'onda.*

Bilol Aziziy o'z asarlarida mumtoz adabiyotning g'azal, qit'a, ruboiy kabi an'anaviy janrlaridan keng foydalangan. U o'z she'riyatida nozik lirizm, ruhiy izlanishlar, inson qalbining ichki kechinmalari, muhabbat, armon va umid mavzularini chuqur ifodalash mahorati bilan ajralib turadi. She'rlarida nafaqat shaxsiy tuyg'ular, balki keng ijtimoiy-axloqiy masalalar, xalqning hayoti, qadriyatlarini, diniy-ma'rifiy dunyoqarashi ham yuksak badiiylkda yoritilgan.

Aziziyning poetik uslubi sodda, ravon, xalqona tilda bo'lib, bu orqali u o'quvchiga murakkab g'oyalarni ham samimiy va tushunarli tarzda yetkazadi. U o'z asarlarida insonni halollik, adolat, sabr, mehr-oqibat, insof kabi yuksak axloqiy fazilatlarga da'vat etadi. Shoir she'rlarida xalq hayotining sodda lavhalari, insoniy munosabatlar, mehnat, turmush tarzining estetik jihatlari keng yoritiladi:

*Kelurman deb bizga va'dalar qilib,
Bu ko'zlarni yo'liga intizor qilib,
Kelmaysizmu bizga tokay noz qilib,
Keling ahdi yolg'on ko'zum sizdadur*

Ushbu baytga o'xshash namunalarda Bilol Aziziy ham mumtoz adabiyot an'alariga sodiq qolgan holda, lirik qahramon tuyg'ularini obrazli, poetik ifoda orqali yetkazadi. Keyingi bandlarda qo'llangan pari, buzuq ko'ngil, ganj, vayrona



kabi timsollar vositasida ichki kechinmalar, sevgi armonlari tasvirlanadi. Bunday badiiy ifodalar husni ta'lil san'atining yuksak namunasi bo'lib, shoirning mumtoz an'anani chuqur egallaganini ko'rsatadi.

Bilol Aziziy o'z ijodida mumtoz adabiyot an'alarini chuqur o'rgangan bo'lib, ularning ichki mohiyatini zamonaviylik ruhida qayta talqin qilgan. Uning she'riyatida islom ma'rifati, tasavvuf axloqi, insonparvarlik, ezgulik va axloqiy poklik kabi g'oyalar asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasavvufiy tafakkurda markaziy o'rinda turgan qalb pokligi, ruhiy kamolot va Allohga muhabbat motivlari shoirning bir qancha asarlarida o'z ifodasini topgan.

Shu bilan birga, Bilol Aziziy o'z davrining og'riqli ijtimoiy muammolariga befarq bo'lmagan. Uning she'rlari ijtimoiy ongni uyg'otishga, adolat va haqiqatni targ'ib qilishga qaratilgan bo'lib, bu jihatdan u o'zini faqat lirizm doirasida cheklab qo'ymaydi. Aksincha, jamiyat hayoti, xalq taqdiri, milliy qadriyatlar himoyasi ham uning ijodida muhim o'rin tutadi.

Mumtoz she'riyatda g'azal – shoirning badiiy salohiyatini, estetik qarashlarini va poetik didini namoyon etuvchi eng muhim janrlardan biri hisoblanadi. Har bir ijodkorning adabiy maqomi ko'p jihatdan uning g'azalchilikdagi mahorat darajasi bilan baholangan. G'azal orqali shoir faqat ishqiy tuyg'ularni emas, balki falsafiy mushohadalar, tasavvufiy g'oyalar, axloqiy-ijtimoiy mavzularni ham chuqur yoritgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, devon tuzishda g'azal markaziy o'rinda turgan. O'tmishda g'azal yozmagan ijodkorning devon tuzishi amri mahol sanalgan. Chunki g'azal – badiiy uslubning eng nafis, eng murakkab, ammo eng ko'p o'qiladigan va qadrlanadigan shakli sifatida e'tirof etilgan.

Bilol Aziziy ham ana shu buyuk an'anani davom ettirgan shoirlardan biridir. Uning g'azallari usluban sodda, xalqchil va





ravon bo'lib, ular keng kitobxonlar ommasi tomonidan tushunarli va yurakka yaqin tarzda yozilgan. Shoir o'z g'azallarida xalqning ruhiy olami, mehr-oqibat, insoniy sevgi, diniy-ma'naviy g'oyalarni jo'shqin, samimiy va beg'ubor tarzda ifoda etadi.

Ushbu g'azallar vazn jihatidan barmoq tizimiga yaqin o'ynoqi, yengil va musiqiylikka boy bo'lgan vaznlarda yozilgan bo'lib, bu xususiyat ularni xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlashtiradi. Ayniqsa, bu jihat Bilol Aziziyning she'riy uslubda xalq ruhi bilan uyg'unlikda ijod qilganini ko'rsatadi. Bunday vazn tanlovi she'riy misralarning ohangdorligini oshirib, ularni yod olishni osonlashtiradi, ayniqsa, doston, lirik qo'shiq yoki xalq sayllarida kuylash uchun moslashtirilgan shakllarda samarali qo'llaniladi.

Sharq mumtoz adabiyotida adabiy aloqa va o'zaro ta'sir juda muhim tamoyillardan biri bo'lib, bu jarayon ko'p hollarda salaf yoki zamondosh shoirlarning biron mashhur g'azali yoki ruboiyidan ilhomlanib, shu asarning vazni, qofiyasi va radifini saqlagan holda yangi g'azal yoki she'r yaratish tarzida namoyon bo'lgan. Bu holat nafaqat izdoshlik, balki ijodiy musobaqalashuv (munozara, aytishuv) ruhida kechgan bo'lib, shoirning o'z ustoziga, zamondoshiga yoki ma'naviy yetakchisiga nisbatan hurmati bilan bir qatorda, o'z badiiy salohiyatini ko'rsatish istagini ham ifodalagan.

Bu mumtoz adabiyotdagi muhim ijodiy tamoyil — ya'ni tazmin, taxmis, nazirago'ylik kabi shakllarda yuzaga chiqqan. Bu an'ana o'zbek adabiyotining turli bosqichlarida, xususan, uyg'ur shoirlarining Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi yirik shoirlarga nazirago'ylik (o'xshatma tarzda), tazmin shaklda ijodiy ergashishlari natijasida ko'plab asarlar badiiy maydonga kelgan.

Ana shunday ijodiy an'analar va musobaqalashuv ruhi Bilol Aziziy ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. U mumtoz shoirlarning mashhur g'azallariga nazira yozish, ularning vazn





va qofiya tizimini saqlagan holda yangi mazmun kiritish orqali o'z badiiy mahoratini namoyon qilgan. Aziziy bu orqali mumtoz she'riyatga bo'lgan chuqur hurmatini, uning estetik mezonlariga sadoqatini bildiribgina qolmay, balki zamonaviylikni, xalqona ruhni va o'ziga xoslikni ham o'z she'rlariga olib kirgan.

Shu tarzda u o'z g'azallarida Salaf shoirlarning yondashuvini davom ettirgan, lekin uni bevosita takrorlamagan. Mavzuda yangilik yaratgan, xalq ruhiyatiga yaqin g'oyalarni kiritgan. Uslubda soddalik va ravonlik, mazmunda esa chuqurlikni ta'minlashga intilgan. Tasavvufiy-falsafiy yoki ijtimoiy-axloqiy mazmunni o'z davrining muammolari bilan bog'lay olgan. Misol uchun Alisher Navoiyning "Kelmadi" radifli g'azaliga ijodiy munosabatda davr ohanglariga mos, xalqona uslubga yaqin yo'nalishda yozilgan o'xshatmalarini ko'rish mumkin,

Bu jihatlar Bilol Aziziyning mumtoz adabiyot bilan uzviy bog'langan, ammo o'z zamonining ruhi va talablarini anglagan ijodkor sifatida ta'riflash imkonini beradi. Shoirning bu kabi adabiy musobaqalashuvga kirishish holatlari nafaqat uning bilim saviyasi, balki mumtoz she'riyat an'analarini ijodiy rivojlantira olgan salohiyatli shoir ekanligini ko'rsatadi.

Bilol Aziziy ham faqat shoir sifatida emas, balki ilg'or fikrlovchi, ma'naviy merosga e'tiborli ziyoli sifatida ham tanilgan. Uning tarixiy va ijtimoiy mazmundagi asarlari o'z davrining voqeliklarini ifodalashda muhim manba hisoblanadi. Bilol Aziziy ham O'zbekiston va Sharqiy Turkiston (hozirgi Shinjong) o'rtasidagi adabiy, ma'naviy va tarixiy aloqalarning mustahkamlanishida katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir.

Shoir o'z asarlari orqali ikki xalq — o'zbek va uyg'ur madaniyatini birlashtiruvchi ko'priklar vazifasini bajargan. Ularning adabiy, ruhiy va madaniy hamkorligi bugungi kun o'quvchilari uchun muhim ma'naviy saboqdir.





Xulosa o'rnida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Bilol Aziziy – o'tgan asrning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy talotumlarida o'z ovozi yo'qotmagan, an'anaviy va zamonaviy adabiy yo'nalishlarni uyg'unlashtirgan salohiyatli ijodkordir.
2. Shoir ijodida lirizm, tasavvufiy tafakkur, islomiy g'oyalar, ijtimoiy muammolar chuqur ifodalangan bo'lib, u o'zbek mumtoz adabiyotining munosib davomchisi sifatida tan olinadi.
3. She'rlarining obrazlar tizimi, badiiy ifodasi va mazmuniy boyligi shoirning yuksak poetik didi va mahoratini namoyon etadi.
4. Bilol Aziziy ijodi orqali o'zbek va uyg'ur adabiy aloqalarining boy tarixiga nazar solish, bu aloqalarning bugungi kunga qadar qanday davom etganini o'rganish mumkin bo'ladi.
5. Shoirning diniy-ma'rifiy, axloqiy va tarixiy qarashlari, adabiyoti orqali xalq ongini uyg'otishga, ijtimoiy birlik va ma'naviy poklikka chorlovchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilol Aziziy she'rlari

Gulim, xushhol o'ynaymiz Vatan ozod bo'g'onda,
Qo'l tutushub yayraymiz Vatan ozod bo'lg'onda.

Biz ko'zlagan so'zuk tong bo'lg'usidur muyassar,
Vahshiy qonxo'r dushmanlar cho'qum barbod bo'lg'onda.

Vatan uchun qayg'urg'on vatanparvar bo'lamiz.
Vatan mango Shirin, sango Farhod bo'lg'onda.

Yig'i-hasrat yo'li bilan maqsadimiz hal bo'lmas,
Kecha-kunduz ishimiz ohu faryod bo'lg'onda.

Gulim, hargiz qayg'urma jasurona amal qil,
Har ishni qilish mumkinchin e'tiqod bo'lg'onda.



Yo'ldoshimga

Umur oqib oqin suvdek o'tar har qayon,
Ba'zi so'zung, ba'zi do'g'op hatto ko'p qibon.

Tirishsang suv saflanib o'ynob oqadi,
Tirishmasang bu qimmatlik suv soyg'a oqadi.

Yig'i hasrat-qayg'u, motam vayron go'riston,
G'ayrat bilan bo'lg'usidir bog'u guliston.
Do'stum borliq g'ayratingni doim ishga sol,
Ilmu urfon bog'lari huzur-lazzat ol.

Ey yo'ldoshim, san hamisha to'g'ri yo'lda mang⁶¹,
Olqushlasun har manzilda saning so'zung tong...

To'g'ri yo'lda mangg'anlarga xavfu- xatar yo'q,
Kelajagi saodatlik, mangu ko'ngli to'q.

Saodatning kamarini balki bog'lasang,
Haqiqatning kemasiga mangu o'ltursang.

O'kyoning do'lqunlari⁶² gumroh qilolmas,
Hech qandoq to'squn seni ortqa burolmas.

Tirish-ishla, butun dunyo bo'lsun bir bo'ston,
Xoru zorliq, egiz tog'lar bo'lsun guliston.

San yasag'on oshu bog'lar avlodga yoqsun!
Umrung suyi hech loylanmay so'p-so'zung oqsun.

⁶¹ borgin

⁶² O'kyoning do'lqunlari – ummonning to'lqinlari.





FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1977. – 127 б.
2. Абдуғафуров А. XIX аср иккинчи ярми ўзбек демократик адабиётида сатира (Муқимий ва Завқий асарлари бўйича). Филол.фанлари номзоди...дисс. – Тошкент, 1958. – 253 б.
3. Абдуғафуров. Завқий ҳаёти ва ижоди. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. Ж.4. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт, 1960. – Б. 179–219.
4. Адабиёт энциклопедияси. Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015. – Б. 218.
5. Адабий тур ва жанрлар: (Тарихи ва назариясига оид): 3 жилдлик. 2- жилд. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992. – 248 б.
6. Naqqul I. Navoiyni anglash mashaqqati // O'zbek tili va adabiyoti j., 2005, 1-son, 3-bet.
7. Shinjong o'zbek adiblari. Nashrga tayyorlovchi: Qodir Akbar. Shinjong xalq nashriyoti.1989 y., 114 – 140 betlar
8. شىنجاڭ ئۆزبېك شىئىرلىرى ئىجادىياتىدە زەۋقىي تەسىرى. شىنجاڭ ئۇنىۋېرسىتېتى نامىي شىنجونگ ўزبېك شوئرلىرى وىجودىيەتىدا زەۋقىي تاۋسىرى. شىنجونگ دىۋىلات ئىۋىۋېرسىتېتى ھابارنوماسى. 12-يىلى 2012-سان 4-قىسىمى). -پىماسەپە -ئىجتىمائىي پەن قىسىمى).
9. شىنجاڭ ئۆزبېكىستان يازغۇچىلىرى. نەشىر قىلىشقا تەييارلانغان: قادىر ئەكبەر. شىنجونگ ўزبېك ادىبلارى. ناشرغا تاييەرلەۋچى: قودىر اكبار. شىنجونگ خەلق نەشىرىيەتى.1989 يىلى, 140 – 114 بەتلەر.



10. Ажаб замона. Шеърлар. Нашрга тайёрловчилар: А.Мадаминов ва А.Турдиалиевлар.Тошкент: “Шарқ” МЧЖТ, 2003. 146-бет.
11. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. (Девон).. Нашрга тўпловчи: Қўқон адабиёт музейининг катта илмий ходими У. Неъматов. – Фарғона: 2008
12. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960 (Mamatohunov U. Classics of Uyghur literature. - Tashkent., 1960).
13. Маллаудов С. Тарихий дostonлар. Тўплам: Уйғур адабиёти ва фольклоридаги жанрлар. Алмута, 1980 (Mallaudov S. Historical epics. Collection: Genres in Uyghur Literature and Folklore. Almuta, 1980).
14. Розиева Д. Низорий ижодида Навоий традицияси. Тўплам: Уйғур адабиётидики традиция ва наворлиқ масилилири. – Алмута, 1976.
15. Солиҳова Х. Уйғур дostonчилиги ва насри тараққиётида Алишер Навоий “Ҳамса” сининг ўрни //фил.ф.док.... диссертацияси. – Тошкент: ЎЗМУ 1995.
16. Arshiddinov B. Epic genre in the works of Uyghur classics. - Almuta, 1988).
17. Маллаудов С. Тарихий дostonлар. Тўплам: Уйғур адабиёти ва фольклоридаги жанрлар. Алмута, 1980.
18. Мугинов А. Описание уйгурских рукописей инс-та народов Азии. – М., 1962 (Muginov A. Description of Uyghur manuscripts of the Institute of Asian Peoples - M., 1962).
19. Мухлисов Ю. Асрлар ва асарлар. Алматы: Наука, 1973 (Muxlisov Yu. Ages and works. – Almaty: Nauka, 1973).
20. Уйғур адабиётининг қисқача тарихи. Алмута, 1983.
21. Мухлисов Ю. Асрлар ва асарлар. Алматы: Наука, 1973 (Muxlisov Yu. Ages and works. – Almaty: Nauka, 1973).





22. Хамроев М. Тарих, назария, маҳорат. – Алмута, 1964 (Хамроев М. History, theory, skill. – Almuta, 1964).
23. Райхонов Д. Место и значение произведений Навои в литературной жизни уйгуров. АКД. – Алмута, 1992 (Rayxonov D. The place and significance of the works of Navai in the literary life of the Uyghurs. AKD. - Almuta, 1992).
24. Қодирий Р. Уйғур адабиётида Навоий анъаналари / “Адабий мерос”. 1963. 1-китоб. 52-60б (Qodiriy R. Navoi traditions in Uyghur literature / “Literary heritage”. 1963. Book 1. 52-60p).
25. Хурматжон Фикрат., Қодир Акбар. Ўзбек адабиёти тарихи. Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти, 2005. (уйғур тилида) (Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar. History of Uzbek literature. Urumchi: Xinjiang People's Publishing House, 2005. (in Uyghur).
26. Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва янгилинишлар (Завқий ва Муҳсиний ижоди мисолида). Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2018
27. Очилев Э. Тасаввуф адабиётида рубоий // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. № 2. – Б. 14-24.
28. Қосимов Б ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Маънавият, 2004. – 464 б.
29. 92. Қосимов Б. ва бошқ. Жадиличлик: ислохот, янгилиниш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Тошкент: Университет, 1999. – 219 б.
30. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. (XVIII - XIX): Филол. фанлари номзоди...дисс. – Тошкент: 1961. – 563 в.
31. Худайкулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих.фанлари номзоди...дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 28 б.



32. Жабборов Н.А. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари: Филол.фанлари номзоди...дисс. – Тошкент, 1994. – 153 б.
33. Жабборов Н.А. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фанлари док-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 45 Б.
34. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. (XVIII –XIX асрлар). – Тошкент: Ўзфанакаднашр. 1961. – 360 б.
35. Қаюмов А. Асарлар. Қўқон адабий муҳити. 7-жилд. 1-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010, – 278 б.





MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
XX asr boshlarida Sharqiy Turkistondagi adabiy muhit va o'zbek-uyg'ur adabiy aloqalari.....	5
Dilafkor.....	16
Zarif Qori Toshkandiy	38
Barqiy.....	49
Pirimqul Qori Andijoniy.....	59
Turg'unjon Rahimiy	66
Nasrulloh Qori Farxatiy.....	72
Aziziddin Vasliy.....	104
Is'hoqjon Yolg'uz	118
Bilol Aziziy	133
Foydalanilgan adabiyot va manbalar.....	142

SHAXLOXON KARIMOVA



XX ASR BOSHLARI SHINJONG O‘ZBEK SHE’RIYATI



Monografiya

“Pages print” nashriyoti
Toshkent – 2025

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **E. Sultonov**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



Nashriyot ro'yxat raqami № 263082. 25.04.2024-y.
Bosishga ruxsat etildi: 08.10.2025.
“Cambria” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16
Nashriyot bosma tabog'i 10,1. Adadi 100 nusxa.
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Chimboy ko'chasi, 8-uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tuman, Chimboy ko'chasi, 8-uy.